



# Tamoyil va mezonlar

3.0-tahrir | 2023-yil, mart

## Nomi

Better Cotton tashabbusining tamoyil va mezonlari, 3.0-tahrir

## Standart kuchga kirish sanasi

Better Cotton kengashi tomonidan 2023-yil 7-fevralda tasdiqlangan  
2024-yil 1-martdan kuchga kiradi (Better Cotton tashabbusining 2024-2025-yil mavsumi)

## Tarjima aniqligi

Mazkur hujjatning rasmiy tili - ingliz tili. Tarjima qilingan matn bilan asl matn o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan taqdirda, ingliz tilidagi matnga murojaat qiling. Boshqa tillarga qilingan tarjimalar taqdim etilsa-da, Better Cotton tashabbusi tarjima bilan bog'liq holda yuzaga kelgan xato yoki tushunmovchiliklar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

## Keyingi ko'rib chiqish

Better Cotton tashabbusining tamoyil va mezonlari kamida besh yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi. Keyingi ko'rib chiqish 2028-yilda amalga oshirilishi kutilmoqda.

## Savol yoki qo'shimcha ma'lumot bormi?

Biz bilan [standards@bettercotton.org](mailto:standards@bettercotton.org) elektron pochta manzili orqali bog'laning.

Better Cotton tashabbusi  
7-9 Chemin de Balexert  
1219 Châtelaine, Switzerland

**Last modified : 26/05/2023**

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## Mundarija

### Kirish

Error! Bookmark not defined.

#### 1-tamoyil: Boshqaruv

14

- 1.1-MEZON – Paxta yetishtiruvchilar darajasidagi tadbirlar yaxshi xabardorlik asosida, samarali va inklyuziv tarzda boshqarilishi 14
- 1.2-MEZON – Ma'lumotlarni samarali boshqarish qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishi 18
- 1.3-MEZON – Mahalliy nuqtai-nazardan dolzarb bo'lgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohalarida doimiy takomillashtirish namoyish etilishi Error! Bookmark not defined.
- 1.4-MEZON – Salohiyat inklyuziv va samarali yondashuv asosida mustahkamlanishi Error! Bookmark not defined.
- 1.5-MEZON – Ayollarning teng ishtiroki va ahamiyati e'tirof etilishi Error! Bookmark not defined.
- 1.6-MEZON – Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash masalalarining hamkorlik asosida hal etilishi 28
- 1.7-MEZON – Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishni takomillashtirishga qaratilgan choralar ko'rilishi 29

#### 2-tamoyil: Tabiiy resurslar

Error! Bookmark not defined.

- 2.1-MEZON – Tuproq salomatligining yaxshilanishi 31
- 2.2-MEZON – Suv sifati va mavjudligining optimallashtirishi Error! Bookmark not defined.
- 2.3-MEZON – Biologik xilma-xillik va tabiiy yashash muhitlarining asralishi va holati yaxshilanishi Error! Bookmark not defined.
- 2.4-MEZON – Tabiiy ekotizimlar va yuqori muhofaza qiymatiga ega bo'lgan hududlarning asralishi Error! Bookmark not defined.

#### 3-tamoyil: Ekinlarni himoya qilish

Error! Bookmark not defined.

- 3.1-MEZON – Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish strategiyasi amalga oshirilishi 43
- 3.2-MEZON – Pestitsidlar ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli yorliqlanishi Error! Bookmark not defined.
- 3.3-MEZON – O'ta xavfli pestitsidlardan foydalanishdan faol tarzda bosqichma-bosqich voz kechilishi Error! Bookmark not defined.
- 3.4-MEZON – O'ta xavfli pestitsidlar ekologik xavf-xatarlarining yumshatilishi Error! Bookmark not defined.
- 3.5-MEZON – Pestitsidlar bilan muomala qilish va saqlashga mas'uliyat bilan yondashish 54

#### 4-tamoyil: Tola sifati

Error! Bookmark not defined.

- 4.1-MEZON – Tola sifatining himoya qilinishi va yaxshilab borilishi 62

#### 5-tamoyil: Munosib mehnat

64

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

5.1-MEZON – Mehnat huquqlarining buzilish xavfi va holatlari samarali tizim vositasida aniqlanib, bartaraf etilishi	65
5.2-MEZON – Fermer va ishchilar o‘z mehnat huquqlarini tushunishi	Error! Bookmark not defined.
5.3-MEZON – Bolalar mehnatiga barham berilgani, bolalar va yosh ishchilar huquqlarining himoyalanganini	Error! Bookmark not defined.
5.4-MEZON – Majburiy mehnatga barham berilgani, ishchilar ixtiyoriy tarzda ishga yollanishi	Error! Bookmark not defined.
5.5-MEZON – Fermer va ishchilar uyushmalarga birlashish va jamoaviy muzokaralar olib borish erkinligi huquqiga ega bo‘lishi	Error! Bookmark not defined.
5.6-MEZON – Mehnat amaliyotida hech qanday kamsitish yo‘qligi	Error! Bookmark not defined.
5.7-MEZON – Ishchilarga kamida eng kam ish haqi miqdorida haq to‘lanishi	Error! Bookmark not defined.
5.8-MEZON – Ishchilar sog‘ligi va xavfsizligi himoyalaniishi	Error! Bookmark not defined.
5.9-MEZON – Ishchilar zo‘ravonlik va ta‘qibdan xoli bo‘lgan, adolat tamoyillariga asoslangan ish joyida mehnat qilish huquqiga ega bo‘lishi	Error! Bookmark not defined.
5.10-MEZON – Ishchilar ish bilan bog‘liq aniqlanish va kutilmalarga ega ekani	Error! Bookmark not defined.

---

#### 6-tamoyil: Barqaror daromad manbalari

Error! Bookmark not defined.

6.1-MEZON – Barqaror daromad manbalarini takomillashtirish va chidamlilikni oshirish uchun choralar ko‘rilishi	Error! Bookmark not defined.
--	------------------------------

---

#### 1-ilova: Keng qamrovli masala: gender tengligi

90

#### 2-ilova: Keng qamrovli masala: iqlim o‘zgarishi

Error! Bookmark not defined.

#### 3-ilova: Atamalar lug‘ati

101

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o‘ziga xosligidan qat’i nazar, barcha shaxslarni o‘z ichiga oladi. Qo‘shimcha ma’lumot uchun bizning [“Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik”](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda “fermerlar” va “ishchilar” tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# Kirish

## Better Cotton tashabbusi haqida

Better Cotton tashabbusi – paxtachilik sohasida atrof-muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha dunyodagi yetakchi tashabbus. Maqsadimiz - Paxta yetishtiruvchilarning daromad topishi va farovonlikka erishishiga ko'maklashish barobarida, atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklash. Turfa xil manfaatdor tomonlarni birlashtiruvchi platforma sifatida biz paxta tabiat uchun bezarar tarzda yetishtiriladigan dunyoni yaratish maqsadida ta'minot zanjiridagi barcha sheriklarni birlashtiramiz. Better Cotton tashabbusining 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun mo'ljallangan Strategiyasida paxta yetishtirish jarayonini atrof-muhit, paxtakorlar hamjamiyatlari va mazkur tarmoq kelajagidan manfaatdor bo'lgan barcha uchun takomillashtirishga qaratilgan 10 yillik rejaning yo'nalishi belgilab berilgan. Bu maqsadga erishishda Better Cotton standartlar tizimi (BCST) bizning yaxlit yondashuvimiz va dasturiy hujjatimiz sifatida xizmat qilib, paxta yetishtirishda atrof-muhit barqarorligini ta'minlashning barcha - ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy o'lchamlarini qamrab oladi.


Better Cotton tashabbusining tamoyil va mezonlari BCSTning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ularda barcha Paxta yetishtiruvchilar o'z paxtasini Better Cotton yorlig'i ostida sota olishi uchun zarur bo'lgan litsenziyani olishga qo'yiladigan global talablar belgilangan. Ushbu talablar atrof-muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan sa'y-harakatlarni dala darajasida takomillashtirishga yo'naltirishga ko'maklashish maqsadida ishlab chiqilgan.

## Harakatlantiruvchi ta'sir: o'zgarishlar nazariyamiz haqida

Better Cotton tashabbusining O'zgarishlar nazariyasida biz nimalarni va qaysi maqsadda amalga oshirayotganimiz tavsiflanadi. O'zgarishlar nazariyasi faoliyatimiz natijalari va biz belgilagan maqsadlarga erishish yo'lidagi yutuqlarimizni Paxta yetishtiruvchilar hamda birmuncha kengroq ko'lamda, ya'ni moda, kiyim-kechak va to'qimachilik sektorlarida baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali Better Cotton tashabbusi paxta yetishtirish jarayonida atrof-muhit barqarorligi ta'minlangan dunyo to'g'risidagi o'z tasavvurini ilgari surish uchun fermer xo'jaliklari va bozor darajasida qanday faoliyat yuritishi ochib beriladi. Tamoyil va mezonlarda atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasidagi natijalarga erishishga hissa qo'shadigan yaxlit va keng qamrovli standartlar belgilanib, doimiy takomillashtirish yo'llari fermer xo'jaliklari darajasida belgilanadi.

Tamoyil va mezonlar ta'siri qo'shimcha tadbirlar, jumladan, salohiyatni oshirish, sheriklik, fermer xo'jaliklarini teng huquqli foydalanish imkoniyatiga urg'u bergan holda tegishli vosita va xizmatlar bilan ta'minlash, faoliyatimizning samaradorligi va ta'siri to'g'risidagi ma'lumot va dalillarni to'plash hamda siyosat targ'iboti orqali kuchaytiriladi. Tamoyil va mezonlar talablariga javob beradigan Paxta yetishtiruvchilar tomonidan yetishtirilgan paxtani tarmoqning atrof-muhitga bezarar tarzda faoliyat yuritishiga ko'maklashayotgan qiymat zanjiri subyektlari bilan bog'lash maqsadida Better Cotton tashabbusi, shuningdek, tegishli darajadagi ishonchli kafolatlardan ham foydalanadi. Bu - Better Cotton tashabbusiga bo'lgan talabni kuchaytiradi va o'zgarishlar sikli doimiy harakatda bo'lishini ta'minlaydi. Better Cotton tashabbusining strategiyasi va O'zgarishlar nazariyasi to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun Better Cotton tashabbusining [www.bettercotton.org](http://www.bettercotton.org) veb-saytiga murojaat qilishingiz mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



## Tamoyil va mezonlarni tushunish

### Ko'lam va qo'llanishi

Tamoyil va mezonlar – paxtachilik tarmog'ida atrof-muhit barqarorligini fermer xo'jaligi darajasida ta'minlash standarti. Unda barcha Paxta yetishtiruvchilar o'z paxtasini Better Cotton yorlig'i ostida sota olishi uchun zarur bo'lgan litsenziyani olishga qo'yiladigan muayyan ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy talablar belgilangan. Tamoyil va mezonlar global darajada qo'llanishi mumkin bo'lsa-da, ularda dunyodagi Paxta yetishtiruvchilar o'rtasidagi sezilarli farqlarni bartaraf etishning bir qator usullari taklif etiladi. Birinchidan, hujjatda yetishtirish usullari va ko'lamidagi farqlar e'tirof etilib, talablar [fermer xo'jaliklari o'lchamining uchta toifasi](#) bo'yicha farqlanadi. Ikkinchidan, Better Cotton tashabbusining [doimiy takomillashtirish yondashuvi](#) doirasida Paxta yetishtiruvchilari o'z faoliyatini jiddiy tarzda farqlanuvchi boshlang'ich shartlar asosida boshlaydi deb hisoblanadi. Nihoyat, mahalliy darajada yo'l-yo'riq ko'rsatish va amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash (masalan, mahalliy darajada qo'llash mumkin bo'lgan ilg'or tajribalar bo'yicha) dehqonchilikning turli sharoitlarida dolzarb bo'lgan jihatlar e'tiborga olinishini ta'minlaydi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Tamoyil va mezonlarning qo'llanish ko'lamini fermer xo'jaligi yoki Ishlab chiqarish birligi doirasidagi paxta yetishtirish faoliyatiga qaratilgan. Biroq ko'pchilik talab va/yoki tegishli yo'riqnomalar kengroq ko'lamda qo'llanib, Paxta yetishtiruvchilar ularni, tegishliligiga qarab, boshqa ekinlarga nisbatan va fermer xo'jaligi hududidan tashqarida qo'llash masalasini ko'rib chiqish tavsiya etiladi.

### Muvofiqlik va kafolat

Tamoyil va mezonlarning avvalgi versiyalaridan farqli o'laroq va [doimiy takomillashtirish yondashuvimizga](#) muvofiq, Tamoyil va mezonlarning 3.0-tahriridagi barcha Ko'rsatkichlar litsenziyalash maqsadlari uchun majburiy hisoblanadi. Bu - Paxta yetishtiruvchilar o'z paxtasini Better Cotton yorlig'i ostida sotish uchun litsenziya olishdan avval o'z fermer xo'jaligi toifasiga taalluqli bo'lgan barcha ko'rsatkichlarga javob berishi kerakligini anglatadi. Baholash, litsenziyalash va har qanday nomuvofiqliklarni bartaraf etish usullari to'g'risidagi batafsil ma'lumot Better Cotton tashabbusining [Kafolat dasturida](#) keltirilgan.

### Litsenziya egalari: Tamoyil va mezonlarga javob beradigan Paxta yetishtiruvchilarni aniqlash

Better Cotton tashabbusining Tamoyil va mezonlari talablariga muvofiqlikni ta'minlash borasidagi umumiy mas'uliyat «[Paxta yetishtiruvchilar](#)» deb ataladigan litsenziya egasi bo'lgan yuridik shaxs(lar) zimmasida bo'ladi. [Fermer xo'jaligi toifasidan kelib chiqib](#), "Paxta yetishtiruvchilar" atamasi quyidagilarni anglatadi:

- Dehqon xo'jaligi yoki o'rta hajmdagi fermer xo'jaligi sharoitida: ko'p sonli dehqon yoki o'rta hajmdagi fermer xo'jaliklarini yagona litsenziyalash birligiga birlashtirgan Paxta yetishtiruvchilar birlashmasi (ICHB);
- Yirik fermer xo'jaligi sharoitida: yakka tartibdagi fermer xo'jaligi.

ICHB larning Ko'rsatkichlarni amalga oshirish borasidagi mas'uliyati Tamoyil va mezonlarga qarab farqlanadi: Ayrim holatlarda mas'uliyat Ishlab chiqarish birlashmasi rahbariyati zimmasiga tushsa, boshqa holatlarda muayyan Ko'rsatkich talablarini bajarish uchun fermerlar va ularning uy xo'jaliklari mas'ul bo'ladi. Tegishli holatlarda bu masalaga Ko'rsatkichlar bo'yicha yo'riqnomada aniqlik kiritiladi.

### Doimiy takomillashtirish

Doimiy takomillashtirish Better Cotton O'zgarishlar nazariyasining asosiy qismidir. O'z faoliyatini qaysi darajadan boshlaganidan qat'i nazar, Paxta yetishtiruvchilarga vaqt o'tishi bilan atrof-muhit barqarorligini saqlash ko'rsatkichlarini yaxshilab borishi tavsiya etiladi. Doimiy takomillashtirish Tamoyil va mezonlarda ikki asosiy usulda aks etadi:

- Boshqaruv to'g'risidagi tamoyilning 1.3-mezoniga muvofiq, barcha Paxta yetishtiruvchilar doimiy takomillashtirish uchun individual tarzda belgilangan ustuvor yo'nalishlardagi yutuqlarini namoyish etishi kutiladi. Mazkur yo'nalishlar atrof-muhit barqarorligini ta'minlash uchun mahalliy darajada dolzarb ahamiyat kasb etgan sohalarni qamrab olishi va fermer xo'jaliklari darajasidagi paxtakorlar bilan maslahatlashuvlarga asoslanishi kerak.
- Doimiy takomillashtirish, shuningdek, bir nechta Ko'rsatkichning doirasidagi asosiy element sifatida birlashtirilgan bo'lib, unda (faqatgina natijaga emas), balki muayyan vaqt oralig'ida takomillashtirish choralari amalga oshirib kelayotgan Paxta yetishtiruvchilarga urg'u beriladi. Ko'rsatkichlarga rioya etish majburiy bo'lsa-da, ularda turli Paxta yetishtiruvchilari o'z faoliyatini turli darajalardan boshlashi e'tirof etiladi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

### Ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashga sodiqlik

Better Cotton odamlarning hayoti ularning o'ziga xosligi, munosabatlari va turfa xil ijtimoiy omillar asosida shakllanishini va ular birlashib, shaxsning sharoitiga va mavjud hokimiyat tuzilmalaridan kelib chiqqan holda, turli xil imtiyoz va zulm shakllarini yaratishi mumkinligini e'tirof etadi (bu holat keng qamrovlilik deb ataladi).<sup>1</sup> Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha gender o'ziga xosligi, jinsi, jinsiy oriyentatsiyasi, yoshi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, irqi, sinfi, tabaqasi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, qobiliyatlari va nogironlik holati, sog'ligi, siyosiy mansubligi, siyosiy qarashlari, uyushmalar yoki tashkilotlarga a'zoligi, oilaviy yoki boshqa har qanday holatidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Better Cotton Paxta yetishtiruvchilaridan himoyaga muhtoj vaziyatga tushgan va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan barcha shaxslarning ishtiroki va qamrab olinishiga alohida e'tibor qaratish va faol ravishda rag'batlantirish kutiladi. Kamsitilishga toqat qilinmaydi.

### Inson huquqlarini ta'minlashga va salbiy ta'sirlar xatarlarini yumshatish

Tamoyil va mezonlar negizida Better Cotton yorlig'i ostida yetishtirilgan paxta odamlar yoki atrof-muhitga nisbatan salbiy ta'sirlarni kamaytiradi degan g'oya yotadi. Better Cotton yorlig'i ostida paxta yetishtirish jarayonida inson huquqlariga rioya qilinishi, targ'ib etilishi va mustahkamlanishi hamda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Biznes va inson huquqlari sohasidagi asosiy tamoyillariga muvofiq, kompleks tekshiruv va monitoring choralari hamda huquqiy himoya vositalaridan tegishli tarzda foydalanish orqali zarar kamaytirilishi lozim.

### Tamoyillar va keng qamrovli ustuvor yo'nalishlar

Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlarining 3.0-tahririda asosiy e'tibor quyidagi oltita tamoyilga qaratiladi: Boshqaruv, Tabiiy resurslar, Ekinlarni himoya qilish, Tola sifati, Munosib mehnat va Barqaror daromad manbalari. Bundan tashqari, Better Cotton tashabbusi gender tengligi va iqlim o'zgarishi masalalari barcha Tamoyillar kesimida dolzarb ekanini ta'kidlaydi va ularni barcha bosqichlarda rioya qilinishi kerak bo'lgan keng qamrovli ustuvor yo'nalishlar sifatida kiritadi. Paxta yetishtiruvchilar gender va/yoki iqlim bilan bog'liq bo'lgan masalalarga alohida e'tibor berishi kerak bo'lgan Ko'rsatkichlar aniq belgilangan va mazkur hujjat oxiridagi jadvallarda umumlashtirilgan ko'rinishda keltirilgan (1- va 2-ilovalarga qarang).

### Tamoyil va mezonlarning 3.0-tahririda Gender tengligi va ayollar masalalari

Better Cotton tashabbusi paxtani tabiat uchun bezarar tarzda yetishtirishda ko'zlangan ta'sirga erishishda ayollarning ahamiyatini e'tirof etadi. BCST asosidagi o'z faoliyati orqali Better Cotton tashabbusi tizimli gender tengsizliklarga qarshi kurashish hamda ayollar ishtiroki va qamrab olinishini qo'llab-quvvatlash orqali ayollar huquqlarini ilgari surish borasida katta imkoniyatlarga ega. Tamoyil va mezonlar ushbu sa'y-harakatlarni ikki yo'nalishda qo'llab-quvvatlaydi. Birinchidan,

---

<sup>1</sup> Hankivsky, Olena. 'Intersectionality 101.' Institute for Intersectionality Research & Policy, Simon Fraser University, (2014). Accessed February 7, 2023. [https://www.researchgate.net/publication/279293665\\_Intersectionality\\_101](https://www.researchgate.net/publication/279293665_Intersectionality_101).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Boshqaruv to'g'risidagi tamoyilda ayollarni qamrab olishdagi mahalliy to'siqlarni aniqlash va ularni samarali bartaraf etish uchun Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasini tashkil etish talabi kiritilgan. Ikkinchidan, Tamoyil va mezonlar keng qamrovli yondashuvni ta'minlab, bunda Paxta yetishtiruvchilarining muvofiqligi muayyan Ko'rsatkichlar vositasida ayollarning qamrab olinishini rag'batlantirish va gender tengsizliklarni bartaraf etishga qaratilgan sa'y-harakatlar asosida baholanadi (shuningdek, [1-ilovaga](#) qarang).

Hech qanday shaxs kamsitilmasligini ta'minlash maqsadida, Tamoyil va mezonlarda "fermer va ishchilar" ni ta'riflashda ongli ravishda ikkilik so'zlardan (ya'ni, "ayol va erkak fermer va ishchilar") foydalanishdan tiyinilgan. Shu ma'noda, ijtimoiy qamrov borasida olgan majburiyatlarimizga muvofiq, "fermer va ishchilar" deganda doim har qanday gender o'ziga xoslik va jins xususiyatlariga ega bo'lgan odamlar nazarda tutilib, bu tushuncha doimo ayollarni ham qamrab olinishi tushuniladi.

### Tamoyil va mezonlarning 3.0-tahririda iqlim o'zgarishi masalalari

Better Cotton tashabbusi iqlim o'zgarishiga qarshi kurash zaruratini e'tirof etadi. Iqlim o'zgarishi butun dunyo fermerlariga allaqachon o'z ta'sirini o'tkazmoqda, negaki havo haroratining ko'tarilishi natijasida yuzaga kelayotgan ekstremal ob-havo hodisalari ekin yetishtirish va daromad manbalarini xavf ostiga qo'yimoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligi tarmog'i IG tashlanmalari ortishiga va atrof-muhitning uglerodni saqlash qobiliyati pasayishiga olib keladigan tabiat uchun zararli qishloq xo'jaligi amaliyotlari orqali iqlim o'zgarishiga hissa qo'shadi. Paxta yetishtiruvchilarining iqlim o'zgarishi oldidagi chidamliligini oshirish va ular tomonidan joriy etilgan amaliyotlar iqlimga ko'rsatayotgan ta'sir darajasini kamaytirishga yordam berish Better Cotton Paxta yetishtiruvchilari tomonidan qaror qabul qilishda asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Shu bois Tamoyil va mezonlarning 3.0-tahriri Boshqaruv to'g'risidagi tamoyiliga iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar mezonni kiritilgan. Bundan tashqari, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tegishli talablar barcha tamoyillarga kiritilgan bo'lib, 2-ilovada ajratib ko'rsatilgan va umumlashtirilgan holda keltirilgan.

### Hujjatning tuzilishi

#### Tamoyillar, mezon va ko'rsatkichlar

Tamoyil va mezonlar tamoyillar, mezonlar va ko'rsatkichlar bilan ishlaydi. Tamoyillar atrof-muhit barqarorligini ta'minlashning umumiy sohalari bo'lsa, Mezonlar - muayyan Tamoyil doirasida erishilishi lozim bo'lgan natijalar, Ko'rsatkichlar esa - har bir mezon doirasida qo'yiladigan aniq talablar bo'lib, Paxta yetishtiruvchilarning muvofiqlik darajasi ular o'z mahsulotini Better Cotton yorlig'i ostida sotish uchun litsenziya olishidan avval Ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

#### Ko'rsatkichlar bo'yicha yo'riqnom

Ko'rsatkich yonidagi ustunda uning maqsadi va dolzarbligi aniqlashtirilib, talabni bajarishning eng yaxshi usullari to'g'risida batafsil ma'lumot taqdim etiladi.

#### Fermer xo'jaliklari toifalari

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

- **Dehqon xo'jaliklari:** Odatda, 20 gektardan oshmaydigan paxta maydoniga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari bo'lib, tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma mehnatga bog'liq emas. Litsenziyalash maqsadlarida dehqon xo'jaliklari Paxta yetishtiruvchilar birlashmalariga guruhlanadi.
- **O'rta hajmdagi fermer xo'jaliklari:** Odatda, 20 dan 200 gektargacha bo'lgan paxta maydoniga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari bo'lib, tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma ishchi kuchiga bog'liq. Litsenziyalash maqsadlarida o'rta fermer xo'jaliklari Paxta yetishtiruvchilar birlashmalariga guruhlanadi.
- **Yirik fermer xo'jaliklari:** Odatda, 200 gektardan ortiq paxta maydoniga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari bo'lib, ularda ishlab chiqarish mexanizatsiyalashgan yoki tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma ishchi kuchiga bog'liq bo'ladi. Yirik fermer xo'jaliklari Better Cotton tashabbusi doirasida individual asosda yoki (ayrim sharoitlarda) Yirik fermiyer xo'jaliklar guruhi kafolat modeli orqali ishtirok etadi.

### Keng qamrovli ustuvor yo'nalishlar

Gender tengligi va iqlim o'zgarishi masalalari Tamoyil va mezonlardagi ko'plab Ko'rsatkichlar uchun dolzarb hisoblanadi. Iqlim o'zgarishi yoki gender tengligi masalalariga alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan Ko'rsatkichlar yuqorida tegishli keng qamrovli ustuvor yo'nalishlar bilan belgilanadi.

### Asosiy atamalar

#### Fermer:

Better Cotton tashabbusining Tamoyil va mezonlarida qo'llangan "fermerlar" tushunchasi jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar barcha shaxslarni («Ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashga sodiqlik» bandiga qarang) hamda ularning fermerlik vazifalarini bajarish va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etadigan oila a'zolari – turmush o'rtoqlari va farzandlarini qamrab oladi. Agar ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashda ishtirok etsa va ishlab chiqarish amaliyoti uchun birlamchi mas'uliyatga ega bo'lsa, ijarachi va chorakorlar ham fermerlar hisoblanadi.

#### Paxta yetishtirishda fermer xo'jaligi darajasida shug'ullanuvchi shaxslar qatoriga:

Fermer xo'jaliklarining barcha a'zolari, ishchilar, ijarachilar, chorakor va ishlab chiqarishdagi roli, jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, Better Cotton paxtasini fermer xo'jaliklari darajasida yetishtirish bilan shug'ullanadigan boshqa shaxslar kiradi («Ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashga sodiqlik» bandiga qarang).

**Paxta yetishtiruvchilar:** Better Cotton litsenziyasi egalari. Qarang: [Litsenziya egalari: Paxta yetishtiruvchilarni Tamoyil va mezonlar talablari asosida aniqlash](#)

#### Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati :

- Yirik fermer xo'jaligi sharoitida - fermer xo'jaligining rahbariyati, odatda, fermerlarning o'zi tushuniladi.
- Paxta yetishtiruvchilar birlashmasi sharoitida – ICHB darajasida standartni joriy etishda ishtirok etadigan har qanday shaxs, jumladan, ICHB rahbari, joylardagi muvofiqlashtiruvchilar, Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi, yetakchi fermerlar (ayrim sharoitlarda) va ICHBning boshqa xodimlari tushuniladi. U ICHB rahbariyati atamasi bilan teng ravishda qo'llanadi.

#### Ishchilar:

Better Cotton tashabbusi ishchilarni jinsi, kelib chiqishi yoki o'ziga xosligidan qat'i nazar, Paxta yetishtiruvchilar fermer xo'jaliklarida ishlaydigan barcha shaxslar sifatida ta'riflaydi («Ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlashga sodiqlik» bandiga qarang). Ishchilar vaqtinchalik, mavsumiy yoki doimiy asosda bevosita fermerlar yoki

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

subpudratchilar, masalan, bandlik agenti orqali yollanishi mumkin. Ishchilarga, odatda, mehnati uchun haq to'lanadi, ammo ishchi - oila a'zosi yoki hamjamiyat doirasida almashilgan ishchi bo'lsa – uning mehnati uchun haq to'lanmasligi ham mumkin. Ayrim holatlarda fermer xo'jaliklari darajasidagi ishlab chiqarish amaliyotlari va ishlab chiqarish xarajatlari yuzasidan qaror qabul qilish vakolatlari cheklangan yoki umuman bo'lmagan chorakorlar ham ishchilar sifatida tasniflanishi mumkin. Chorakorning batafsil ta'rifi uchun, iltimos, "Better Cotton tashabbusining mehnat profili" bo'limiga murojaat qiling.

Atamalarning qo'shimcha ta'riflari 3-ilovadagi Lug'atda keltirilgan.

### Hujjatni ishlab chiqish qoidalari

Tamoyil va mezonlarning 3.0-tahriri Jahon savdo tashkilotining Savdodagi tyexnik to'siqlar to'g'risidagi bitimi 3-ilovasida keltirilgan "Standartlarni tayyorlash, qabul qilish va qo'llash bo'yicha maqbul amaliyot kodeksi" hamda Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (XST) va Xalqaro elektrotexnika komissiyasining (XETK) milliy organlar tomonidan tavsiya etilgan standartlashtirish amaliyotlari bo'yicha ko'rsatmalariga muvofiq ishlab chiqilgan.<sup>2</sup>

### Tegishli tashqi hujjatlar

- Amalga oshirish bo'yicha global tavsiyalar va/yoki tartib-taomillar keltirilgan xalqaro miqyosdagi hujjatlarni Better Cotton tashabbusining [www.bettercotton.org](http://www.bettercotton.org) veb-saytidan topish mumkin
- Better Cotton tashabbusining kafolat bo'yicha qo'llanmasi
- Better Cotton tashabbusining Standartlarni belgilash va qayta ko'rib chiqish tartib-taomillarining 2.0-tahriri, 2021-yil, sentyabr
- Ijtimoiy-ekologik akkreditatsiya va yorliqlash (ISEAL) xalqaro alyansining Ijtimoiy-ekologik standartlarni belgilashning maqbul amaliyot kodeksi, barcha foydalanishi uchun ochiq bo'lgan 6.0-tahriri, 2014-yil, dekabr

### Qayta ko'rib chiqish va tahrirlar tarixi

Tamoyil va mezonlarning 3.0-tahriri turfa xil manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashgan holda ISEALning Ijtimoiy-ekologik standartlarni<sup>3</sup> belgilash bo'yicha maqbul amaliyot kodeksiga muvofiq hamda XST va XETKning milliy organlar tomonidan tavsiya etilgan standartlashtirish amaliyotlari ko'rsatmalari asosida, avvalgi standartni chuqur qayta ko'rib chiqishga asoslangan.<sup>4</sup>

<sup>2</sup> ISO/IEC. 'ISO/IEC Guide 59, ISO and IEC Recommended Practices for Standardization by National Bodies.' (2019). 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.iso.org/standard/71917.html>.

<sup>3</sup>ISEAL Alliance. 'ISEAL Standard-Setting Code of Good Practice Version 6.0.' (2014). 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.isealalliance.org/get-involved/resources/iseal-standard-setting-code-good-practice-version-60>.

<sup>4</sup> ISO/IEC. 'ISO/IEC Guide 59, ISO and IEC Recommended Practices for Standardization by National Bodies.' (2019). 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.iso.org/standard/71917.html>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

TAMOYIL VA MEZONLAR TAHRIRI	SANASI	Izoh
<b>Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlari 1.0-tahriri</b>	2010	Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlarining birinchi tahriri joriy etila boshlandi.
<b>Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlari 2.0-tahriri</b>	2015-yil, sentyabr - 2017-yil, noyabr	Qayta ko'rib chiqish jarayoni, shu jumladan, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarning ikki raundi
	2017-yil, noyabr	Better Cotton tashabbusi kengashi tomonidan Tamoyil va mezonlar 2.0-tahriri tasdiqlanishi
	2018 yil, mart - 2019 yil, fevral	Tamoyil va mezonlar 2.0-tahririning rasmiy joriy etila boshlanishi (2018 yil, mart) o'tish davri
	2019 yil 1 mart	Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlarining 2.0-tahriri kuchga kirishi
<b>Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlarining 2.1-tahriri</b>	2019-yil, 17-aprel	Jiddiy bo'lmagan o'zgarishlar bilan yangilangan; Tamoyil va mezonlarning 2.1-tahriri kuchga kirishi
<b>Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlarining 3.0-tahriri</b>	2021-yil, oktyabr	Qayta ko'rib chiqish jarayoni boshlandi
	2021 yil, oktyabr - 2023 yil fevral	Qayta ko'rib chiqish jarayoni, shu jumladan, manfaatdor tomonlar bilan 60 kunlik maslahatlashuvlar (2022 yil, avgust-sentyabr)
	2023-yil, fevral	Better Cotton tashabbusi Kengashi tomonidan tasdiqlanishi
	2023-yil, iyun	Tamoyil va mezonlar 3.0-tahririning rasmiy joriy etila boshlanishi
	2023 yil, aprel - 2024 yil mart	O'tish davri
2024-yil mart	Better Cotton tashabbusi Tamoyil va mezonlarining 3.0-tahriri kuchga kirishi (2024-2025 yilgi paxta mavsumi) <sup>5</sup>	

<sup>5</sup> Better Cotton mavsumlari Paxta yetishtirish masalalari bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasi (ICAC) mavsumlariga mos keladi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## Qisqartmalar

BSST: Better Cotton standartlar tizimi  
KMR: kanserogen, mutagen yoki reprotoksik (moddalar)  
MM: Munosib mehnat  
FAO: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti  
IG: Issiqxona gazlari  
KMTYOGUT: Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi  
YUAAQ: Yuqori asrash qiymati  
O'XP: O'ta xavfli pestitsidlar  
XMT: Xalqaro mehnat tashkiloti  
ZQKK: Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish  
YFX: Yirik fermer xo'jaliklari  
O'FX: O'rta hajmdagi fermer xo'jaliklari  
MGDX: Mehnat gigiyenasi va texnik xavfsizlik  
PQKXT: Pestitsidlarga qarshi kurashish xalqaro tarmog'i  
P&M: Tamoyil va mezonlar  
SHHV: Shaxsiy himoya vositalari  
ICHB: Paxta yetishtiruvchilar birlashmasi  
DX: Dehqon xo'jaliklari  
JSST: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# 1-tamoyil: Boshqaruv

Ma'lumotlarga asoslangan, samarali va inklyuziv boshqaruv tizimi nafaqat P&M dagi barcha mezonlarni muvaffaqiyatli bajarishning asosiy sharti, balki shaffoflik va mahsulotning ta'minot zanjirini bo'ylab xarakatlanishini kuzatish imkoniyatlarini takomillashtirish, iste'molchilar ishonchini mustahkamlash va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi natijalarga erishish maqsadida doimiy takomillashtirishga turtki beruvchi asosiy komponentdir. Boshqaruv tamoyili rejalashtirish va monitoring faoliyati hamda ma'lumotlarni boshqarish va shu maqsadda doimiy takomillashtirish borasidagi talablarni qamrab oladi. Shuningdek, unda atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasidagi uzoq muddatli maqsadlarga erishish uchun fermerlar markaziy o'ringa olib chiqilgan hamkorlik va inklyuziv yondashuvni qo'llash muhimligi e'tirof etiladi. Shu ma'noda u qo'shma harakatlar, fermerlar bilan inklyuziv maslahatlashuvlar hamda salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan samarali va inklyuziv tadbirlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tamoyilga, shuningdek, ikki keng qamrovli ustuvor yo'nalish – gender va iqlim o'zgarishi masalalari ham kiritilgan. Bundan ko'zlangan maqsad – Better Cotton yorlig'i ostida paxta yetishtirish bo'yicha amalga oshiriladigan har qanday faoliyatda ushbu ikki yo'nalish mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda hisobga olinishi kerakligiga urg'u berish.

## 1.1-MEZON – Paxta yetishtiruvchilar darajasidagi tadbirlar yaxshi xabardorlik asosida, samarali va inklyuziv tarzda boshqarilishi

### 1.1.1

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish.

Paxta yetishtiruvchilar birlashmasi (ICHB) uchun aniq va mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, amalga oshiriladi. Mazkur reja:

- (i) yangilab turiladi hamda barcha tadbirlar, muddatlar va vazifalarni o'z ichiga oladi;
- (ii) monitoring natijalarini hisobga olgan holda kamida bir yilda bir marta qayta ko'rib chiqiladi.

DX  
O'FX

Maqsad - ICHB rahbariyati ICHB doirasidagi barcha tadbirlarni aniq tashkillashtirilgan tarzda rejalashtirish va amalga oshirishini ta'minlash. Bu - ICHB rahbari, joylardagi muvofiqlashtiruvchilar hamda ICHBning boshqa xodimlari o'z vazifalari va tadbirni amalga oshirish muddatlarini yaxshi tushunishiga yordam berib, kuch va resurslarni muvofiqlashtirishga ko'maklashadi.

Kompleks yondashuvni ta'minlash maqsadida, tadbirlar rejasi Better Cotton dasturini amalga oshirish bilan bog'liq barcha tadbirlarni, jumladan, o'qitish, maslahatlashuvlar, fermerlar uy xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash hamda P&M ning barcha Tamoyillari va keng qamrovli yo'nalishlar bilan bog'liq bo'lgan boshqa tegishli tadbirlarni o'z ichiga olishi kerak. 1.3-mezonga muvofiq, Doimiy takomillashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari va ular bilan bog'liq tadbirlar ham kiritilishi kerak. ICHB rahbariyati rejani bir yilda kamida bir marta ko'rib chiqishi va monitoring (1.1.2-ko'rsatkich) natijasida olingan ma'lumotlar, dala darajasidagi maslahatlashuvlar (1.1.3-ko'rsatkich), iqlim o'zgarishi bilan bog'liq ustuvor vazifalar (1.7-mezon) hamda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi tavsiyalariga (1.5-mezon) asoslangan holda, rejaga zarur tuzatishlar kiritishi talab etiladi. Tadbirlar rejasi

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

fermer xo'jaligining kundalik faoliyatida qo'llanma sifatida foydalaniladigan ishchi hujjat bo'lishi kerak. ICHB rahbariyati reja va uni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish usullari bilan tanish bo'lishi kerak.

### 1.1.2

Gender tengligi

Nomuvofiqliklar xavfini aniqlash, erishilayotgan yutuqlarni o'lchash va ICHB faoliyati samaradorligini tushinishda foydalaniladigan ma'lumotlar va usullarni belgilab beradigan monitoring rejasini ishlab chiqilgan va joriy etilgan.

Axborot va ma'lumotlar qayd etiladi va olingan saboqlar 1.1.1-ko'rsatkichdagi tadbirlar rejasini tuzishda foydalaniladi.

DX  
O'FX

Maqsad - ICHB rahbariyati o'z faoliyati samaradorligini va dala darajasidagi yutuqlarni muntazam ravishda kuzatib borish uchun kuchli qayta aloqa tuzilmalariga ega bo'lish.

Faoliyat va erishilayotgan yutuqlarning doimiy monitoringi (ma'lumotlar, maslahatlashuvlar va boshqa usullar asosida) samarali ishlaydigan boshqaruv tizimining muhim qismidir. Bu - ICHB rahbariyatiga qaysi tadbir va yondashuvlar daladagi vaziyatni yaxshi tomonga o'zgartirayotgan, qay biri esa samara bermayotganini tushinishga yordam beradi. Ushbu ma'lumot ICHBga o'z tadbirlari samaradorligini oshirish uchun uni qayta ko'rib chiqish va tegishli tuzatishlar kiritishga yordam berishi kerak.

Monitoring rejasida qaysi ma'lumot qanday usullar bilan to'plangani aniq ko'rsatilishi lozim. Monitoring usullari ma'lumotlarning keng qamrovli va inklyuziv bo'lishini ta'minlashi lozim (ayniqsa, himoyaga muhtoj vaziyatga tushgan va /yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayol va shaxslar) bo'lib, so'rovlar, fokus-guruhlar tarkibidagi uchrashuvlar, fermerlar uchun mo'ljallangan dala kitoblari, (faqat ayollar uchun) mo'ljallangan maslahatlashuv tadbirlari, mahalliy aholidan olingan mahalliy xatarlar to'g'risidagi ma'lumotlar, loyihalarni baholash ma'lumotlari va boshqa manbalarni o'z ichiga olishi mumkin. Monitoring davomida ham miqdoriy, ham sifat bilan bog'liq ma'lumotlar to'planishi kerak. Kamida, avvalgi ikki mavsum bo'yicha monitoring ma'lumotlari saqlanishi kerak.

Ushbu Ko'rsatkichning bajarilishida nafaqat reja sifati va aniqligi, balki monitoring rejaga muvofiq amalga oshirilayotgani yoki yo'qligi ham hisobga olinadi. ICHB rahbari, joylardagi muvofiqlashtiruvchilar hamda ICHBning boshqa xodimlari reja bilan tanish bo'lishi va monitoringdan olingan asosiy natijalardan, 1.1.1-ko'rsatkichda ko'rsatilganidek, ICHB darajasidagi tadbirlarni tashkillashtirishda qanday foydalanilganini tushuntira olishi lozim.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 1.1.3

Fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirish jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning keng qamrovli va inklyuziv tanlanmasi bilan ularning ustuvor maqsadlari va ehtiyojlari to'g'risida yiliga kamida bir marta maslahatlashuvlar o'tkaziladi. Ushbu maslahatlashuvlardan olingan asosiy xulosalar hujjatlashtirilib, barcha Tamoyillar doirasidagi tadbirlarni rejalashtirish va doimiy takomillashtirish uchun ustuvor vazifalarni belgilashda foydalaniladi.

DX  
O'FX

Maqsad - ICHB darajasidagi boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonida paxta yetishtirishda dala darajasida ishtirok etadigan barchaning manfaatlarini hisobga olinishini ta'minlash. Fermerlik faoliyatida ishtirok etadigan odamlar paxta yetishtirish tabiat uchun bezarar bo'lishini ta'minlaydigan asosiy subyektlardir. Shunday ekan, ularning tajribasi, ehtiyojlari va manfaatlarini inobatga olish – atrof-muhit barqarorligiga nisbatan uzoq muddatli ijobiy ta'sir o'tkazilishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Fermer va ishchi ayollar, yoshlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatda bo'lgan va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Maslahatlashuv usullari, vaqti va joylari mahalliy sharoitlar hamda ishtirokchilar guruhlariga moslashtirilishi lozim.

Maslahatlashuvlarni tashkil etayotganlar til va savodxonlik, gender, shuningdek, ishtirokchilar orasidagi hamda muvofiqlashtiruvchilar bilan ishtirokchilar o'rtasidagi potensial munosabatlar tuzilmasini hisobga olishi kerak (masalan, boshqa ayollar bilan suhbat olib boradigan ayollar hamda ayollar bilan suhbat olib boradigan erkaklar). Maslahatlashuv tadbirlari bilan bog'liq bo'lgan har qanday salbiy oqibatlar (masalan, ishga bormagani tufayli daromadni yo'qotish yoki safar davomidagi xavfsizlik bilan bog'liq muammolar) imkon qadar oldi olinishi lozim.

Maslahatlashuvlar davomida dasturni amalga oshirish bilan bog'liq muammo va imkoniyatlar, afzal ko'riladigan o'qitish va boshqa turlari, ehtiyojlar yoki ustuvor maqsadlar bo'yicha muhokamalar o'tkazilishi mumkin. Ishtirokchilarga muhokamalardan ko'zlangan maqsad va ularning fikr-mulohazalaridan qay tarzda foydalanilishi to'g'risida ma'lumot berilishi lozim.

Maslahatlashuvlarda fermerlarning kamida 10 foizi (bundan ham ko'proq bo'lishi tavsiya etiladi) qamrab olinishi va uy xo'jaliklarining qaror qabul qilishda o'z ovozigacha ega bo'lgan barcha tegishli a'zolari, ayniqsa ayollar ham ishtirok etishi lozim. Bundan tashqari, Paxta yetishtiruvchilar ishchilar, uy xo'jaliklarining jalb qilingan boshqa a'zolari hamda mahalliy aholi orasidagi boshqa manfaatdor tomonlar, ayniqsa ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatda bo'lgan va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslar bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganini namoyish eta olishi darkor.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Paxta yetishtiruvchilar maslahatlashuvlardan olingan xulosalarni tadbirlarni rejalashtirish va doimiy takomillashtirish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilash jarayoniga kiritish usullarini tushuntirib bera olishi kerak. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha maslahatlashuvlar gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki gender qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar bilan o'xshash bo'lishi mumkin (1.5 mezonga qarang) va shuningdek, daromad topish vositalarini ta'minlash bo'yicha faoliyatda asos sifatida foydalanilishi mumkin (6-tamoyilga qarang).

#### 1.1.4

Fermer xo'jaligi faoliyatini rejalashtirish va amalga oshirish uchun samarali boshqaruv tizimi yaratilgan. Tizim Better Cotton Ko'rsatkichlari va doimiy takomillashtirish maqsadlariga erishish bilan bog'liq natijalarni kuzatib borish imkonini beradi.

YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar faoliyatni rejalashtirish va boshqarish, natijalarni kuzatish va P&M doirasida qamrab olingan barcha yo'nalishlar bo'yicha nomuvofiqliklar xavfini aniqlashning tashkiliy usuliga ega bo'lishini ta'minlash. Tizim fermer xo'jaligi faoliyatini rejalashtirish va boshqarishni, shuningdek, 1.3-mezonda keltirilgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlashdagi ijobiy o'zgarishlarni qamrab olishi lozim. Agar Paxta yetishtiruvchilar ushbu talablarga javob beradigan samarali boshqaruv tizimiga ega bo'lsa, Better Cotton uchun mo'ljallangan tizimlarni yaratishga hojat yo'q.

#### 1.1.5

Paxta yetishtiruvchilar amaldagi barcha qonun va qoidalarga amal qiladi.

DX  
O'FX  
YFX

Qonunlarga rioya qilish - barcha Better Cotton Paxta yetishtiruvchilariga taalluqli bo'lgan birinchi navbatdagi talab hisoblanadi.

Amaldagi qonunlar qatoriga mahalliy, tuman, viloyat yoki mamlakat darajasidagi qonun va me'yoriy hujjatlar, shu jumladan davlat tomonidan xalqaro shartnoma imzolanishi natijasida milliy qonunchilikka kiritilgan yoki yuridik jihatdan ustun deb e'tirof etilgan qonun va me'yoriy hujjatlar kiradi. Ko'rsatkich, shuningdek, har qanday amaldagi jamoaviy bitimlarni ham o'z ichiga oladi.

Agar amaldagi qonun va me'yoriy hujjatlar yoki jamoaviy bitimlar P&M talablariga mos kelmagan taqdirda, Ko'rsatkichda boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, qat'iyroq talablar to'plami qo'llanadi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

### 1.1.6

Paxta yetishtiruvchilar fermer xo'jaligi faoliyati natijasida mahalliy aholi va yerlarga yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday ijtimoiy va/yoki ekologik xatarlarni aniqlash va minimallashtirish choralarini ko'radi.

O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilarning rahbariyati fermer xo'jaligi o'z hududidan tashqaridagi odamlar yoki ekotizimga o'tkazishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy ta'sirdan xabardor bo'lishi va uni minimallashtirishini ta'minlash.

Fermer xo'jaligida bajariladigan tadbirlar undan tashqaridagi hududlarga ham ta'sir qilishi mumkin. Paxta yetishtiruvchilar salbiy ta'sirlarni (masalan, mahalliy aholi yoki yovvoyi tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatadigan pestitsidlar oqimi yoki sepish chegarasidan chiqish) aniqlash va minimallashtirish choralarini ko'rishda yordam berishi talab etiladi. Ta'sirlarni baholash uchun Paxta yetishtiruvchilar ijtimoiy va ekologik ta'sir tahlili, aholi shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmlari yoki zarar ko'rgan aholi vakillari bilan maslahatlashuvlar o'tkazish kabi vositalardan foydalanishi mumkin. Atrofdagi mahalliy aholining huquqlari, yerlari, resurslari, hududlari, daromad manbalari yoki oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan ularga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday tadbirni o'tkazishdan avval, Paxta yetishtiruvchilar manfaatdor va zarar ko'rgan manfaatdor tomonlarning ixtiyoriy, oldindan va ongli ravishda berilgan roziligini olish uchun ularga ma'lumot berishi va ular bilan maslahatlashishi lozim.

Paxta yetishtiruvchilar mahalliy aholi vakillari tomonidan bildirilgan xavotirlar qay tarzda ko'rib chiqilgani va hal qilinganini namoyish eta olishi darkor.

## 1.2-MEZON – Ma'lumotlarni samarali boshqarish qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishi

### 1.2.1

Gender tengligi

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Better Cotton tashabbusining “Fermer xo‘jaliklarida ma‘lumotlarni boshqarishga qo‘yiladigan talablar” hujjatiga muvofiq, aniq va to‘liq ma‘lumotlar Paxta yetishtiruvchilar darajasida to‘planadi, tekshiriladi va hisobotlarga kiritiladi.

DX  
O‘FX  
YFX

Maqsad - ICHB yoki “Fermer xo‘jaliklarida ma‘lumotlarni boshqarishga qo‘yiladigan talablar” hujjatida ko‘rsatilganidek, sifatli ma‘lumotlarni to‘plash, tekshirish va hisobotlarga kiritishning samarali tizimi mavjud bo‘lishidir. DX va O‘FX sharoitida ushbu Ko‘rsatkich ICHB darajasida to‘planadigan va hisobotga kiritiladigan barcha tegishli ma‘lumotlarni qamrab oladi. YFXda ushbu Ko‘rsatkich ma‘lumotlarni boshqarishga qo‘yiladigan barcha talablarni qamrab oladi.

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar o‘z darajasida dolzarb, aniq va sifatli ma‘lumotlarni to‘plashini ta‘minlash. To‘liq va dolzarb ma‘lumotlar Paxta yetishtiruvchilarga atrof-muhit barqarorligini ta‘minlash sohasida erishilayotgan natijalarni kuzatib borish va qaysi sohalar samarali ishlayotgani, qaysilari uchun esa yangi yoki tuzatish kiritilgan yondashuvlar zarurligini aniqlashda yordam beradi. Sifatli va aniq ma‘lumotlar boshqa manfaatdor tomonlarni xabardor qilish va natijalarni namoyish etishda ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Paxta yetishtiruvchilar darajasida talab qilinadigan aniq ma‘lumotlar Better Cotton tashabbusining “Fermer xo‘jaliklarida ma‘lumotlarni boshqarishga qo‘yiladigan talablar” hujjatida belgilangan. Ma‘lumotlarni to‘plash, tekshirish va hisobotga kiritish jarayonlari keng qamrovli bo‘lishi va fermer xo‘jaliklarida paxta yetishtirishga jalb qilingan barchani, xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatda bo‘lgan va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslarni qamrab olishi kerak. Tizimlar to‘plangan ma‘lumotlar o‘rganish maqsadida tegishli manfaatdor tomonlar (masalan, ICHB doirasida - joylardagi muvofiqlashtiruvchilar, Gender masalalari bo‘yicha yetakchi yoki Gender qo‘mitasi va/yoki fermerlar va ishchilar) bilan ulashilishi ta‘minlanadigan tarzda ishlab chiqilishi kerak. Jins kesimida ajratilgan ma‘lumotlar ayollarni barcha tadbirlarga jalb qilishni ta‘minlashdagi muhim birinchi qadam hisoblanadi.

Agar Paxta yetishtiruvchilarda ma‘lumotlarni boshqarishning samarali tizimi mavjud bo‘lsa, Better Cotton uchun maxsus tizimlarni yaratishga hojat yo‘q.

Qo‘shimcha ma‘lumot uchun:

“Fermer xo‘jaliklarida ma‘lumotlarni boshqarishga qo‘yiladigan talablar” hujjati

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o‘ziga xosligidan qat’i nazar, barcha shaxslarni o‘z ichiga oladi. Qo‘shimcha ma‘lumot uchun bizning [“Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik”](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda “fermerlar” va “ishchilar” tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 1.2.2

Gender tengligi

Better Cotton tashabbusining “Fermer xo’jaliklarida ma’lumotlarni boshqarishga qo’yiladigan talablar” hujjatiga muvofiq, fermer xo’jaligi darajasidagi aniq va to’liq ma’lumotlar qayd etib boriladi.

DX  
O’FX

Maqsad - ICHBdagi fermerlar tomonidan fermer xo’jaligi darajasida dolzarb, aniq va sifatli ma’lumotlar to’planishini ta’minlash. Ushbu Ko’rsatkich YFXga nisbatan qo’llanmaydi, negaki barcha tegishli ma’lumotlar 1.2.1-ko’rsatkichda qamrab olinadi.

Fermer xo’jaligi darajasidagi to’liq va dolzarb ma’lumotlar ICHB rahbariyatiga atrof-muhit barqarorligini ta’minlash bilan bog’liq maqsadlarga erishish borasidagi natijalarni kuzatish imkonini beradi. Ma’lumotlar, shuningdek, fermer uy xo’jaliklari nuqtai nazaridan - joriy etilgan amaliyotlarni o’rganish va kuzatib borish, ICHB nuqtayi nazaridan esa - o’qitish va boshqa tegishli tadbirlarni baholash va tuzatishlar kiritish uchun foydali bo’lishi mumkin.

ICHBda fermerlar tomonidan to’planishi kerak bo’lgan ma’lumotlar Better Cotton tashabbusining “Fermer xo’jaliklarida ma’lumotlarni boshqarishga qo’yiladigan talablar” hujjatida keltirilgan. To’plangan ma’lumotlar keng qamrovli bo’lishi va fermer xo’jaliklarida paxta yetishtirishga jalb qilingan barchani, xususan, ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatda bo’lgan va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslarni qamrab olishi lozim. ICHB rahbariyati to’plangan ma’lumotlar o’rganish maqsadlarida fermer xo’jaliklari bilan ulashilishini ta’minlashi darkor.

Qo’shimcha ma’lumot uchun:

Better Cotton tashabbusining “Fermer xo’jaliklarida ma’lumotlarni boshqarishga qo’yiladigan talablar” hujjati.

## 1.3-MEZON – Mahalliy nuqtai-nazardan dolzarb bo’lgan atrof-muhit barqarorligini ta’minlash sohasida doimiy takomillashtirish namoyish etilishi

### 1.3.1

Gender tengligi. Iqlim o’zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Doimiy takomillashtirish talab qilinadigan muayyan ustuvor yo’nalishlar va tegishli uch yillik maqsadli ko’rsatkichlar aniqlangan va 1.1.1- hamda 1.1.2-ko’rsatkichlardagi umumiy faoliyat va monitoringni rejalashtirish hamda amalga oshirish jarayoniga ularga erishishga qaratilgan yillik tadbirlar to’liq kiritilgan va amalga oshiriladi. Ustuvor yo’nalishlarda quyidagilar

DX  
O’FX  
\*

Maqsad - vaqt o’tishi bilan ICHB mahalliy sharoit va aholi uchun dolzarb bo’lgan sohalarda atrof-muhit barqarorligini yaxshilash majburiyatini o’z zimmasiga olinishini ta’minlash.

Doimiy takomillashtirish talab qilinadigan muayyan ustuvor yo’nalishlar ICHB darajasida belgilanib, bu orqali mahalliy sharoit nuqtai nazaridan eng dolzarb va ahamiyatli masalalarni tanlashdagi bir qadar moslashuvchanlik ta’minlanadi. Ustuvor yo’nalishlarni tanlashda atrof-muhit barqarorligini ta’minlash sohasidagi mahalliy nuqtai-nazardan

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o’ziga xosligidan qat’i nazar, barcha shaxslarni o’z ichiga oladi. Qo’shimcha ma’lumot uchun bizning [“Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik”](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda “fermerlar” va “ishchilar” tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

inobatga olinadi:

- (i) Atrof-muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha mahalliy nuqtai-nazardan dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlar;
- (ii) Monitoring natijasida aniqlangan ustuvor yo'nalishlar (1.1.2-ko'rsatkich);
- (iii) 1.1.3-ko'rsatkichga muvofiq, dala darajasida o'tkaziladigan inklyuziv maslahatlashuvlar hamda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan ish natijasida aniqlangan ustuvor vazifalar (1.5-mezon).

dolzarb bo'lgan masalalar yoki ustuvor yo'nalishlar, shuningdek, gender tengligi va iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha dala darajasida o'tkazilgan maslahatlashuvlar (1.1.3-ko'rsatkichga qarang) jarayonida olingan ma'lumotlar hisobga olinishi kerak. Doimiy takomillashtirish talab qilinadigan yo'nalishlar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayonida Gender masalalari bo'yicha yetakchi va Gender qo'mitasi, shuningdek, Munosib mehnat (MM) monitoringi uchun mas'ul shaxs(lar) ishtirok etishi darkor. Garchi doimiy takomillashtirish talab qilinadigan yo'nalishlar hamda P&M talablari o'rtasida o'xshashlik bo'lishi mumkin esa-da (bu, ayniqsa, yangi ICHBlarga taalluqli bo'lishi mumkin), ICHBlar atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasida P&M doirasidan tashqariga chiqadigan yo'nalishlarni ko'rib chiqishga rag'batlantiriladi. Ular, shuningdek, doimiy takomillashtirish talab qilinadigan yo'nalishlar sonini uchtadan beshtagacha cheklashga harakat qilishi lozim bo'lib, bu orqali e'tiborni kerakli sohaga yo'naltirish, resurslarni samarali tarzda safarbar etish va rivojlanishga erishish ta'minlanadi.

Doimiy takomillashtirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar, tadbirlar va monitoring 1.1.1 va 1.1.2-ko'rsatkichlardagi ICHBning umumiy rejalashtirish va monitoring tizimlariga integratsiya qilinishi lozim.

Yangi ICHBlarda bu ko'rsatkich ICHB ikkinchi litsenziyalash sikliga kirgandan so'ng baholanadi (odatda, ishtirokning uchinchi yoki to'rtinchi yilida). Birinchi litsenziyalash muddati davomida ICHB ushbu Ko'rsatkich bo'yicha baholanmaydi. Biroq ular maslahatlashuvlar o'tkazib, ikkinchi marta litsenziyalash uchun baholanadigan muddatga qadar ustuvor yo'nalishlar, maqsadli ko'rsatkichlar va tadbirlarni aniqlab olishi kerak bo'ladi.

\*ICHBlar uchun ikkinchi litsenziyalash siklidan boshlab amal qiladi

### 1.3.2

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Doimiy takomillashtirish maqsadida, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi alohida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan aniq va mahalliy nuqtai-nazardan dolzarb maqsadli ko'rsatkichlar aniqlangan. Ularga erishish bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmogda va natijalar 1.1.4-ko'rsatkich doirasidagi umumiy boshqaruv tizimi doirasida nazorat qilinadi.

YFX

Maqsad - vaqt o'tishi bilan barcha Paxta yetishtiruvchilar mahalliy sharoit va aholi uchun dolzarb bo'lgan sohalarda atrof-muhit barqarorligini yaxshilash majburiyatini o'z zimmasiga olinishini ta'minlash.

Paxta yetishtiruvchilar P&M talablariga shunchaki rioya qilish bilan cheklanmasdan, atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasidagi ijobiy ta'sirni yanada yaxshilashi mumkin bo'lgan asosiy yo'nalishlarni aniqlashi talab etiladi. Doimiy takomillashtirish talab

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

qilinadigan muayyan ustuvor yo'nalishlar Paxta yetishtiruvchilarning o'zi tomonidan belgilanishi mumkin bo'lib, bu orqali mahalliy sharoit nuqtayi nazaridan eng dolzarb va ahamiyatli masalalarni tanlashdagi bir qadar moslashuvchanlik ta'minlanadi. Ustuvor yo'nalishlarni tanlashda atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasidagi mahalliy dolzarb masalalar yoki ustuvor yo'nalishlar, ishchilar va/yoki aholi orasidagi manfaatdor tomonlarning fikri hamda gender tengligi va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq mavzular inobatga olinishi darkor.

Fermerlar ushbu asosiy yo'nalishlarni qanday aniqlagani, rejalashtirilgan va bajarilgan tadbirlarni hamda natijalarni qay tarzda kuzatib borishini tushuntirib bera olishi kerak. Ular, shuningdek, doimiy takomillashtirish talab qilinadigan yo'nalishlar sonini ikki-uchtagacha cheklashga harakat qilishi lozim bo'lib, bu orqali e'tiborni kerakli sohaga yo'naltirish, resurslarni samarali tarzda safarbar etish va rivojlanishga erishish ta'minlanadi.

#### 1.4-MEZON – Salohiyat inklyuziv va samarali yondashuv asosida mustahkamlanishi

##### 1.4.1

##### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Fermer xo'jaligida paxta yetishtirishga jalb etilgan shaxslarning salohiyatini oshirish bo'yicha samarali dastur amalga oshirilmoqda. Trening va tegishli tadbirlarda:

- (i) Mahalliy nuqtai-nazardan dolzarb bo'lgan amaliyot va innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratiladi;
- (ii) 1.1.3-ko'rsatkichga muvofiq, dala darajasidagi inklyuziv maslahatlashuvlar, shuningdek, avvalgi treninglar to'g'risidagi fikr-mulohazalardan foydalaniladi;
- (iii) Dala darajasidagi ta'sirni oshirish nuqtai-nazaridan samarali bo'lgan yondashuv va vositalardan foydalaniladi.

DX  
O'FX

Maqsad - treninglar va salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan boshqa tadbirlar dolzarb, inklyuziv va dala darajasidagi o'zgarishlarga turtki berishda samarali bo'lishini ta'minlash.

Amaliyot va yondashuvlarni o'zgartirish murakkab va qiyin vazifa, negaki bu fermer xo'jaligida mehnat qiladiganlarning ishi va hayotiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir qiladi.

Salohiyatni mustahkamlash jarayoni samarali bo'lishi uchun qo'llanadigan yondashuvda o'zgarishlar ta'sir qiladigan odamlarga to'qnash kelishi mumkin bo'lgan xatarlar inobatga olinishi darkor. Bu nafaqat katta texnik bilim va tajribani, balki tadbirlarni amalga oshiruvchi shaxslarning asosiy funksional ko'nikmalarni (muloqot, moderatsiya va trening ko'nikmalari, gender tengligi va ijtimoiy qamrov masalalarini hisobga olish, shuningdek kattalarga ta'lim berish, xulq-atvorni o'zgartirish, ishtirokchilik asosidagi yondashuvlar va bilimlarni tarqatishning innovatsion usullarini bilish) ham talab qiladi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Mazmun nuqtayi nazaridan, salohiyatni mustahkamlash tadbirlari atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasida mahalliy darajada dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni hal qilish, ishtirokchilarning ta'lim sohasidagi ehtiyojlari va murojaatlarini ko'rib chiqish va mahalliy sharoitda samaradorligi isbotlangan amaliyotlarni targ'ib qilishga qaratilishi kerak. Zarur holatlarda mavzular gender tengligi, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish, tadbirkorlik, moliya va fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobi, biznes va tadbirkorlik, ish joyidagi huquqlar, mehnat gigiyenasi va texnik xavfsizlik kabi sohalarni qamrab olish uchun agronomlik masalalaridan tashqariga chiqishi mumkin va kerak.

Foydalaniladigan yondashuv va vositalar ishtirokchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lishi kerak (shuningdek, 1.4.2-ko'rsatkichga qarang). Ularda klassik yo'riqchi-fermer shaklidagi treninglar doirasidan tashqariga chiqib, kengroq usullarni, masalan, fermerlar o'rtasida o'zaro o'rganish, ko'rgazma maydonlari, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yoki aholi darajasidagi keng ishtirokchilikka asoslangan tadbirlardan foydalanish lozim. ICHB boshqaruvi innovatsion bo'lishi va dasturning dolzarbligi, inklyuzivligi hamda samaradorligini oshirish uchun turli vositalar orqali fikr-mulohazalarni olishga qaratilishi kerak.

Inklyuzivlikni ta'minlash hamda gender masalalari bo'yicha xabardorlikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni kiritish uchun salohiyatni mustahkamlash tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayoniga Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi jalb etilishi lozim (shuningdek, 1.4.2-ko'rsatkichga qarang).

#### 1.4.2

#### Gender tengligi

Treninglar va boshqa tegishli tadbirlar inklyuziv va ulardan o'zi uchun foyda olishi mumkin bo'lgan har bir shaxs uchun teng va ochiq tarzda ishlab chiqilgan.

DX  
O'FX

Maqsad - ICHB rahbariyati fermer xo'jaligida paxta yetishtirishga jalb qilingan har bir shaxsga o'z ko'nikma va bilimlarini rivojlantirish va mustahkamlash imkoniyatini taqdim etishini ta'minlash.

Better Cotton tashabbusi doirasidagi barcha tadbirlarda inklyuzivlikni ta'minlash va dala darajasidagi ta'sirga erishish uchun treninglar yoki tegishli tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, ayniqsa, ayollar, yoshlar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarga alohida e'tibor qaratish juda muhim. Mazmun, yondashuv va vositalar mahalliy sharoitga va tegishli shaxslar guruhlariga moslashtirilgani to'g'risidagi dalillar mavjud bo'lishi kerak. Ular til va

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

savodxonlik muammolari, gender masalasi va ularning paxta yetishtirishdagi roli va potensial ishtirokchilar orasidagi hamda muvofiqshtiruvchilar va ishtirokchilar o'rtasidagi hokimiyat dinamikasi kabi elementlarni ham hisobga olishi kerak. Misol uchun, faqat ayollardan iborat o'quv guruhlarini tashkil etish orqali. Treningga kelib-ketish bilan bog'liq har qanday salbiy ta'sirlar (masalan, ishga bormaganligi sababli daromadni yo'qotishi yoki safar tufayli xavfsizlik bilan bog'liq muammolar) yumshatilishi kerak. Tadbirlarda ishtirokchilarning ishlab chiqarish bilan bog'liq boshqa samarali rollarni o'z zimmasiga olishi mumkin bo'lgan yangi ko'nikma va bilimlar (masalan, agar xohlasalar, **ishchi** ayollarni ko'proq mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarishga, ayollarning uy xo'jaligi daromadlarini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalari va boshqalarga o'rgatish) bo'yicha so'rovlari hisobga olinishi kerak.

Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki gender qo'mitasi va munosib mehnat monitoringi uchun mas'ul bo'lganlar bilan maslahatlashilishi va ular qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishi kerak.

### 1.4.3

### Gender tengligi

Ishtirokchilar treninglar va boshqa tegishli tadbirlar orqali ilgari suriladigan bilim, ko'nikma va amaliyotlarning ahamiyati va afzalliklarini tushunadi.

DX  
O'FX

Maqsad - salohiyatni mustahkamlash bo'yicha tadbirlar barcha ishtirokchilarning xabardorligi, bilim va ko'nikmalarini oshirishda samarali bo'lishini ta'minlash.

ICHB rahbariyati bilimlar, munosabatlar va amaliyotlardagi o'zgarishlarni bevosita kuzatishi va o'rganilgan saboqlar treninglar va boshqa tegishli tadbirlar mazmuni, yondashuvlari va vositalariga o'zgartirishlar kiritishda foydalanilishini ta'minlashi kerak. Monitoring faoliyatini takomillashtirishda alohida e'tibor ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va odamlarga qaratilishi kerak – shu bois gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki gender qo'mitasi va munosib mehnat monitoringi uchun mas'ul shaxslar jalb qilinishi kerak.

### 1.4.4

### Gender tengligi

Ishchilar salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan samarali dastur amalga oshirilmoqda. Trening va tegishli tadbirlarda:

YFX \*

Maqsad ICHB rahbariyati ishchilarga o'z salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan tegishli trening va boshqa tadbirlardan teng va inklyuziv ravishda foydalanish imkoniyatini taqdim etishini ta'minlashdan iborat.

(i) mahalliy darajada dolzarb bo'lgan amaliyot va

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



- innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratiladi;
- (ii) ishchilar bilan maslahatlashuvlar, shuningdek, avvalgi treninglar to'g'risidagi fikr-mulohazalardan asos sifatida foydalaniladi;
  - (iii) samarali yondashuv va vositalardan foydalaniladi;
  - (iv) inklyuziv va foyda ko'rishini mumkin bo'lgan barcha ishchilar foydalanishi uchun teng ravishda ochiq bo'ladigan tarzda ishlab chiqiladi.

Salohiyatni mustahkamlashga qaratilgan tadbirlar ishtirokchilarning ehtiyojlari, so'rovlari va ishlab chiqarish bilan bog'liq rollariga mos kelishi kerak. Ularda asosiy ish ko'nikmalari doirasidan tashqariga chiqilishi va, masalan, ishchilar huquqlari, mehnat gigiyenasi va texnika xavfsizligi, gender tengligi va qishloq xo'jaligini yuritishning barqaror amaliyotlari kabi mavzular kiritilishi kerak.

Better Cotton tashabbusi doirasidagi barcha tadbirlarda inklyuzivlikni ta'minlash va dala darajasidagi ta'sirga erishish uchun, treninglar yoki tegishli tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, ayniqsa, ayollar, yoshlar, shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarga alohida e'tibor qaratish juda muhimdir. Tarkib, yondashuvlar va vositalar mahalliy sharoitga va tegishli odamlar guruhlariga moslashtirilgani borasida dalillar mavjud bo'lishi kerak.

Ularda til va savodxonlik, gender, shuningdek, ishtirokchilar orasidagi hamda muvofiqlashtiruvchilar bilan ishtirokchilar o'rtasidagi potensial munosabatlar tuzilmasini hisobga olinishi kerak.

Treningga kelib-ketish bilan bog'liq har qanday salbiy ta'sirlar (masalan, ishga bormaganligi sababli daromadni yo'qotishi yoki safar davomidagi xavfsizlik bilan bog'liq muammolar) minimallashtirilishi kerak. Tadbirlarda ishtirokchilarning ishlab chiqarish jarayonida boshqa vazifalarni bajarish uchun yangi ko'nikma va bilimlarni egallash (masalan, agar ishchi ayollar o'zi istasa - mexanizatsiyalashgan ishlarni bajarishni o'rgatish, ayollarga uy xo'jaligining daromadlarini ko'paytirishga yordam beradigan ko'nikmalarni egallashga yordamlashish) borasidagi istaklari ham inobatga olinishi lozim.

Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi va Munosib mehnat monitoringi uchun mas'ul bo'lgan shaxslar bilan maslahatlashilishi va ular qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishi darkor.

\* 15 nafardan ziyod ishchi bilan.

## 1.5-MEZON – Ayollarning teng ishtiroki va ahamiyati e'tirof etilishi

### 1.5.1

Gender tengligi

Ayollarning teng ishtiroki va e'tirof etilishiga ko'maklashish maqsadida Gyender masalalari bo'yicha yetakchi yoki

DX  
O'FX  
YFX\*

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati zimmasiga asosiy muammo va imkoniyatlarni aniqlash, shuningdek, Better Cotton tashabbusi tomonidan tashkillashtirilgan hamda

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Gender qo'mitasi tayinlangan bo'lib, uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- (i) Gender tengligi bilan bog'liq mahalliy darajadagi muammolar va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida, fermer xo'jaligida paxta yetishtirishga jalb qilingan ayollar, shuningdek, mahalliy aholi darajasidagi boshqa tegishli ishtirokchilar (shu jumladan erkaklar) bilan maslahatlashish;
- (ii) Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati va fermerlarning mahalliy darajadagi gender munosabatlari, shu jumladan turfa xil qishloq xo'jaligi amaliyotlari va ishlab chiqarishda bajariladigan vazifalar to'g'risidagi xabardorligini oshirish;
- (iii) Aniqlangan muammolarni bartaraf etish va imkoniyatlardan foydalanish uchun Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati bilan ishlash.

boshqa tadbirlar doirasida ayollarning mavqei, ishtiroki va huquqlari e'tirof etilishini mustahkamlash bo'yicha tegishli choralar ko'rish yuzasidan javobgarlik yuklash.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi yo'riqnomaga qarang.

\*faqat 10 dan ortiq ayol ishchisi bo'lgan YFX uchun.

## 1.5.2

## Gender tengligi

Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi bilan yaqin hamkorlikda Paxta yetishtiruvchilar tadbirlar va monitoring rejaları doirasida gender tengligi va inklyuzivlikni kuchaytirish bo'yicha tavsiya etilgan choralarni amalga oshiradi.

DX  
O'FX  
YFX\*

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati tomonidan 1.5.1-ko'rsatkich doirasida belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi va monitoringini ta'minlanish.

Qo'shimcha ma'lumot olish uchun quyidagi yo'riqnomaga qarang.

\*faqat 10 dan ortiq ayol ishchisi bo'lgan YFX uchun.

### 1.5-mezon bo'yicha ko'rsatma: Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gyender qo'mitasi

Ayollar paxtachilikda muhim ahamiyat kasb etib, tarmoqni atrof-muhit uchun bezarar qilishga yordam berish borasida katta salohiyatga ega. Shunday bo'lsa-da, ularda bu jarayonga kattaroq hissa qo'shish uchun kerak bo'ladigan resurslar, bilimlar, vakolatlar va tanlash imkoniyati mavjud emas (masalan, yerga egalik huquqi, qaror qabul qilish vakolati berilgan rahbarlik lavozimlari yoki, hatto, o'qitish imkoniyatlari cheklangani tufayli). ICHB hamda yirik fermer xo'jaliklari ayollar huquqlarining to'liq tan olinishi va paxta yetishtirish jarayoniga integratsiyalashuviga to'stinlik qilayotgan to'siqlarni bartaraf etishda faol rol o'ynashi mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Paxta yetishtiruvchilar Gender masalalari bo'yicha yetakchini, ya'ni gender masalalari bilan bog'liq muammolarni aniqlash va hal qilish hamda xabardorlikni oshirish uchun mas'ul bo'lgan shaxs yoki Qo'mitani tayinlashi kutiladi. Bu shaxs/guruh Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati bilan yaqindan hamkorlik qili, zarur hollarda, fuqarolik jamiyati tashkilotlari hamda boshqa tegishli hamkor va sheriklardan yordam olishi darkor. Misol uchun, aholining fermerlar va ishchilar yaxshi taniydigan va ularning ishonchiga sazovor bo'lib ulgurgan ayol vakillari Gender masalalari bo'yicha yetakchi /Qo'mita vazifalarini bajarish uchun ideal nomzodlar bo'lib, ulardan mavjud gender qo'mitalari yoki tuzilmalarini qayta tuzib chiqish uchun boshlang'ich nuqta sifatida foydalanish mumkin.

Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasini tayinlash va tuzish Paxta yetishtiruvchilarining mas'uliyati hisoblanadi. Biroq ular:

- (i) mahalliy darajadagi gender munosabatlari to'g'risida bilim va tajribaga ega bo'lishi;
- (ii) yuklangan vazifalarni bajarish uchun vaqt va resurslarga ega bo'lishi;
- (iii) harakatlarni amalga oshirish uchun Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati tomonidan tan olinishi va qo'llab-quvvatlanishi lozim bo'ladi.

Qo'mita tarkibiga, kamida, bitta ayol (ideal holatda, fermerlar yoki ishchilar vakili) va Paxta yetishtiruvchilar rahbariyatining bitta a'zosi kiritilishi tavsiya etiladi.

Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasining ishi bir martalik tadbir emas, balki doimiy, uzoq muddatli faoliyatni anglatadi. Tadbirlar mahalliy sharoitlarga moslashtirilishi va quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak:

- **Mahalliy darajadagi gender muammo va imkoniyatlarni baholash hamda ustuvor yo'nalishlarni belgilash:** Ayollarning paxtachilik tarmog'iga hamda Better Cotton dasturi doirasidagi sa'y-harakatlarga jalb etilishi va ishtiroki, shuningdek, ularning yetakchilik va qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlashga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Samarali yechimlarni ishlab chiqish uchun keng qamrovlilik, ya'ni insonning turfa xil xususiyatlari o'zaro kesishib, potensial zulmning turli ko'rinishlarini keltirib chiqarishi hisobga olinishi lozim. Dala darajasidagi maslahatlashuvlarga qo'shimcha ravishda, asosiy yo'nalishlarni aniqlash va erishilgan natijalarni o'lchash uchun boshlang'ich baholashlar foydali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ustuvor muammolarni aniqlashda ishni qisqa va uzoq muddatli istiqbolda eng ko'p zarar keltiradigan ta'sirlardan boshlash tavsiya etiladi. Paxta yetishtiruvchilar yoki Gender masalalari bo'yicha yetakchi /Gender qo'mitasi muammo va imkoniyatlar qanday aniqlangani va ustuvor yo'nalishlar qanday belgilanganini ko'rsatishi lozim.
- **Xabardorlikni oshirish:** Bu doimiy faoliyat bo'lishi kerak. Uning doirasida Gender masalalari bo'yicha yetakchi va Paxta yetishtiruvchilar boshqa tadbirlar, jumladan, barcha darajadagi (xususan, ICHB rahbari, joylardagi muvofiqashtiruvchilar va ICHBning boshqa xodimlari) salohiyatni mustahkamlash tadbirlari orqali gender tengligi va ayollarni qamrab olish to'g'risidagi xabardorlikni oshirish yo'llarini aniqlashi, yillik rejalashtirish va monitoring hamda doimiy takomillashtirish yuzasidan hamkorlik qilishi darkor.
- **Chora-tadbirlarni ishlab chiqish:** Gender masalalari bo'yicha yetakchi aniqlangan muammolarni bartaraf etish va imkoniyatlardan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun Paxta yetishtiruvchilar rahbariyati, mahalliy aholi va, zarur hollarda, Munosib mehnat monitoringi uchun mas'ul shaxs(lar) bilan hamkorlik qilishi lozim. Mazkur chora-tadbirlarni ishlab chiqish jarayoniga erkaklarni ham jalb qilish muhim, negaki ular gender tengligiga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

- **Amalga oshirish:** tadbirlar turiga qarab, chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar mahalliy darajadagi gender masalalari bo'yicha tegishli ma'lumotlar va bilimlar, shuningdek, chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun tegishli amaliy vositalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. O'FX yoki YFX sharoitlarida Xulq-atvor kodekslari kabi tegishli siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish tavsiya etiladigan tadbirlarning dolzarb qismi bo'lishi mumkin. Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki gender qo'mitasi chora-tadbirlarni amalga oshirish, monitoring qilish va takomillashtirishda rahbariyatni qo'llab-quvvatlashi kerak.

Maqsadli tadbirlardan tashqari, Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki gender qo'mitasi barcha tamoyillar bo'yicha bir nechta talablarni amalga oshirishda ishtirok etishi kerak. Ushbu yo'nalishlarning to'liq ro'yxatini [A ilovada](#) topishingiz mumkin.

## 1.6-MEZON – Mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash masalalarining hamkorlik asosida hal etilishi

### 1.6.1

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Paxta yetishtiruvchilar mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash masalalari yuzasidan boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikni namoyish etadi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilarni hamkorlikdagi harakatlar orqali atrof-muhit barqarorligini ta'minlash muammolarini hal qilish uchun boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga undash.

Paxta yetishtirish bilan bog'liq ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning aksariyati ma'lum bir ekin, fermer xo'jaligi yoki ICHB doirasidan tashqariga chiqadi (masalan, suv yetishmasligi, talabga javob bermaydigan mehnat sharoitlari, gender muammolar yoki zararkunandalar). Boshqa manfaatdor tomonlar bilan sa'y-harakatlarni birlashtirish muammolarni yanada samarali hal qilish imkonini berib, bu yanada konstruktiv va uzoq muddatli yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Boshqa ishtirokchilar qatoriga hududdagi boshqa Paxta yetishtiruvchilar, mahalliy muassasalar (masalan, tibbiy markazlar, maktablar va boshqalar), qishloq xo'jaligi sohasidagi mahalliy maslahat xizmatlari, ayollar guruhlar yoki boshqa fuqarolik jamiyati tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va xususiy subyektlar (masalan, pestitsidlar ta'minotchilari) kiradi.

Paxta yetishtiruvchi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini mahalliy muammo va imkoniyatlar va/yoki o'zi ishtirok etib kelayotgan tarmoq munosabatlariga asoslangan holda aniqlashi mumkin. ICHB rahbariyati hamkorlik uchun tanlangan yo'nalishlarni asoslab bera olishi va amalga oshirilgan tadbirlar, natijalarni kuzatish usullari va erishilgan natijalarni tushuntirib bera olishi lozim.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 1.7-MEZON – Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishni takomillashtirishga qaratilgan choralar ko'rilishi

### 1.7.1

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Paxta yetishtiruvchilar iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mahalliy darajada dolzarb bo'lgan chora-tadbirlardan xabardor va ularni tadbirlar va monitoring rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar hamda fermerlar iqlim o'zgarishining paxta yetishtirish jarayoniga o'tkazadigan ta'sirini tushuntira olishi va ularga iqlim o'zgarishiga moslashish va chidamlilikni oshirishga ko'maklashadigan usullarni joriy etish.

Iqlim o'zgarishining aniq ta'siri sharoitga bog'liq bo'lsa-da, iqlim o'zgarishi deyarli barcha paxta yetishtiriluvchi hududlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda yoki ko'rsatadi. Iqlim o'zgarishi dehqonchilik va fermerlarning daromad manbalari uchun xavf tug'dirishini tushunish iqlim o'zgarishiga moslashish choralarini tayyorlash va qabul qilishda muhim qadam hisoblanadi. Ideal holatda, Paxta yetishtiruvchilar iqlim o'zgarishi ta'sirini baholashni fermer xo'jaligi yoki ICHB darajasida o'tkazishi darkor. Ular, shuningdek, mahalliy darajadagi iqlim o'zgarishi xatarlari va turli aholi guruhlarning ular oldidagi himoyasizligini tushunish uchun ishonchli vositalar yoki axborot manbalaridan foydalanishi mumkin.

Iqlim o'zgarishiga moslashish chora-tadbirlari tomorqa xo'jaliklarining chidamlilikni oshirish va iqlim hodisalariga yaxshiroq tayyorlanishga qaratilgan barcha tadbirlarini o'z ichiga oladi. Ular, jumladan, suv resurslarini samarali boshqarish (qurg'oqchilik hamda kuchli yog'ingarchilik kuzatilgan vaziyatlarda), eroziya yoki suv yo'qotilishining oldini olishga yordamlashadigan usullarni o'z ichiga olishi, shuningdek, mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan urug'lardan foydalanish yoki xo'jalik va undan tashqarida daromad manbalarini diversifikatsiya qilishni rag'batlantirishni nazarda tutishi mumkin.

Xotin-qizlarning iqlim o'zgarishi oqibatlari oldidagi himoyasizlik darajasi biroz yuqoriroq bo'lib, odatda, ular iqlim o'zgarishi oqibatlarini o'zida his qilib, vaziyatni yumshatish va moslashish choralarini amalga oshiradi. Shu bois xotin-qizlar ushbu tadbirlar va qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilishi ayniqsa muhim. Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilishi darkor.

Ko'pgina usullar P&M doirasida ilgari surilgan boshqa usullar bilan o'xshash bo'lishi mumkin. Imkon bo'lganda, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan usullarni ilgari surish lozim.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 1.7.2

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Paxta yetishtiruvchilar iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha mahalliy darajada dolzarb bo'lgan chora-tadbirlardan xabardor va ularni tadbirlar va monitoring rejalariga muvofiq amalga oshiradi.

**DX**  
**O'FX**  
**YFX**

**Maqsad** - Paxta yetishtiruvchilar paxta yetishtirish jarayoni iqlim o'zgarishiga qanday hissa qo'shishini tushunishi va bu hissani kamaytirishga xizmat qiladigan tadbirlarni amalga oshirish.

Paxta yetishtirish va, umuman, qishloq xo'jaligi IG tashlanmalariga eng ko'p hissa qo'shadigan sohalar hisoblanadi. Paxta yetishtirish jarayonidagi tashlanmalarni keltirib chiqaradigan asosiy omillar tuproqni tayyorlash, ekin qoldiqlarini yoqish, o'g'it ishlab chiqarish va qo'llash, sug'orish va pestitsidlarni qo'llash kabilarni o'z ichiga olib, mahalliy sharoitga qarab farq qiladi. Talablarga javob beradigan darajadagi amaliyotlar (masalan, tuproqqa ishlov berishni qisqartirish, organik moddalardan foydalanish yoki dukkakli ekinlar bilan almashlab ekish) ham uglerod yutilish darajasini oshirib, IG tashlanmalari hajmini qisqartirishi mumkin.

Paxta yetishtiruvchilar o'z fermer xo'jaligi yoki ICHB bilan bog'liq bo'lgan IG tashlanmalari/yutilishining asosiy manbalarini yaxshiroq tushunish uchun zarur choralarni ko'rishini darkor. Bu maqsadda ular uglerod izi yoki boshlang'ich sharoitlar tahlilini hamalga oshirishi yoki ochiq axborot manbalari va vositalaridan foydalanishi mumkin.

Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish choralari tuproq salomatligini (jumladan, tuproq uglerod yutuvchi vazifasini bajarish qobiliyati) saqlash va mustahkamlash; samarali sug'orish usullaridan foydalanish; qazib olinadigan yoqilg'i turlaridan bosqichma-bosqich voz kechish va dehqonchilikning mexanizatsiyalashgan usullari uchun yanada barqaror energiya manbalari va texnologiyalaridan foydalanish; yerni tozalashga voz kechish va biologik xilma-xillikni oshirish, shuningdek ekin qoldiqlarini yoqish yoki «yoqib tozalash»ning oldini olish kabi usullarni o'z ichiga olishi mumkin. Paxta yetishtiruvchilar uglerod tashlanmalarini kamaytirish borasidagi mahalliy yoki mintaqaviy loyihalarida ham ishtirok etishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlarning aksariyati ayollarga ta'sir qilishi mumkinligini hisobga olsak, ularni ushbu tadbirlarga jalb etish o'ta muhim hisoblanadi. Shunday ekan, Gender qo'mitasi yoki Gender masalalari bo'yicha yetakchi bilan maslahatlashuvlar o'tkazilishi kerak.

Ko'pgina usullar P&M doirasida ilgari surilgan boshqa usullar bilan o'xshash bo'lishi mumkin. Imkon bo'lganda, iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan usullarni ilgari surish lozim.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 2-tamoyil: Tabiiy resurslar

Qishloq xo'jaligida tabiiy resurslardan atrof-muhit uchun bezarar tarzda foydalanish yer yuzida hayot barqarorligi va odamzod farovonligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, shuningdek, fermerlarning iqlim o'zgarishi oldidagi chidamliligini oshirib, qishloq xo'jaligining iqlimga salbiy ta'sirini yumshatishga yordam beradi. Mazkur tamoyilda asosiy e'tibor tuproq salomatligi, suv miqdori va sifati hamda biologik xilma-xillikni himoya qilish va oshirishga qaratilgan qishloq xo'jaligi usullariga qaratiladi. Tamoyil doirasida dehqonchilikdagi regenerativ usullarning asosiy tamoyillari qamrab olinib, ular o'g'itlardan foydalanishni optimallashtirish va kamaytirish hamda fermer xo'jaliklarining lalmikor va sug'oriladigan yerlarida suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, mazkur tamoyilda biologik xilma-xillik va tabiiy ekotizimlarni asrash va yaxshilash muhimligi, shu jumladan, tabiiy ekotizimlar va yuqori darajali muhofaza qiymatiga ega hududlarni o'zgartirmaslik mezonini alohida ta'kidlanadi. Bu usullar birlashib, paxtachilik tarmog'i hamda fermerlar uchun eng muhim bo'lgan resurslarni himoya qilish va yaxshilashga xizmat qiladi.

### **Better Cotton tashabbusining regenerativ qishloq xo'jaligiga nisbatan yondashuvi**

Regenerativ qishloq xo'jaligi - Better Cotton tashabbusining paxta yetishtiruvchilarga atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklashga hissa qo'shgan holda daromad topish va rivojlanishga yordam berish borasidagi maqsadining ajralmas qismidir. Better Cotton tashabbusi regenerativ qishloq xo'jaligi g'oyasini targ'ib qilib, unga ko'ra, dehqonchilik tabiat va jamiyatdan olishdan ko'ra, unga qaytarib berish imkoniyatlari ko'proq. Better Cotton tashabbusining asrlar davomida ma'lum bo'lgan bilim va usullar bilan uyg'unlashgan regenerativ qishloq xo'jaligi to'g'risidagi yondashuvida odamlar bilan tabiat o'rtasidagi aloqalarga kuchli urg'u berilib, qishloq xo'jaligini yuritishning tabiat uchun bezarar usullari bilan barqaror daromad manbalari o'rtasidagi ikki tomonlama bog'liqlik ta'kidlanadi.

Ushbu yaxlit yondashuv orqali Better Cotton tashabbusi regenerativ qishloq xo'jaligini 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun bo'lgan strategiyasiga va uning barcha maqsadli yo'nalishlariga, jumladan, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga erishishning asosiy omillaridan biri sifatida ko'radi, negaki qishloq xo'jaligini yuritishning regenerativ usullari iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatishga ham hissa qo'shishi mumkin. Better Cotton tashabbusining adolatli o'tishni ta'minlashga intilishi ham yuqoridagi yondashuv bilan o'zaro bog'liq. Bu - tomorqa xo'jaliklariga o'z daromad manbalarini takomillashtirishda ko'mak ko'rsatilyotganini anglatib, natijada, ular qishloq xo'jaligini yuritish amaliyotlarini o'zgartirishi mumkin bo'ladi.

Better Cotton dasturida asosiy e'tibor tuproq salomatligini yaxshilash, biologik xilma-xillikni oshirish, pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish, uglerod yutilish darajasini oshirish va fermerlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini oshirishga (shu jumladan, mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslarni yaxshiroq qamrab olish) qaratiladi.

P&M Better Cotton tashabbusining regenerativ qishloq xo'jaligi sohasidagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Qayta ko'rib chiqilgan P&M ga paxta yetishtiriladigan barcha mamlakatlarda dolzarb bo'lgan regenerativ qishloq xo'jaligining asosiy tamoyillari, masalan, ekinlar xilma-xilligini (shu jumladan, agroo'rmon xo'jaligida) maksimal darajada oshirish, tuproqqa ishlov berishni minimallashtirish hamda tuproq qoplamini maksimal darajada oshirish kiritilgan. Tirik ildizlarni saqlash yuqoridagi uchta talabning ajralmas qismi sifatida qaralib, tegishli sharoitlarda chorvachilik sohasi integratsiyasi targ'ib qilinadi. Qishloq xo'jaligini yuritish usullaridan tashqari, Better Cotton tashabbusi P&M ning barcha mezonlarida regenerativ qishloq xo'jaligiga xos bo'lgan ijtimoiy

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

elementni kiritadi. Tegishli saboqlarni chiqarish va qarorlar qabul qilish jarayonida asos qilib olish maqsadida, u fermer xo'jaliklari darajasidagi tadbirlarda ishtirok etadigan shaxslarning turli guruhlar bilan muntazam va inklyuziv maslahatlashuvlar o'tkazish to'g'risidagi talabni o'z ichiga oladi. Qayta ko'rib chiqilgan P&M ga, shuningdek, munosib mehnat va daromad manbalari tamoyiliga aloqador bo'lgan qat'iy talablar kiritilgan. Nihoyat, unda ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslarning roli, ishtiroki va e'tirof etilishini kuchaytirishga qaratilgan bir qator talablar batafsil bayon qilingan bo'lib, ko'p holatlarda, aynan mana shu qatlam vakillari eng muhim dehqonchilik amaliyotlari to'g'risidagi ma'lumot manbai va fermerlar hamjamiyatlarining negizi hisoblanadi.

## 2.1-MEZON – Tuproq salomatligining yaxshilanishi

### 2.1.1

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Ekinlar xilma-xilligini maksimal darajada oshirishni ta'minlaydigan mahalliy sharoitlar uchun dolzarb bo'lgan usullar joriy etilgan.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermerlar qishloq xo'jaligi yerlarida ekinlar xilma-xilligini maksimal darajada oshirishi orqali tuproq salomatligini yaxshilash.

Muayyan yer uchastkasiga ekilgan ekinlarni diversifikatsiya qilish usullari, jumladan, ko'p yillik ekinlarni ekish yoki agroo'rmon xo'jaligi orqali murakkab almashlab ekish, ekinlarni navbat bilan ekish, qoplama ekinlar ekish va tirik ildiz tizimini saqlash kabilarni o'z ichiga olishi mumkin. Mazkur usullar ozuqaviy moddalarning aylanmasini yaxshilashga, biologik xilma-xillik va tuproq tarkibidagi organik moddalar miqdorini oshirishga, shuningdek, suvni saqlash yoki drenajlash imkoniyatlarini takomillashtirishga, shu jumladan tuproq eroziyasi va suv yo'qotilishining cheklanishi xizmat qilishi mumkin. Bu, shuningdek, o'g'itlar va pestitsidlarni qo'llashni optimallashtirish va kamaytirish, tuproqning CO<sub>2</sub>ni saqlash va ushlab qolish imkoniyatlarini oshirish imkonini beradi.

Tanlangan usullarda tuproq turi, topografiya, iqlim, mavjud ekin turlari, ishchi kuchi, madaniy va ijtimoiy munosabatlar hamda hosildorlik nuqtayi nazaridan eng mos keladigan mahalliy sharoitlar hisobga olinishi kerak. Monitoring natijalari (1-tamoyilga qarang), mahalliy bilimlar, sinovlar jarayonida olingan ma'lumotlar va/yoki malakali mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar turli usullarning afzalliklari va muammolarini tushunishni yaxshilashga yordam berishi va qaror qabul qilishda qo'l kelishi mumkin. 2.1.2 va 2.1.3-ko'rsatkichlarida ilgari surilgan usullar va Zararkunandalarga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy yondashuvga muvofiq bo'lgan usullar bir-biriga o'xshashi va eng yaxshi natijalarga erishish uchun ular o'zaro aralashtirilib, taqqoslanishi mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Mazkur ko'rsatkichga muvofiq bo'lish uchun Paxta yetishtiruvchilar vaqt o'tishi bilan ushbu usullarni sinovdan o'tkazish va joriy etishdagi natijalarni namoyish etishi yoki ularni maksimal darajada tatbiq etish qishloq xo'jaligini yuritishning boshqa tabiat uchun bezarar usullari bilan birgalikda tuproq salomatligiga foyda keltirayotganini ko'rsata olishi kerak.

## 2.1.2

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Qishloq xo'jaligini yuritishning tuproq qoplamini maksimal darajada oshirishni ta'minlaydigan mahalliy sharoitlarga mos usullari joriy etilmoqda.

**DX**  
**O'FX**  
**YFX**

Maqsad - fermerlar tuproq ustida qoplama ekinlar bo'lishi orqali uning ochiq qolmasligini ta'minlaydigan usullar vositasida tuproq salomatligini yaxshilashi.

Tuproq qoplamini maksimal darajada oshirishga yordam beradigan usullar orasida qoplama ekinlar ekish, agroo'rmonchilik, ko'p yillik o'simliklarni ekish, ekinlar oralab ekish yoki mulchalash kiradi. Ular tuproqning suvni ushlab turish salohiyatini kuchaytirish, suv oqib ketishi va eroziyani kamaytirish (suv va shamol tufayli), ozuqaviy moddalar yuvilishining oldini olish va biologik xilma-xillikni oshirish orqali (yer ostidagi va ustidagi - masalan, qushlar va hasharotlar uchun yashash muhitlarini ta'minlash orqali) umumiy tuproq salomatligiga hissa qo'shadi.

Tanlangan usullarda tuproq turi, topografiya, iqlim, mavjud ekin turlari, ishchi kuchi, madaniy va ijtimoiy dinamika hamda hosildorlik nuqtayi nazaridan eng mos keladigan mahalliy sharoitlar hisobga olinishi kerak. Monitoring natijalari (1-tamoyilga qarang), mahalliy bilimlar, sinovlar jarayonida olingan ma'lumotlar va/yoki malakali mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar turli usullarning afzalliklari va muammolarini tushunishni yaxshilashga yordam berishi va qaror qabul qilishda qo'l kelishi mumkin. 2.1.2 va 2.1.3-ko'rsatkichlarida ilgari surilgan usullar va Zararkunandalarga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy yondashuvga muvofiq bo'lgan usullar bir-biriga o'xshashi va eng yaxshi natijalarga erishish uchun ular o'zaro aralastirilib, taqqoslanishi mumkin.

Mazkur ko'rsatkichga muvofiq bo'lish uchun Paxta yetishtiruvchilar vaqt o'tishi bilan ushbu usullarni sinovdan o'tkazish va joriy etishdagi natijalarni namoyish etishi yoki ularni maksimal darajada tatbiq etish qishloq xo'jaligini yuritishning boshqa tabiat uchun bezarar usullari bilan birgalikda tuproq salomatligiga foyda keltirayotganini ko'rsata olishi kerak.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

### 2.1.3

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Qishloq xo'jaligining tuproqqa ishlov berishni kamaytirishni ta'minlaydigan mahalliy sharoitlarga mos usullari joriy etilmoqda.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermerlar tuproqqa ishlov berishni kamaytirishga asoslangan usullar orqali tuproq salomatligini yaxshilashini ta'minlash.

Tuproqqa ishlov berishni minimallashtiradigan usullarga tuproqqa minimal darajada ishlov berish, tuproqqa ishlov bermasdan ekish, tuproqqa zonali ishlov berish yoki mulchalash va ekin qoldiqlarini aralashtirib tashlash yoki kompostlash orqali boshqarish kabilar kiradi. Ushbu usullar tuproq tuzilmasini asrash va suv dinamikasini yaxshilash, tuproq tarkibidagi organik moddalarni saqlash va ozuqaviy moddalarning aylanishini yaxshilashga yordam beradi.

Tanlangan usullarda tuproq turi, topografiya, iqlim, mavjud ekin turlari, ishchi kuchi, madaniy va ijtimoiy munosabatlar hamda hosildorlik nuqtayi nazaridan eng mos keladigan mahalliy sharoitlar hisobga olinishi kerak. Monitoring natijalari (1-tamoyilga qarang), mahalliy bilimlar, sinovlar jarayonida olingan ma'lumotlar va/yoki malakali mutaxassislar bilan maslahatlashuvlar turli usullarning afzalliklari va muammolarini tushunishni yaxshilashga yordam berishi va qaror qabul qilishda qo'l kelishi mumkin. 2.1.2 va 2.1.3-ko'rsatkichlarida ilgari surilgan usullar va Zararkunandalarga qarshi kurashish bo'yicha qat'iy yondashuvga muvofiq bo'lgan usullar bir-biriga o'xshashi va eng yaxshi natijalarga erishish uchun ular o'zaro aralashtirilib, taqqoslanishi mumkin.

Mazkur ko'rsatkichga muvofiq bo'lish uchun Paxta yetishtiruvchilar vaqt o'tishi bilan ushbu usullarni sinovdan o'tkazish va joriy etishdagi natijalarni namoyish etishi yoki ularni maksimal darajada tatbiq etish qishloq xo'jaligini yuritishning boshqa tabiat uchun bezarar usullari bilan birgalikda tuproq salomatligiga foyda keltirayotganini ko'rsata olishi kerak.

### 2.1.4

### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

Foydali jihatlarni maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirlarni kamaytirish uchun tuproq va o'simlik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'g'itlarni optimal ravishda qo'llashda quyidagilar hisobga olinadi va tanlab olinadi:

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - organik yoki noorganik o'g'itlar qo'llangan taqdirda, tuproq va ekinning ozuqaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, tomorqa xo'jaliklari to'g'ri qaror qabul qilishi uchun o'g'itlardan ulardan foydalanishni optimallashtirish.

O'g'itlar tuproq salomatligi, suv va biologik xilma-xillikka ta'sir qilishi mumkin bo'lib (masalan, suv bilan oqib, tuproqqa singib ketishi orqali), IG tashlanmalarining asosiy manbai hisoblanadi. Shuningdek, ularning narxi qimmat bo'lib, ustiga-ustak, ular inson

- (i) to'g'ri ozuqa manbai;

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

- (ii) to'g'ri miqdor;
- (iii) to'g'ri vaqt;
- (iv) to'g'ri qo'llash joyi.

salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin. Umumiy uzoq muddatli maqsad o'g'itlarni qo'llashga bo'lgan ehtiyojni minimallashtiradigan tabiat uchun bezarar dehqonchilik tizimini yaratish bo'lsa-da (shuningdek, 2.1.5-ko'rsatkichga qarang), o'g'itlarni qo'llash bo'yicha qaror qabul qilish va amalga oshirishda ishonchli ma'lumotlarga asoslanish kerak. O'g'itlarni qo'llash har doim tuproq yoki o'simliklar holatini muntazam sinovdan o'tkazish va tahlil qilish orqali tuproq va o'simliklarning ozuqaviy ehtiyojlarini kuzatishga, ideal holatda esa, o'g'itlarni qo'llash rejasiga asoslanishi kerak. Qaror qabul qilishda "4T" yondashuvidan foydalangan holda quyidagi elementlar hisobga olinishi kerak:

- To'g'ri ozuqa manbai: to'g'ri komponentlar (ortiqcha azot qo'llanishiga yo'l qo'ymaslik) va to'g'ri turdagi o'g'it (organik o'g'itlarga afzallik berish va turli o'g'itlarning tashlanma koeffitsiyentlarini hisobga olish);
- To'g'ri miqdor: qo'llanadigan o'g'it miqdori ekinning ozuqaviy moddalarni o'zlashtirish imkoniyatiga mos kelishi kerak;
- To'g'ri vaqt: mavsumiy sharoitlar, ekinlarni yetishtirish bosqichi va ob-havo hisobga olinishi kerak;
- To'g'ri qo'llash joyi: O'g'it turiga qarab, eng samarali bo'lishi mumkin bo'lgan joyda qo'llanishi kerak (masalan, ildiz yoki bargga yaqin joyda). To'g'ri qo'llash joyi, deganda nafaqat o'simlikdagi to'g'ri joy, balki tabiiy yashash muhiti va suv havzalariga yaqinlik ham hisobga olinishi kerak.

Ushbu Ko'rsatkich faqat o'g'itlar mavjud bo'lgan va fermerlar ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitlarga daxldor ekaniga e'tibor bering.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAO, The International Code of Conduct for the Sustainable Use and Management of Fertilisers \(2019\)](#) (2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra).

## 2.1.5

## Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

O'simlik va tuproqning **ozuqaviy** ehtiyojlarini qondirish uchun muqobil usullar (sintetik o'g'itlardan tashqari) qo'llanadi. Vaqt o'tishi bilan sintetik o'g'itlardan

**DX**  
**O'FX**  
**YFX**

Maqsad - vaqt o'tishi bilan fermerlarning sintetik o'g'itlarga bo'lgan ehtiyoji va mazkur o'g'it turining amalda qo'llanishini kamaytirish uchun innovatsiyalar va takomillashtirishga intilishini ta'minlash.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

foydalanishni minimallashtirish choralari ko'rilmogda.

Tuproq unumdorligini saqlaydigan va yaxshilaydigan dehqonchilik usullari joriy etilishi va targ'ib qilinishi darkor (shuningdek, 2.1.1-2.1.3 ko'rsatkichlarga qarang). Agar ozuqaviy moddalarga ehtiyoj mavjud bo'lsa, birinchi navbatda, organik o'g'itlar yoki tuproq tuzilmasini yaxshilaydigan moddalarni qo'llash ko'rib chiqilishi, sintetik o'g'itlar faqat oxirgi chora sifatida va/yoki hosildorlik bilan bog'liq eng dolzarb muammolarni hal qilishning eng maqbul usuli bo'lgandagina qo'llanishi kerak. Qisqa muddatli istiqbolda usullarni o'zgartirish imkoni bo'lmasa, Paxta yetishtiruvchilar sintetik o'g'itlar qo'llashni kamaytirish bo'yicha uzoq muddatli reja ishlab chiqishga asos bo'ladigan dalil va ma'lumotlarni izlashi lozim.

Boshqa tegishli muqobil usullar qatoriga dukkakli ekinlarni yoki boshqa azot to'playdigan ekinlarni almashlab ekish, zamburug', bakteriya yoki boshqa biologik o'g'itlardan foydalanish, chorva mollarini almashlab boqish, dalada ko'proq biomassa qoldirish, vermikulturani kuchaytirish, bio-ko'mirdan foydalanish va/yoki kompost yoki go'ng bilan o'g'itlash kabi qishloq xo'jaligini yuritishning tabiat uchun bezarar usullari (shuningdek, 2.1.1-2.1.3 ko'rsatkichlarga qarang) kiradi.

Izoh: Ushbu Ko'rsatkich faqat o'g'itlar mavjud bo'lgan va fermer xo'jaliklari ulardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan sharoitlarga daxldor .

## 2.2-MEZON – Suv sifati va mavjudligining optimallashtirishi

### 2.2.1

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish.

Sug'orish samaradorligini oshirish va suv unumdorligini maksimal darajaga ko'tarish uchun sug'orish usullari, texnologiyalari va muddatlari rejalashtiriladi va joriy etiladi.

DX  
O'FX  
YFX  
(faqat  
lalmikor  
yerlardagi  
fermer  
xo'jaliklari  
ari)

Maqsad - sug'orish usullarini tanlashda mahalliy sharoitlarni hisobga olish, ekinlar uchun maksimal foyda keltirish va atrof-muhit va iqlimga salbiy ta'sirlarni minimallashtirish.

Sug'orish - ekinlar hosildorligini oshirishning asosiy vositasidir. Bundan tashqari, sug'orish - ortib borayotgan suv tanqisligi oqibatlariga qarshi kurashish va yog'ingarchilik ehtimoli kamroq bo'lgan hamda ekstremal ob-havo hodisalari davrida chidamlilikni oshirish uchun iqlim o'zgarishiga moslashishning asosiy chorasi hisoblanadi. Shu bilan birga, sug'orish havzalardagi chuchuk suvga ham katta ta'sir ko'rsatgani, ya'ni suv hajmini kamaytirgani bois samarali sug'orish tizimlarini yaratish juda muhim. Samarali sug'orish tizimlari suvdan samarali foydalanish va uni to'g'ri

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

vaqtda qo'llashga yordam beradi. Ular, shuningdek, energiya va/yoki boshqa resurslarni (masalan, dizelda ishlaydigan tizimlar o'rniga quyosh energiyasida ishlaydigan sug'orish tizimlari) kamroq sarflagani bois iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishga hissa qo'shadi.

Sug'orish usuli, vaqti va texnologiyasini tanlashda ekinlarning turli o'sish bosqichlarida suvga bo'lgan talabi, topografiya, tuproq turi va namligi, yog'ingarchilik shakllari, suv manbai va mavjudligi hamda iqlim o'zgarishi xavfi bilan bog'liq bo'lgan mahalliy sharoitlar hisobga olinishi kerak. Sug'orishni rejalashtirish tuproqqa ishlov berishning infiltratsiya, tuproq namligini boshqarish, suvni ushlab turish va quyosh nuridan foydalanishning tabiat uchun bezarar usullari bilan uyg'unlashtirilishi kerak.

## 2.2.2

## Iqlim o'zgarishiga moslashish

Yog'ingarchilik miqdori o'zgaruvchanligi, intensivligi va yog'ish vaqtiga samarali moslashish usullari joriy etilgan.

DX  
O'FX  
YFX  
(faqat  
lalmikor  
yerlardagi  
fermer  
xo'jaliklari  
ari)

Maqsad - fermerlar tomonidan yog'ingarchilik miqdorining o'zgarishi, jumladan, suv mavjudligi, vaqt davomidagi taqsimot shakllari va yog'ingarchilik intensivligining o'zgarishi oqibatlariga moslashishga yordam beradigan samarali usullar joriy etilishini ta'minlash.

Suv paxta yetishtirishda asosiy cheklovchi omilga aylanib bo'lgan esa-da, iqlim o'zgarishining oqibatlari fermerlar uchun yomg'ir suvi hajmining kamayishi (masalan, qurg'oqchilik paytlarida), yog'ingarchilik vaqti (masalan, musson yoki yomg'irlar mavsumlarining o'zgarishi) va intensivligi (masalan, ekstremal ob-havo hodisalari) ko'rinishida qo'shimcha qiyinchiliklarni tug'diradi. Ushbu o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish va ularga moslashishga tayyor bo'lish yuqori hosildorlikka hissa qo'shish bilan bir qatorda, iqlim o'zgarishi oldidagi chidamlilikni oshirishga ham yordam beradi.

Ushbu Ko'rsatkichni muvaffaqiyatli joriy etish uchun fermerlar yog'ingarchilik miqdori, intensivligi va vaqtining o'zgarishi, shuningdek, infiltratsiya ta'siri to'g'risida xabardor bo'lishi kerak. Ular, shuningdek, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish usullari natijalari ularning daromad manbalariga qanchalik foydali ekanini tushunishi kerak. Sharoitga qarab, suv resurslaridan samarali foydalanish usullari samarali drenajni ta'minlash, suv yo'qotilishi va eroziyaga qarshi kurashish, yomg'ir suvini sug'orish maqsadlarida to'plash va saqlash usullari hamda tuproqning suvni infiltratsiya qilish va yutish qobiliyatini oshirish bo'yicha tadbirlarni o'z ichiga olishi

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

mumkin. Imkoni bo'lgan va dolzarb sharoitda, tabiatga asoslangan yechimlarga ustunlik berilishi kerak (masalan, eroziyaga qarshi kurashish uchun sement o'rniga agroo'rmon xo'jaligidan foydalanish). Yomg'ir suvini boshqarish usullari infiltratsiya, tuproq namligini boshqarish, suvni ushlab turish va quyosh nurining ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladigan tuproqni boshqarish usullarini to'ldirishi kerak.

## 2.3-MEZON – Biologik xilma-xillik va tabiiy yashash muhitlarining asralishi va holati yaxshilanishi

### 2.3.1

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Suv havzalarini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar suv havzalarining ahamiyatini tushunishi, ularning sifati, holati va tegishli biologik xilma-xillikni dehqonchilik faoliyatining salbiy ta'siridan himoya qilish choralari ko'rishini ta'minlash.

Chuchuk suv havzalariga mavsumiy va doimiy daryo, soy, ko'l, hovuz, suvli-botqoq yerlar, kanal va suv omborlari kiradi. Ular biologik jihatdan boy, o'ta muhim ekotizimlar bo'lib, boshqa ekotizimlar va daromad manbalari uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Sog'lom suv havzalari suv oqimini boshqarish, eroziyani kamaytirish va toshqinlardan himoya qilishga yordam beradi, shuningdek, turli xil o'simlik va hayvonlar uchun yashash muhitlarini ta'minlaydi. Shu bilan birga, suv havzalari degradatsiya, ifloslanish va zaharlanishga moyil bo'lib, bu, o'z navbatida, suv havzalarining umumiy ekotizimiga, shu jumladan qishloq xo'jaligi yerlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Suv havzalarini aniqlash va ulardagi suv sifati, suv yetarli hajmda bo'lishi va biologik xilma-xilligini himoya qilish choralari ko'rilishi kerak. Ochiq suv oqimlari bo'yidagi tabiiy o'simliklar (ya'ni, qirg'oq bo'yi bufer zonalar) suv yo'llari va soylarni barqarorlashtirish, eroziyaning oldini olish va suv sifatini himoya qilish uchun ifloslantiruvchi moddalarni filtrlashda muhim rol o'ynaydi. Bufer zonalarining kengligi bufer funksiyasi (masalan, biologik xilma-xillikni asrash yoki kimyoviy oqimlarni filtrlash), bufer zonasining nishabligi va daryo yoki soyni o'lchami bilan aniqlanishi kerak. Ba'zi mamlakatlarda bufer zonasi o'lchamlari milliy, mintaqaviy yoki mahalliy qoidalar bilan belgilanadi. Ochiq suv oqimlari va suvli-botqoq yerlarni himoya qilishning qo'shimcha usullariga pestitsid va o'g'itlar "qo'llash mumkin bo'lmagan" zonalar, pestitsidlar va o'g'itlardan xavfsiz foydalanish va saqlash (shuningdek, 3-tamoyilga qarang) va drenaj suvlarini filtrlash kabilar kiradi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ushbu chora-tadbirlarga qo'shimcha ravishda tuproq va suvni boshqarishning maqbul usullari muhim bo'lib qolaveradi.

### 2.3.2

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Tabiiy yashash muhitlari va biologik xilma-xillik asraladi hamda ularni mahalliy yoki mintaqaviy ustuvorliklarga muvofiq vaqt davomida yaxshilab borish choralari ko'riladi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar fermer xo'jaligi va uning atrofidagi asosiy ekotizimlarni, jumladan, tabiiy yashash muhitlari va biologik xilma-xillikni asrash va yaxshilash uchun mahalliy darajada dolzarb bo'lgan samarali choralarni amalga oshirishini ta'minlash.

Biologik xilma-xillik - hayvonlar, o'simliklar, zamburug'lar va mikroorganizmlar - sog'lom ekotizimlarni tartibga solish, uzoq muddatli ekotizim xizmatlariga ko'maklashish va ekotizimlar chidamliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Paxta yetishtiruvchilar tabiiy yashash muhitlari va biologik xilma-xillik holatini aniqlash va baholashning samarali tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bu – mahalliy aholi darajasida o'zaro hamkorlik, xaritalash va/yoki bilimlarni almashish sohasidagi mahalliy sheriklar bilan hamkorlik qilish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Paxta yetishtiruvchilar va fermerlar o'z dehqonchilik usullari va daromad manbalariga o'tkaziladigan ta'sirni bilish uchun aniqlangan biologik xilma-xillik va tabiiy yashash muhitlarining ekotizim funksiyalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, ular o'zining dehqonchilik usullari biologik xilma-xillik va tabiiy yashash muhitlarining ekotizim funksiyalariga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi to'g'risida xabardor bo'lishi kerak (fermer xo'jaligi hududi va undan tashqarida, masalan, ochiq suv oqimlarining ifloslanishi orqali). Ushbu bilimlarga asoslangan holda, ular vaqt davomida tabiiy yashash muhitlari va biologik xilma-xillikni asrash va yaxshilash uchun tegishli choralarni ko'rishi kerak. Ushbu amaliyotlar changlatuvchilar uchun maxsus ajratilgan maydonlarni qo'shish, invaziv turlar tarqalishining oldini olish choralari (Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi [XTMI]/Turlarning omon qolish komissiyasi invaziv turlar bo'yicha ekspert guruhi tomonidan ma'lumot berilganidek), unumdor bo'lmagan qishloq xo'jaligi yerlarida biologik xilma-xillikni qo'llab-quvvatlash, kasalliklar bilan o'zaro zaharlanishiga yo'l qo'ymaslik, taqir yerlarni mahalliy va endemik turlar bilan qayta tiklash yoki daraxtlar qatori, "yashil" to'siqlar va yovvoyi hayvonlar harakatlanuvchi yo'laklarini saqlab qolish va bog'lash maqsadlarida foydalanish ummkin bo'lgan yerlarga aylantirishni o'z ichiga olishi

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

mumkin. Alohida e'tibor yuqori darajadagi muhofaza qiymatiga ega bo'lgan hududlarga, shuningdek, tabiatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan muhim bo'lgan (masalan, qo'riqlanadigan turlar), tahdidlar (masalan, dehqonchilik amaliyoti) oldida himoyasiz bo'lgan yoki ekotizim salomatligi va yashash muhiti ko'rsatkichlari sirasiga kiritilgan asosiy turlarga qaratilishi lozim.

Tanlangan tadbirlar mahalliy yoki mintaqaviy ustuvor vazifa va loyihalarga muvofiq kelishi va, ideal holatda, boshqa tegishli mahalliy subyektlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi kerak.

Ushbu chora-tadbirlarni to'ldirish uchun tuproq va suv resurslarini boshqarishning ilg'or usullari hanzuz muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[BMT, Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya \(1992\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\)](#)  
[XTMI veb-sayti, Biologik xilma-xillik bo'yicha manbalar \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\)](#)

### 2.3.3

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Ekin maydonlarining degradatsiyaga uchragan qismlari aniqlanib, vaqt o'tishi bilan ularni mahalliy yoki hududiy ustuvor yo'nalishlarga muvofiq qayta tiklash choralari ko'riladi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilarning degradatsiyaga uchragan ekin maydonlarini aniqlash va degradatsiya davom etishiga yo'l qo'ymaslik hamda ularni vaqt o'tishi bilan qayta tiklash choralari ko'rish salohiyatini ta'minlash.

Degradatsiyaga uchragan yerlar - inson faoliyati bevosita yoki bilvosita tarzda keltirib chiqargan jarayonlar natijasida o'zining tabiiy unumdorligi yoki boshqa ekologik qiymatlarining bir qismini yo'qotgan yerlar. Paxta yetishtiriladigan fermer xo'jaliklaridagi degradatsiyaga uchragan maydonlar eroziya, zichlashish yoki sho'rланish darajasi yuqori bo'lgan yerlarni o'z ichiga olib, uzoq muddatli salbiy oqibatlarni, jumladan, ekinlar o'sishining sekinlashishi (tuproq salomatligining yomonlashishi tufayli) va aholi salomatligining yomonlashishiga (suv sifati yomonligi tufayli) olib kelishi mumkin.

Degradatsiyaga uchragan yerlar aniqlanib, boshqa maydonlardan ajralib turadigan tarzda belgilab chiqilishi kerak. Degradatsiya jarayoni davom etishining oldini olish va vaqt o'tishi bilan yerlarni qayta tiklash choralari ko'rilishi kerak. Bunda qayta tiklash yerning qishloq xo'jaligi nuqtai-nazaridan unumdorligini oshirish hamda tabiiy ekotizimlarni qayta tiklash

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



choralarini ham o'z ichiga oladi. Tegishli holatlarda qayta tiklash rejalari mahalliy yoki mintaqaviy ustuvor yo'nalishlar va loyihalarni to'ldirishi kerak.

## 2.4-MEZON – Tabiiy ekotizimlar va yuqori muhofaza qiymatiga ega bo'lgan hududlarning asralishi

### 2.4.1

#### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

Better Cotton tashabbusining Erlarni o'zlashtirish bo'yicha namunaviy hujjatlariga muvofiq, Paxta yetishtiruvchi 2019 yil 31 dekabr yoki undan keyin tabiiy ekotizimlarni o'zlashtirish orqali hosil qilingan yerlarda paxta yetishtirilmasligini kafolatlaydi.

DX  
O'FX  
YFK

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar 2019-yil 31-dekabr dan keyin tabiiy ekotizimlarni o'zlashtirish orqali hosil qilingan yerlarda paxta yetishtirmasligini ta'minlash.

Ushbu Ko'rsatkichni amalga oshirish uchun Paxta yetishtiruvchilar Better Cotton tashabbusining Yerlarni o'zlashtirish bo'yicha namunaviy hujjatlariga murojaat qilish lozim.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[Hisobdorlik mexanizmi tashabbusi, onlayn resurslar \(2023-yil 7fevral holatiga ko'ra\)](#)  
Better Cotton tashabbusining Yerlarni o'zlashtirish bo'yicha namunaviy hujjatlari

### 2.4.2

#### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

Har qanday yer o'zlashtirilishidan avval tabiiy ekotizimlar va yuqori darajadagi muhofaza qiymatiga ega hududlar asralishini ta'minlash maqsadida, Better Cotton tashabbusining Yerlarni o'zlashtirish tahlili o'tkazilishi kerak. Buning natijasida ko'riladigan chora-tadbirlar 1-tamoyilda ko'rsatilgan tadbirlar va monitoring rejalari doirasida to'liq amalga oshirilgan.

DX  
O'FX  
YFK

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar tomonidan tabiiy ekotizimlar va yuqori darajadagi muhofaza qiymatiga ega hududlar aniqlanib, yerlarni o'zlashtirish, o'zlashtirish bilan bog'liq tadbirlar yoki o'zlashtirilgan yerlarda kelajakda qo'llanadigan dehqonchilik usullari natijasidagi salbiy ta'sir ostiga tushmasligini ta'minlash.

Ushbu Ko'rsatkich doirasida Paxta yetishtiruvchilardan taklif qilingan har qanday yerni o'zlashtirishdan avval Better Cotton tashabbusining Yerlarni o'zlashtirish tahlilidan foydalanish talab qilinadi. Tahlil yer umuman o'zlashtirilishi mumkin yoki yo'qligini aniqlash, yuqori darajadagi muhofaza qiymatiga ega hududlar mavjudligini aniqlash va yer o'zlashtirilgan taqdirda amalga oshirilishi kerak bo'lgan potensial oqibatlarini yumshatish choralarini aniqlashga qaratilgan soddalashtirilgan yondashuvni o'z ichiga oladi (2.4.1-ko'rsatkichga muvofiq).

Tahlil doirasida Paxta yetishtiruvchi yerni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan har qanday ma'lumot va qarorlarni hujjatlashtirishi talab qilinadi. Tahlil natijasida aniqlangan

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

oqibatlarni yumshatish bo'yicha choralar tadbirlar va monitoring rejaları doirasida to'liq amalga oshirilishi va nazorat qilinishi darkor.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

Better Cotton tashabbusining Yerlarni o'zlashtirish bo'yicha namunaviy hujjatlari.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# 3-tamoyil: Ekinlarni himoya qilish

2-tamoyilda qamrab olingan tabiiy resurslardan atrof-muhit uchun bezarar tarzda foydalanish hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish chora-tadbirlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan mazkur Tamoyilda ekinlarni himoya qilishning iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan hamda inson salomatligi va atrof-muhit uchun zararli ta'sir xavfini minimallashtiradigan usullari batafsil bayon qilinadi. Sintetik pestitsidlarni qo'llash bilangina cheklanib qolmasdan, ekinlarni himoya qilish usullaridan ham foydalanish bir qator ijobiy natijalar beradi. Bu orqali nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ko'paytirishga hissa qo'shiladi, balki hosildorlikni oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va aholi salomatligi bilan bog'liq muammolar xavfini kamaytirish orqali fermerlarning daromad manbalari mustahkamlanadi. Shuni inobatga olgan holda, mazkur Tamoyilda Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish yondashuvini qabul qilishga alohida e'tibor qaratilib, uning doirasida sintetik pestitsidlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish uchun biologik, madaniy, mexanik yoki jismoniy usullar kombinatsiyasi ilgari suriladi. Shuningdek, unda qaysi pestitsidlardan va qanday sharoitlarda foydalanishga ruxsat berilishi, shu jumladan, inson salomatligi va atrof-muhitga nisbatan bo'lgan xatarlarni kamaytirish uchun pestitsidlar va ularni qo'llash materiallari bilan xavfsiz ishlash talablarini baholash mexanizmi taqdim etiladi.

## 3.1-MEZON – Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish strategiyasi amalga oshirilishi

### 3.1.1

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish (ZQKK) strategiyasi ishlab chiqilib, joriy etilgan va:

- (i) 3.1.2-3.1.6-ko'rsatkichlarini qamrab oladi;
- (ii) ZQKK amaliyotlari to'g'risidagi xabardorlikni oshirish va ularni bosqichma-bosqich joriy etishga ko'maklashadi;
- (iii) 1-tamoyil doirasidagi tadbirlar va monitoring rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

DX  
O'FX

Maqsad - ICHB rahbariyati tomonidan ZQKK tamoyillari bilan uyg'unlashtirilgan (quyidagi ko'rsatmalar jadvaliga qarang) va dala darajasidagi tadbirlarga ustuvor ahamiyat qaratilgan zararkunandalarga qarshi kurashish strategiyasi ishlab chiqilishini ta'minlash. Natijada, fermerlar vaqt o'tishi bilan ekinlarni himoya qilishning ZQKKga asoslangan usullari to'g'risidagi xabardorlik darajasi oshirilgani va tegishli amaliyotlar joriy etilganini namoyish eta olishi kerak.

Tabiiy resurslarni atrof-muhit uchun bezarar tarzda boshqarish (2-tamoyilga qarang) bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ZQKKda hosilni agroekotizimlarga imkon qadar kamroq zarar keltirgan holda yetishtirishga urg'u berilib, zararkunandalarga qarshi kurashishning tabiiy usullari rag'batlantiriladi. ZQKKga asoslangan yondashuvni joriy etish nafaqat atrof-muhitga foyda keltiradi, balki fermerlarga ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va foydani oshirishga yordam beradi.

ZQKK strategiyasida fermerlar orasida ZQKKni tushunish darajasini oshirish va uni joriy etish uchun ICHBning umumiy yondashuvi tushuntirilishi kerak. Ushbu strategiyaning amalga oshirilishiga ko'maklashadigan maxsus tadbirlar, shu jumladan mahalliy darajada tan olingan ilg'or amaliyotlar (masalan, trening, ko'rgazma uchastkalari, xabardorlikni

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

oshirish va boshqalar) umumiy tadbirlar va monitoring rejalarining doirasida amalga oshirilishi kerak (1.1.1 va 1.1.2-ko'rsatkichlarda bo'lgani kabi).

ICHB rahbariyati ZQKK strategiyasi qanday ishlab chiqilgani, shu jumladan texnik maslahatlar manbalarini tushuntirib bera olishi kerak. ICHB rahbariyati, shuningdek, dala darajasidagi tadbirlar umumiy strategiya bilan qay tarzda bog'liqligi va uni amalga oshirish uchun fermerlar bilan ma'lumot almashish qayt tarzda kechishini tushuntirib bera olishi kerak.

ICHBda kamida har yili ko'rib chiqiladigan va yangilab boriladigan hujjatlashtirilgan ZQKK strategiyasi mavjud bo'lishi tavsiya etiladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAO veb-sayti, ZQKK bo'yicha manbalar \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\)](#)

[PAN UK \(Buyuk Britaniyaning Pestitsidlarga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar tarmog'i\) veb-sayti, ZQKK bo'yicha manbalar \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.1.2

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Sog'lom hosil yetishtirishga ko'maklashadigan, zararkunandalar populyatsiyasi va kasalliklar ko'payishining oldini oladigan, foydali organizmlar populyatsiyasini saqlab qolish va ko'paytirishga yordam beradigan usullar joriy etilmoqda.

**DX  
O'FX**

Maqsad - tomorqa xo'jaliklari, avvalo, zararkunandalar tomonidan zararlanishning oldini oladigan yoki minimallashtiradigan usullarni tushunishi va joriy etishini ta'minlash.

ZQKK nuqtayi nazaridan, ustuvorlik doimo profilaktika choralari berilishi kerak, negaki ular aralashuvlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Sog'lom ekinlarning chidamlilik darajasi yuqoriroq bo'lib, ular zararkunanda va kasalliklardan kamroq zarar ko'radi.

Sog'lom ekinlarni ko'paytirish usullariga ekin tanlash, urug'lik tanlash (shuningdek, 3.1.3-ko'rsatkichda keltirilgan), tuproq, suv va bioxilma-xillikni tabiat uchun bezarar tarzda boshqarish, tuproqni tayyorlash va ekish usullari, sug'orish, ozuqa moddalarini boshqarish va begona o'tlarga qarshi kurashish kabilar kiradi (2-tamoyilda ko'rsatilganidek). Dala gigiyenasini ta'minlash, shu jumladan ekin qoldiqlarini olib tashlash zararkunandalar populyatsiyasi ko'payishining oldini olishga yordam beradi. Qishloq xo'jaligi yerlari atrofidagi tabiiy yashash muhitlarini himoya qilish, dala chegaralarida o'simliklar xilma-

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

xilligini oshirish va pestitsidlarni ehtiyotkorlik bilan tanlash va qo'llash foydali hasharotlar populyatsiyasini ko'paytirishga yordam beradi.

ICHB rahbariyati va fermerlar ekinlar salomatligi uchun qanday profilaktika choralarini ko'rayotgani va ulardan kutilayotgan samarani tushuntirib bera olishi kerak.

### 3.1.3

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Fermerlarga urug'lik navlari to'g'risidagi ma'lumotlar mahalliy sharoitlarga mos kelish hamda zararkunanda va/yoki kasalliklarning asosiy turlari oldidagi himoyasizlikni kamaytirish nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda taqdim etiladi.

**DX  
O'FX**

Maqsad - fermerlar sog'lom va chidamli hosil yetishtirish uchun yaxshi urug'lik tanlash naqadar muhim ekanini tushunishini ta'minlash.

Mahalliy sharoitlarga mos urug'lik navlari yaxshi hosil beradi, mahalliy zararkunanda va kasalliklar yetkazadigan zararga nisbatan chidamlir oq bo'ladi va iqlim o'zgarishiga moslashishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bois urug'larni tanlash ZQKK yondashuvining asosiy komponenti hisoblanadi. Ideal holatda, urug'lik navlari zararkunanda va kasalliklarga nisbatan genetik jihatdan chidamliligini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. Urug'ning unib chiqish qobiliyati hamda boshqa fiziologik xususiyatlar, masalan, urug' po'stlog'ining qattiqligi zararkunandalardan zararlanishning oldini olishga yordam beradi.

Better Cotton tashabbusi ayrim sharoitlarda fermerlar bozor tuzilmalari, narx yoki boshqa to'siqlar tufayli kerakli urug'larni sotib olishda muammolarga duch kelishi mumkinligini e'tirof etadi. Ular urug'likni imkon qadar ishonchli manbalardan sotib olishi kerak yoki urug'likni o'zlari yetishtirishi mumkin. Agar urug'lik fermer dalasidagi ekinlardan yig'ib olinadigan bo'lsa, faqat sog'lom ekinlarning urug'lari tanlab olinishi kerak. Kasallanish ehtimolini kamaytirish uchun urug'larga ishlov berish mumkin bo'lsa-da, bu jarayonda taqiqlangan pestislardan foydalanishga yo'l qo'yilmasligi kerak.

ICHB rahbari, joylardagi muvofiqlashtiruvchilar va ICHBning boshqa xodimlari ZQKK bo'yicha umumiy yondashuvi doirasida urug'lik tanlashning muhimligi va mahalliy darajada mavjud bo'lgan urug'lik navlari haqidagi fikrlarni tushuntira olishi kerak. **Fermerlar**, hech bo'lmaganda, mos urug'lik navlarining ahamiyati va urug'larni tanlashda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan jihatlarni tushuntira olishi kerak.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

### 3.1.4

#### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Ekinlarning salomatligi, zararkunandalar va foydali organizmlar darajasining muntazam monitoringi yuritiladi. Dala kuzatishlari va qaror qabul qilish vositalaridan zararkunandalarga qarshi qachon va qay tarzda kurashish lozimligini aniqlashda foydalaniladi.

DX  
O'FX

Maqsad - fermerlar zararkunandalarga qarshi kurashish choralarini faqat o'ta zarur holatlarda qo'llashi uchun samarali monitoring va kuzatuvdan foydalanishni ta'minlash. ZQKK yondashuvining asosiy konsepsiyasi shundan iboratki, zararkunandalar borligi ularga qarshi kurashish choralarini avtomatik ravishda qo'llash lozim degani emas.

Ekinlarning rivojlanishi, shu jumladan zararkunandalar va foydali organizmlarning tarqalganlik darajasini yaqindan kuzatib borish zararkunandalar populyatsiyasiga qarshi kurashish va iqtisodiy yo'qotishlarning oldini olish uchun choralar zarur yoki yo'qligi, ularni qachon va qay tarzda qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish uchun zarur. Fermerlar minimal darajadagi dala kuzatuvlari va tahlillar asosida zararkunandalarga qarshi - individual asosda yoki ekspert ko'magida - kurashish bo'yicha qaror qabul qilish salohiyatiga ega bo'lishi kerak. Ular yirtqichlar va zararkunandalar nisbati kabi tushunchalarni qo'llashi va zararkunandalarga qarshi kurash choralarini uchun iqtisodiy chegaralardan (3.1.6-ko'rsatkichda izohlangan) foydalanishi kerak.

Pestitsidlarni avvaldan belgilangan sanalarda, kuzatuvlar o'tkazmasdan qo'llash ushbu Ko'rsatkichning maqsadiga javob bermaydi. Pestitsidlarni juda istisno holatlarda avvaldan belgilangan jadval asosida ishonchli tadqiqot organining qat'iy tavsiyalariga asoslangan holda cheklangan ko'lamda qo'llashga ruxsat berilishi mumkin. Jadval asosida purkash hujjatlashtirilgan va asoslangan bo'lishi kerak.

### 3.1.5

#### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

Fermerlar asosiy zararkunanda turlariga qarshi kurashishning kimyoviy bo'lmagan (masalan, biologik, jismoniy va madaniy) usullaridan xabardor va ular ZQKK strategiyasi doirasida ustuvor yo'nalishlar hisoblanadi.

DX  
O'FX

Maqsad - fermerlar zararkunandalar profilaktikasi va ularga qarshi kurashishning kimyoviy bo'lmagan usullari afzalliklarini tushunishi va ulardan pestitsidlarni qo'llashdan avval ilk qadam sifatida foydalanishini ta'minlash. Bu usullar nafaqat atrof-muhit va inson salomatligi uchun yaxshiroq, balki, odatda, kimyoviy vositalar qo'llashga nisbatan arzonroq hamdir.

Zararkunandalarga qarshi kurashning kimyoviy bo'lmagan usullari mahalliy sharoitga moslashtirilgan bo'lishi hamda biologik, jismoniy va madaniy amaliyotlarning kombinatsiyasini o'z ichiga olishi mumkin (quyidagi ko'rsatmalar jadvaliga qarang).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

ICHB rahbariyati va fermerlar asosiy zararkunanda turlarining bosimini aniqlay olishi, kimyoviy bo'lmagan usullarni qay tarzda qo'llash mumkinligiga misollar keltira bilishi va ularning pestitsidlarni qo'llashga nisbatan afzalliklarini tushuntirib bera olishi darkor. Kimyoviy bo'lmagan usullar ZQKK yondashuvining asosiy qismi sifatida amalga oshirilishi kerak.

### 3.1.6

### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

Pestitsidlar faqat zararkunandalar tarqalganlik darajasining muayyan chegarasiga yetganda qo'llanadi. Pyestitsidlar qo'llanganda:

- (i) Toksiklik darajasi past bo'lgan faol moddalarga afzallik beriladi;
- (ii) Ular ekin o'sishiga qarshilikni kamaytirish maqsadida tanlanadi va qo'llanadi.

**DX  
O'FX**

Maqsad - fermerlar pestitsidlardan faqatgina zararkunandalarning tarqalganlik darajasi iqtisodiy chegaraga yetganda (quyida tavsiflangan) va 3.1.5-ko'rsatkichda bo'lgani kabi kimyoviy bo'lmagan usullar qo'llangandan keyingina foydalanishini ta'minlash. Iqtisodiy chegaraga yetilganda, fermerlar pestitsidlarni ZQKK tamoyillariga muvofiq qo'llashi va, bunda birinchi, navbatda toksiklik darajasi eng past bo'lgan moddalarni tanlab, ekin o'sishiga qarshilik darajasi hamda odamlar va atrof-muhitga zarar yetkazish xavfini minimallashtirish darkor (masalan, aniq qo'llash va faol moddalarni almashtirib qo'llash orqali).

ZQKK strategiyasiga ko'ra, fermerlar zararkunandalar paydo bo'lishining birinchi belgilarini ko'rishi bilanoq pestitsidlarni qo'llashi mumkin emas. Paxta, ko'pgina ekinlar singari, zararkunandalar tomonidan yetkaziladigan zararining ma'lum darajasigacha chidamli bo'lishi va bunda hosildorlikka salbiy ta'sir kuzatilmaligi mumkin. Binobarin, monitoring ma'lumotlariga (3.1.4-ko'rsatkich) asoslangan holda, fermer pestitsidlarni faqatgina zararkunandalar hosilga yetkazadigan zarar darajasi ularga qarshi kurash choralari uchun ketadigan xarajatlardan (iqtisodiy chegara) yuqoriroq darajaga yetganida qo'llashi lozim.

Fermerlar pestitsidlarni malakali mutaxassis va/yoki trening davomida olingan yo'l-yo'riq va maslahatlar asosida tanlashi va qo'llashi kerak. Shuningdek, ular pestitsidlar bilan ishlashda mas'uliyatni ta'minlashi kerak (3.5-mezonga qarang). Pestitsidlarning toksiklik darajasini yorliqlar, qishloq xo'jaligi sohasidagi maslahat xizmatlari yoki tadqiqot organlaridan olingan ma'lumotlar va toksik yuklama ko'rsatkichlari hisob-kitoblari asosida baholash mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAO, Xalqaro xulq-atvor kodeksi – O'ta xavfli pestitsidlar bo'yicha yo'riqnoma \(2016 yil\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\)](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

[FAO. Xalqaro xulq-atvor kodeksi – Pestitsidlarga chidamlilikning oldini olish va boshqarish bo'yicha yo'riqnoma \(2012-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[Xigli, Pedigo. Iqtisodiy zarar darajasi tushunchalari va ulardan atrof-muhit sifatini saqlashda foydalanish \(1993-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.1.7

### Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish strategiyasi joriy etilgan bo'lib, u:

- (i) Zararkunandalar populyatsiyasi va kasalliklarning ko'payishini oldini oladi va foydali organizmlarni saqlaydi;
- (ii) Ekinlar salomatligi, zararkunandalar, kasalliklar va foydali organizmlarning muntazam monitoringini o'z ichiga oladi;
- (iii) Kimyoviy bo'lmagan usullarga ustunlik beradi;
- (iv) Pestitsidlar faqat zararkunandalar tarqalganlik darajasining belgilangan chegarasiga yetilganda qo'llanishini nazarda tutadi;
- (v) Toksiklik darajasi past bo'lgan faol moddalarga ustunlik beradi va pestitsidlar ishlatilganda ekin o'sishiga qarshilik darajasini nazorat qiladi.

YFX

Maqsad - fermer zararkunandalarga qarshi kurashish bo'yicha yondashuvi hamda dalada qo'llanadigan ekinlarni himoya qilish usullarini ZQKK tamoyillariga moslashtirishini ta'minlash (quyidagi ko'rsatmalar jadvalida batafsil keltirilgan).

Paxta yetishtiruvchi sog'lom hosil yetishtirish, zararkunandalar ko'payishining oldini olish va foydali organizmlarni qo'llab-quvvatlash orqali zararkunandalar tomonidan yetkaziladigan zararining oldini olishi kerak. Fermerlar zararkunandalarga qarshi kurashishning biologik, madaniy va fizik usullarini bilishi va ZQKK strategiyasida ulardan qay tarzda foydalanishni tushuntirib bera olishi kerak.

Pestitsidlar qo'llanilgan taqdirda, fermerlar ular sinchkovlik bilan o'tkazilgan monitoring va iqtisodiy chegaralar asosida qo'llanishi va toksiklik darajasi eng past bo'lgan moddalarga afzallik berilishi borasida dalillar keltirishi kerak. Fermerlar, shuningdek, faol moddalarni almashlab qo'llash va aniq qo'llash usullari orqali ekin o'sishiga qarshilikni boshqarish usullarini tushuntirib bera olishi kerak.

Vaqt o'tishi bilan ZQKK yondashuvini joriy etish ekinlarning salomatligi va chidamliligini yaxshilashi va kimyoviy nazorat choralariga bog'liqlikni kamaytirishi darkor.

### 3.1-mezon bo'yicha ko'rsatma: Better Cotton tashabbusining Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish bo'yicha yondashuvi

Better Cotton tashabbusi uzoq muddatli istiqbolda zararkunandalar paydo bo'lishi yoki ular keltiradigan zararining oldini olishga biologik nazorat, yashash muhitlarining o'zgarishi, madaniy usullar va chidamli ekin navlaridan foydalanish kabi usullarning kombinatsiyasi orqali hissa qo'shiladi. Pestitsidlar faqat belgilangan ko'rsatmalarga muvofiq va zararkunandalarning tarqalganlik darajasi iqtisodiy chegaraga yetganda (ya'ni, zararkunandalar hosilga yetkazadigan zarar ularga qarshi kurash uchun ketadigan xarajatlardan oshganda) qo'llanishi kerak. Iqtisodiy chegaralar zararkunandalar populyatsiyasi va zarar darajasi

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



monitoringini yuritish va baholash kombinatsiyasi orqali aniqlanadi. Pestitsidlarni tanlash va qo'llashda ta'sir faqat tegishli organizmga qaratilishi hamda odamlar, atrof-muhit va dalada mavjud bo'lgan boshqa har qanday organizmlar (ayniqsa, foydali organizmlar) uchun xatarlar minimallashtirilishi kerak.

ZQKKning asosiy tamoyillari

- **Ekotizimni boshqarish orqali uzoq muddatli istiqbolda zararkunandalar paydo bo'lishi va ular tomonidan yetkaziladigan zararning oldini olishga alohida e'tibor qaratish**

ZQKK yondashuvida har qanday kurash usullarini qo'llashdan avval, zararkunandalar muammosi yuzaga kelmasligi uchun tegishli choralar ko'rilishi nazarda tutiladi. Choralar zararkunandalar hujumiga bardosh bera oladigan sog'lom paxta navini yetishtirish, kasalliklarga chidamli o'simliklardan foydalanish yoki hasharotlar va kemiruvchilarni ekinlarga yaqinlashtirmaslik uchun mo'ljallangan repellentlardan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin. Aniqlangan zararkunandalarni shunchaki yo'q qilish o'rniga, ZQKK yondashuviga amal qilish zararkunandalar va ularning ko'payish qobiliyatiga ta'sir qiluvchi atrof-muhit omillarini bartaraf etish va boshqarishni anglatadi.

- **Qaror qabul qilishda monitoring natijalaridan foydalanish**

Monitoring dalada qaysi zararkunandalar mavjudligi, ularning soni va qanday zarar keltirishini aniqlashni o'z ichiga oladi. Zararkunanda turini to'g'ri aniqlash zararkunanda muammo keltirishi mumkinmi yoki yo'qligini aniqlash va unga qarshi kurashning eng yaxshi strategiyasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Vaziyatni kuzatib, zararkunanda biologiyasi va unga bog'liq bo'lgan atrof-muhit omillarini hisobga olgandan so'ng, ekinlar ushbu zararkunandaga nisbatan chidamlimi yoki yo'qmi yoki ularning soni nazorat talab etiladigan iqtisodiy chegaradan ortib ketganmi yoki yo'qligi (ya'ni, zararkunandalarga qarshi kurashish xarajatlari hosilga yetkaziladigan iqtisodiy zarar miqdoridan yuqori bo'lsa) borasida qaror qabul qilinishi mumkin. Agar nazorat zarur bo'lsa, monitoring davomida to'plangan ma'lumotlar zararkunandalarga qarshi kurashish usullari va vaqtini belgilashda asos sifatida ishlatilishi lozim.

- **Samaradorlikni oshirish uchun qarshi kurashish usullarining kombinatsiyasidan foydalanish**

Zararkunandalarga qarshi kurashishning eng samarali va uzoq muddatli usuli - bu alohida usullardan ko'ra birgalikda qo'llanganda yaxshiroq samara beradigan usullar kombinatsiyasidan foydalanishdir. Ushbu usullar tabiiy resurslarni atrof-muhit uchun bezarar boshqarish usullari bilan chambarchas bog'liq va hatto bir-biriga o'xshash bo'lishi mumkin (2-tamoyilga qarang). Zararkunandalarga qarshi kurashish usullari, ko'pincha, quyidagi toifalarga bo'linadi:

- **Biologik nazorat**

Zararkunandalar va ularning zarariga qarshi kurashish uchun ularning tabiiy dushmanlari - yirtqichlar, parazitlar, patogenlar va raqobatchilar yordamidan foydalanish. Umurtqasizlar, patogen o'simliklar, nematodalar, begona o'tlar va umurtqali hayvonlarning tabiiy dushmanlari ko'p.

- **Madaniy nazorat**

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Zararkunandalarning paydo bo'lishini, ko'payishini, tarqalishini va omon qolishini kamaytiradigan usullar. Masalan, sug'orish usullarini o'zgartirish qo'ziqorin va begona o'tlar bilan bog'liq muammolarni kamaytirishi mumkin.

- **Mexanik va jismoniy nazorat**

Zararkunandani to'g'ridan-to'g'ri yo'q qilish, zararkunandalarni to'sib qo'yish yoki zararkunanda rivojlanishi uchun yaroqsiz muhit yaratish usuli. Mexanik nazorat usullari kemiruvchilar uchun tuzoqlar qo'yishni o'z ichiga olsa, jismoniy nazorat usullariga begona o'tlarga qarshi kurashish uchun mulchalash, kasallikning oldini olish uchun tuproqni bug'lash yoki qushlar va hasharotlardan himoya qiladigan ekranlar bo'lishi mumkin.

- **Kimyoviy nazorat**

Pestitsidlardan foydalanish. ZQKK strategiyasi doirasida pestitsidlar faqat zarur holatlarda hamda samarali va uzoq muddatli nazorat uchun boshqa yondashuvlar bilan birgalikda qo'llanadi. Qo'llanadigan pestitsidlar samaradorlik mezonini hisobga olgan holda tanlanishi va odamlar, boshqa organizmlar hamda atrof-muhit uchun minimal xavf tug'dirishi kerak.

### 3.2-MEZON – Pestitsidlar ro'yxatdan o'tkazilib, tegishli yorliqlanishi

#### 3.2.1

Qo'llanadigan barcha pestitsid turlari:

- (i) Kamida bitta milliy yoki mintaqaviy tilda to'g'ri yorliqlangan;
- (ii) Mamlakatda paxta yetishtirishda qo'llash uchun ro'yxatdan o'tkazilgan.

Pestitsid aralashmalari faqat quyidagi holatlarda qo'llanishi mumkin:

- (i) Aralashma ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lsa; yoki
- (ii) Mahalliy qonun-qoidalarga muvofiq, ro'yxatdan o'tkazilgan pestitsidlarning joylarda tayyorlanadigan aralashmalariga ruxsat berilgan bo'lsa.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - barcha pestitsid turlari milliy darajada ro'yxatga olinishi, aniq yorliqlanishi va har qanday aralashma ruxsatnoma asosida qo'llanishini ta'minlash orqali pestitsidlarning zararli ta'sirini minimallashtirish.

Ro'yxatdan o'tkazilgan pestitsidlar - bu tegishli tartibga soluvchi organ tomonidan muayyan ekin(lar)ga nisbatan qo'llash bilan bog'liq xatarlar baholangan va qo'llash bo'yicha yo'riqnomalari ishlab chiqilgan pestitsidlar. Rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan pestitsidlar yorliqlarida mahsulot xususiyatlari, qo'llash ko'rsatmalari va ehtiyot choralarini yoki rioya etilishi kerak bo'lgan tartib-qoidalar to'g'risidagi muhim ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Pestitsidlar yorliqlari kamida bitta de-fakto yoki de-yure rasmiy milliy yoki mintaqaviy tilda bo'lishi kerak. Fermerlar yorliqlardagi ko'rsatmalarni tushunishi va barcha pestitsidlar yorliqlardagi ko'rsatmalarga muvofiq qo'llanayotganini tasdiqlay olishi kerak.

Pestitsidlar aralashmalariga o'z ichiga bir nechta faol moddani olgan tijoriy mahsulotlar, shuningdek, fermerlar tomonidan fermer xo'jaligining o'zida tayyorlangan aralashmalarni qo'llash holatlari (masalan, pestitsid kokteyllari yoki baklardagi aralashmalar) kiradi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Pestitsidlar aralashmalaridan foydalanish inson salomatligiga nisbatan bo'lgan xatarlarni oshirishi, ayrim holatlarda alohida ingrediyentlarning samaradorligini pasaytirishi yoki boshqa salbiy ta'sirlarga olib kelishi mumkin, negaki aralashtiriladigan ingrediyentlar ro'yxatdan olish jarayonida bo'lgani sababli sinovdan o'tkazilmaydi. Pestitsidlar joylarda aralashtirilganda, tegishli himoya choralari va shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish darkor.

Zararkunandalar va kasalliklarga qarshi kurashda qo'llanadigan tabiiy moddalar hisobi yuritilishi lozim bo'lib, bu ro'yxatga olish jarayoni mavjud bo'lmagan mamlakatlar uchun ayniqsa muhim.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[\(Yevropa Ittifoqining 1272/2008-sonli Reglamenti \(YEC\) - moddalar va aralashmalarni tasniflash, yoriqlash va qadoqlash \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.3-MEZON – O'ta xavfli pestitsidlardan foydalanishdan faol tarzda bosqichma-bosqich voz kechilishi

#### 3.3.1

#### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

O'ta xavfli pestitsidlar (O'XP), agar ular Better Cotton tashabbusining Taqiqlangan pestitsidlar ro'yxatiga kiritilgan bo'lsa, qo'llanmaydi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermerlar inson salomatligi yoki atrof-muhit uchun eng xavfli deb hisoblanadigan pestitsidlardan (xalqaro qabul qilingan shartnomalar yoki tasniflash tizimlariga muvofiq) foydalanishga yo'l qo'ymaslik.

Barcha pestitsidlar inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavf tug'dirib, shu jumladan, iqlim o'zgarishiga bevosita va bilvosita hissa qo'shadi. Ushbu xavflarni atrof-muhitga ta'sirni yumshatish choralari hamda SHHVdan foydalanish orqali ma'lum darajada kamaytirish mumkin. Biroq ta'sirni yumshatish choralari mukammal emas va ayrim pestitsidlar odamlar va atrof-muhit uchun shu darajada jiddiy xavf tug'diradiki, ulardan foydalanishga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Ushbu Ko'rsatkich doirasida taqiqlangan deb hisoblangan pestitsidlar sirasiga Stokgolm konvensiyasining A va B ilovalari, Monreal protokoli ilovalari yoki Rotterdam konvensiyasining III ilovasiga kiritilgan pestitsidlar kiradi. Bularning bari - eng xavfli pestitsidlar va birikmalardan foydalanishga barham berish yoki cheklashga qaratilgan

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

xalqaro ko'p tomonlama shartnomalar hisoblanadi. Taqiqlangan pestitsidlarga, shuningdek, Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi (GUT) 1 yoki 2-toifasidagi "o'tkir zaharli" pestitsidlar yoki JSST tasnifining 1a va 1b toifasiga kiritilgan pestitsidlar ham kiradi.

Pestitsidlarni qo'llayotganlar O'XPlar, shuningdek, P&Mga muvofiq taqiqlangan yoki bosqichma-bosqich voz kechilishi mo'ljallangan har qanday pestitsidlar xavfidan xabardor bo'lishi va tushunishi kerak. Bunga pestitsidlar yorliqlarini o'qish bo'yicha treninglar, xavfli pestitsidlar ro'yxatini mahalliy tillarda taqdim etish, pestitsidlar yorliqlarida shartli belgilardan foydalanish va boshqalar kiradi.

Taqiqlangan pestitsidlarning samarali muqobillari bo'lmagan taqdirda, Better Cotton tashabbusi istisno holatlarida foydalanishning o'rnatilgan jarayoni orqali ulardan istisno tariqasida foydalanishga ruxsat berishi mumkin. Istisno holatlarida foydalanish jarayoni murojaatlarni qat'iy va shaffof tarzda baholashni, shu jumladan samarali muqobillarni ko'rib chiqish, ta'sirni yumshatish choralarini qo'llash hamda vaqt o'tishi bilan foydalanishni kamaytirish yoki bosqichma-bosqich voz kechish choralarining ko'rilishini ta'minlaydi. Agar muayyan holatlarda pestitsidlardan istisno sifatida foydalanishga ruxsat berilsa, kelishilgan shartlarga qat'iy rioya qilinishi va ular bo'yicha hisobot berilishi lozim.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

Better Cotton tashabbusining O'ta xavfli pestitsidlardan istisno sifatida foydalanish tartibi

Better Cotton tashabbusining Taqiqlangan pestitsidlar ro'yxati

### 3.3.2

### Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

2028 yilga kelib, Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimiga (GUT) muvofiq kanserogen (1a yoki 1b toifasi), mutagen (1a yoki 1b toifasi) yoki reprotoksik (1a yoki 1b toifasi) sifatida belgilangan pestitsidlarni qo'llashdan bosqichma-bosqich voz kechish rejasi amalga oshirilmoqda.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar va fermerlar kanserogen, mutagen yoki reprotoksik (KMR) moddalarning inson salomatligiga nisbatan bo'lgan jiddiy xavf-xatarlarini tushunishi va ularni qo'llashga umuman yo'l qo'ymasligi yoki - agar samarali muqobillari bo'lmasa - 2028-yilgacha yoki undan avvalroq ularni qo'llashdan bosqichma-bosqich voz kechish uchun faol choralar ko'rishini ta'minlashdan.

KMR moddalari sifatida tasniflangan pestitsidlar inson salomatligi uchun uzoq muddatli jiddiy xavf tug'dirishi mumkin. Ma'lum yoki potensial kanserogenlar ta'siri saraton

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

kasalligini keltirib chiqarishi yoki u bilan kasallanish ehtimolini oshirishi mumkin. Mutagenlar nasliy irsiy nuqsonlarni keltirib chiqarishi yoki u bilan kasallanish ehtimoli ortishiga olib kelishi mumkin. Reprotoksik kimyoviy moddalar ta'siri reproduktiv tizimga salbiy ta'sir ko'rsatishi va naslda nuqsonlar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Garchi himoya vositalaridan foydalanish (masalan, SHHV va yopiq kabinadan purkash) bu xavflarni kamaytirishi mumkin bo'lsa-da, eng yaxshi yo'l - ushbu kimyoviy moddalarni qo'llashga umuman yo'l qo'ymaslik.

Pestitsidlarni qo'llayotganlar O'XPlar, shuningdek, P&M ga muvofiq taqiqlangan yoki bosqichma-bosqich voz kechilishi mo'ljallangan har qanday pestitsidlar xavfidan xabardor bo'lishi va tushunishi kerak. Bunga pestitsidlar yorliqlarini o'qish bo'yicha treninglar, xavfli pestitsidlar ro'yxatini mahalliy tillarda taqdim etish, pestitsidlar yorliqlarida shartli belgilardan foydalanish va boshqalar kiradi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[BMTning Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi \(GUT, 9-tahrir, 2021-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[XMTning Erkak va ayollarning reproduktiv salomatligiga nisbatan ish joyidagi tahdidlar bo'yicha manbalar \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.4-MEZON – O'ta xavfli pestitsidlar ekologik xavf-xatarlarining yumshatilishi

#### 3.4.1

#### Iqlim o'zgarishiga moslashish. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish

Better Cotton tashabbusining Yuqori ekologik xavf darajasiga ega moddalar ro'yxatiga kiritilgan pestitsidlar qo'llanganda, ekologik xavflarni minimallashtirish choralarini ko'riladi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermerlar pestitsidlarning atrof-muhitga nisbatan bo'lgan salbiy ta'sirini tushunishi va uni minimallashtirish choralarini ko'rishini ta'minlash. Yakuniy maqsad - pestitsidlar qo'llanishiga umuman yo'l qo'ymaslik yoki ulardan butunlay voz kechish.

Better Cotton tashabbusining Yuqori ekologik xavf darajasiga ega moddalar ro'yxati Pestitsidlarga qarshi kurashish harakati tarmog'i (PAN) O'XPlar xalqaro ro'yxatining 3-guruhi (Ekologik toksiklik darajasi) asosida tuzilgan. 3-guruh pestitsidlari changlatuvchilar va suv ekotizimlari uchun yuqori xavf tug'diradigan va o'ta barqaror xususiyatlarga ega (ular tuproqda, suvda yoki cho'kindida uzoq vaqt saqlanadi) yoki o'ta bioakkumulyativ xususiyatlarga ega (ularning organizmda to'planish sur'ati yo'q qilinishdan ko'ra tezroq

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

bo'lib, xavf darajasi ham yuqoriroq) pestitsidlardir. Better Cotton tashabbusining Yuqori ekologik xavf darajasiga ega moddalar ro'yxati PAN ro'yxatiga muvofiq 3-guruh sifatida tasniflangan pestitsidlarni o'z ichiga olib, ular Better Cotton talabiga mos paxta yetishtiruvchi fermerlar orasida keng qo'llanadi, shu jumladan, ta'sirni yumshatish bo'yicha tavsiya va misollar.

Ushbu Ko'rsatkich faqat 3.3.1-ko'rsatkichga muvofiq qo'llanishi taqiqlanmagan pestitsidlarga nisbatan amal qiladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[Pestitsidlarga qarshi kurashish harakati xalqaro tarmog'ining \(PAN International\) O'ta xavfli pestitsidlar ro'yxati \(2021-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[Buyuk Britaniyaning Pestitsidlarga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar tarmog'i \(PAN UK\) "Pestitsidlarning atrof-muhitga ta'siri" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[Buyuk Britaniyaning Pestitsidlarga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar tarmog'i \(PAN UK\) "Biologik xilma-xillikni saqlash" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

Better Cotton tashabbusining Yuqori ekologik xavf darajasiga ega moddalar ro'yxati.

### **Better Cotton tashabbusining o'ta xavfli pestitsidlarga nisbatan yondashuvi**

O'ta xavfli pestitsidlar (O'XP) inson salomatligi va atrof-muhit uchun jiddiy xatarlarni keltirib chiqaradigan hpestitsidlardir. Ekinlarda qo'llanadigan pestitsidlarning umumiy toksiklik darajasini kamaytirish va, pirovardida, O'XPlardan foydalanishdan voz kechish fermerlar, ishchilar va fermerlik hamjamiyatlari vakillarining salomatligini himoya qilish, shu bilan birga, atrof-muhitni muhofaza qilish jarayonining ajralmas qismi. ZQKK strategiyasi doirasida inson salomatligi va atrof-muhit uchun toksiklik darajasidan kelib chiqqan holda pestitsidlarning ayrim turlaridan foydalanishni taqiqlash yoki cheklash yuqoridagi maqsadlarga erishish usullaridan biri hisoblanadi. Better Cotton tashabbusining yondashuvi, samarali muqobillar mavjud bo'lmagan taqdirda, pestitsidlardan bosqichma-bosqich voz kechish bilan bog'liq bo'lgan murosallarni tan oladi va ularni hal qilishga intiladi.

### **O'XPlar qay tarzda aniqlanadi**

Odatda, O'XPlar quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi:

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

- O'tkir toksiklik: Bu – moddaning bir martalik yoki qisqa muddatli ta'siridan keyin organizmga zararli ta'sir ko'rsatish qobiliyati.
- Surunkali toksiklik: Bu - moddaning ko'p martalik yoki uzoq muddatli ta'siridan keyin organizmga zararli ta'sir ko'rsatish qobiliyatini anglatadi. Bularga saraton, reproduktiv yoki rivojlanish bilan bog'liq muammolar hamda nevrologik kasalliklar kabi sog'liq uchun uzoq muddatli ta'sirlar kiradi.
- Barqarorlik: Bu - moddaning atrof-muhit ta'sirida degradatsiyaga yoki parchalanishga qarshilik ko'rsatish va, binobarin, tuproq, suv va boshqa tabiiy resurslarda uzoq muddat davomida saqlanib qolish qobiliyatini anglatadi.
- Bioakkumulyatsiya va biomagnifikatsiya: Bioakkumulyatsiya deganda moddaning vaqt o'tishi bilan organizmlar to'qimalarida to'planish qobiliyati tushunilsa, biomagnifikatsiya - oziq-ovqat zanjiri bo'ylab yuqoriga ko'tarilgan sari moddaning konsentratsiyasi ortib borish jarayonini anglatadi.
- Xavfli xususiyatlar: O'XPlar qo'shimcha xavfli xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin, masalan, yonuvchanlik yoki portlash xavfi yoki xavfli qo'shimcha mahsulotlarni keltirib chiqarish uchun boshqa kimyoviy moddalar bilan reaksiyaga kirishish.

Ko'pgina mamlakatlarda O'XPlarga nisbatan qat'iy qoida va nazorat choralari amal qilsa-da, O'XPlarni aniqlash uchun ishlatiladigan mezonlar me'yoriy-huquqiy baza va muayyan mamlakat yoki mintaqaga qarab farq qiladi. P&M da quyidagi asoslardan foydalaniladi. Ko'pincha, pestitsidlar quyidagi ro'yxatlarning bir nechtasida keltirilishiga e'tibor qarating. Ixtiyoriy standart sifatida, ayrim hududlarda Better Cotton tashabbusi tomonidan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasida mahalliy yoki milliy qoidalarga qaraganda yuqoriroq standartlar belgilanishi mumkin.

- Stokgolm konvensiyasi: Stokgolm konvensiyasi - **turg'un organik ifloslantiruvchi moddalarni (TOIM)** ishlab chiqarish, ularni qo'llash va tashlanmalariga barham berish yoki cheklashga qaratilgan yuridik jihatdan majburiy shartnoma. TOIMlar - atrof-muhitda saqlanib turadigan, bioakkumulyatsiya va biomagnifikatsiya bo'ladigan hamda inson salomatligi va atrof-muhitga zarar yetkazish xavfini tug'diradigan kimyoviy moddalar. Hujjatning "A" va "B" ilovalarida keltirilgan pestitsidlarni qo'llash P&M ga ko'ra taqiqlangan.
- Rotterdam konvensiyasi: Rotterdam konvensiyasi - muayyan xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarning **xalqaro savdosi** tartiblari bayon etilgan yuridik jihatdan majburiy bo'lgan xalqaro shartnoma. Unda asosiy e'tibor xavfli deb topilgan va Konvensiya ishtirokchilari tomonidan taqiqlangan yoki qat'iy cheklangan kimyoviy moddalar va pestitsidlarga qaratilgan. Hujjatning III ilovasida keltirilgan pestitsidlardan foydalanish P&M ga muvofiq taqiqlangan.
- Monreal protokoli: Monreal protokoli - 198 mamlakat va Yevropa Ittifoqi tomonidan ratifikatsiya qilingan yuridik jihatdan majburiy bo'lgan xalqaro shartnoma bo'lib, **ozon qatlamini yemiruvchi moddalar** va ularning muqobillaridan bosqichma-bosqich voz kechishga qaratilgan. Uning ilovalarida keltirilgan pestitsidlardan foydalanish P&Mga muvofiq taqiqlangan.
- JSSTning 1a va 1b sinflari: JSST kimyoviy moddalarning inson salomatligi uchun xavflarini aniqlaydi va baholaydi. 1a va 1b bandlarda sanab o'tilgan pestitsidlar haqida so'z ketganda, og'iz, teri yoki nafas olish yo'li orqali ta'sir qilganda o'lim yoki sog'likka jiddiy zarar yetkazish kabi **o'tkir toksiklikka** olib kelishi mumkin bo'lgan moddalar yoki aralashmalar tushuniladi. Ulardan foydalanish P&M ga muvofiq taqiqlangan.
- GUTga muvofiq pestitsidlarning "o'tkir toksik" deb tasniflangan 1- va 2-guruhlari va "kanserogen", "mutagen" va "reprotoksik" pestitsidlarning 1a va 1b toifalari: Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi (GUT) - xavfli kimyoviy moddalarning keng ko'lami bilan bog'liq xavflarni tasniflash va ular to'g'risida xabar berish uchun standartlashtirilgan global tizim. JSSTning 1a va 1b sinflariga o'xshash holda, **o'tkir toksiklik ("o'tkir toksiklik" sinfining 1- va 2-toifalari)** bilan bog'liq eng og'ir xavflarni keltirib chiqaradigan kimyoviy moddalar P&Mga muvofiq

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

taqiqlangan. 1a yoki 1b toifasiga kiruvchi “kanserogen”, “mutagen” yoki “reprotoksik” pestitsidlardan 2028 yilga qadar bosqichma-bosqich voz kechilishi maqsad qilingan.

- Pestitsidlarga qarshi kurashish tarmog'i (PAN) O'ta xavfli pestitsidlarning xalqaro ro'yxati 3-guruhi: PAN pestitsidlar xavfini kamaytirish bo'yicha tavsiyalarni aniqlaydi va taqdim etadi. PANning 3-guruhi PANning **ekologik toksiklik mezonlariga** (ularning turg'unligi, bioakkumulyatsiyasi va biomagnifikatsiyasi, suv organizmlari uchun toksikligi va asalarilar uchun toksikligi hisobga olingan holda) javob beradigan faol moddalarni o'z ichiga oladi. Ushbu ro'yxat 3.4-mezon doirasida ta'sirni yumshatish bo'yicha tegishli choralar ko'rilishini talab qiladigan pestitsidlarni aniqlashda ishlatiladi.

Better Cotton tashabbus ro'yxatlarni mamlakatingizda qaysi pestitsidlar xavfli hisoblanishi to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumot bilan birga taqdim etadi.

### 3.5-MEZON – Pestitsidlar bilan muomala qilish va saqlashga mas'uliyat bilan yondashish

#### 3.5.1

Gender tengligi

Pyestitsidlarni tayyorlaydigan va qo'llaydigan shaxs quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- (i) Sog'lom;
- (ii) Pestitsidlarni qo'llash malakasiga ega va tayyorgarlikdan o'tgan;
- (iii) 18 yosh va undan katta;
- (iv) Homilador yoki emizikli emas.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilar va fermerlar pestitsidlar bilan muomala qiladigan shaxslar yetarli darajada tayyorgarlikka ega bo'lgan katta yoshdagi sog'lom odamlar bo'lishini ta'minlash orqali inson salomatligiga nisbatan zararni minimallashtirish.

Emizikli yoki homilador ayollar pestitsidlar bilan muomala qilishi mumkin emas, negaki himoya choralariga rioya qilingan taqdirda ham homila yoki bola uchun xavf saqlanib qoladi. Kasal yoki charchagan odamlar sog'lom odamlarga qaraganda baxtsiz hodisaga duch kelish xavfi yuqoriroq. Muayyan turdagi kasalliklarga chalingan, jarohat yoki yaralari bo'lgan shaxslar ham pestitsid ta'siridan ko'proq zarar ko'radi.

Pestitsidlarni qo'llaydigan shaxslar uchun maxsus tayyorgarlik va/yoki sertifikatlash talab qilinadigan mamlakatlarda pestitsidlar bilan muomala qiladigan barcha shaxslar tegishli malakaga ega ekani to'g'risidagi dalillar taqdim etilishi kerak. Barcha holatlarda Paxta yetishtiruvchi pestitsidlar bilan kim muomala qilishini, trening qanday o'tkazilishini va ular Ko'rsatkich talablari bajarilishini qay tarzda ta'minlashini tushuntira olishi kerak. Trening yoki sertifikatlash bo'yicha qaydlar saqlanishi kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



[FAOning Pestitsidlarni boshqarish bo'yicha xalqaro xulq-atvor kodeksi \(2014 yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[Crop Life International tashkilotining "Mas'uliyatli yondashuv" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.5.2

Pestitsidlar bilan ishlashda tegishli shaxsiy himoya vositalari (SHHV) to'g'ri qo'llanadi.

O'FX  
YFX

Maqsad - pestitsidlar qo'llanganda, tegishli shaxsiy himoya vositalaridan ehtiyotkorlik bilan va izchil foydalanish orqali inson salomatligiga yetkaziladigan zararni kamaytirish.

Odamlarni pestitsidlar ta'siridan himoya qilishning eng yaxshi yo'li - pestitsidlardan butunlay voz kechish, ulardan foydalanishni minimal darajaga tushirish va toksiklik darajasi pastroq turlarini tanlash. Pestitsidlarni qo'llashdan boshqa chora bo'lmagan taqdirda, inson salomatligi uchun xavflarni kamaytirishga sifatli shaxsiy himoya vositalari yordam berib, buning uchun ular to'g'ri kiyilgan va tegishli texnik xizmat ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Pestitsidlar ta'siri og'iz, teri yoki nafas yo'llari orqali sodir bo'lishi mumkin.

Pestitsidlar bilan muomala qiladigan barcha shaxslar tegishli shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishi kerak. Shuningdek, pestitsidlar yorliqlaridagi ko'rsatmalarga muvofiq qo'llanishi kerak. Yorliqlar muntazam ravishda tekshirib turilishi (hech bo'lmaganda har bir purkash mavsumida) va ular bilan muomala qiluvchi barcha shaxsiy himoya vositalarining ahamiyati, ularni to'g'ri qo'llash va texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitilishi kerak. SHHVning eskirganligi yoki yo'qligi muntazam tekshirib turilishi va, kerak bo'lganda, almashtirilishi kerak.

### 3.5.3

Minimal shaxsiy himoya vositalari (SHHV) pestitsidlar bilan muomala qilishda to'g'ri qo'llanib, tananing quyidagi qismlarini pestitsidlarning teri orqali kirishi, yutilishi va nafas yo'llari orqali kirishidan himoya qilishni o'z ichiga oladi:

DX

Maqsad - tegishli shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish imkoniyati bo'lmagan sharoitlarda fermerlar va ishchilarni pestitsidlar ta'siridan himoyalashning minimal darajasi bilan ta'minlash.

Uzoq muddatli maqsad - pestitsidlardan foydalanishni imkon qadar kamaytirish va tegishli SHHV mavjudligi va ulardan foydalanish darajasini oshirish (3.5.4-ko'rsatkichga ham qarang). Shu bilan birga, maqsad - pestitsidlar ta'siri xavflari to'g'risidagi xabardorlikni

- (i) yuz va nafas olish yo'llari (ko'zlar, quloq

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

- (ii) teshiklari, burun va bosh terisi);
- (ii) oyoq-qo'llar (qo'llar, bilaklar, kaftlar, oyoqlar);
- (iii) qorin sohasi va jinsiy organlar qismi.

oshirish hamda fermerlar va ishchilar tanasining ochiq qismlarini imkon qadar himoya qilish. SHHV bajariladigan vazifaga hamda mavjud iqlim sharoitiga mos kelishi kerak.

Pestitsidlar bilan muomala qiladigan fermer va ishchilar pestitsidlarning teriga to'kilishi, yutilishi va nafas yo'llari orqali kirishi, shuningdek, ko'zlarga zarar yetkazishining oldini olish uchun tananing barcha kerakli qismlarini yopishi kerak. Materiallar suv o'tkazmaydigan, to'qilmagan (pestitsidlarning o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun), kimyoviy moddalarga nisbatan chidamli bo'lishi va har foydalanishdan keyin zaharli elementlarni olib tashlash uchun yuviladigan bo'lishi kerak. SHHV samarali bo'lishi va salbiy ta'sirlar xavfini (issiqlik stressi yoki toshmalarning ko'payishi kabi) minimallashtirishi kerak. SHHV pestitsidlar bilan muomala qilishning barcha bosqichlarida, jumladan idishlarni ochish, pestitsidlarni o'tkazish, pestitsidlarni aralashtirish, jihozlarni yuklash, purkash va jihozlarni yuvish vaqtida qo'llanishi kerak.

Pestitsidlarning kiyimlarga nisbatan ta'sirining oldini olish uchun foydalanishdan avval SHHV yuvilishi yoki utilizatsiya qilinishi va yuvish uchun ishlatilgan suv ham tegishli tarzda utilizatsiya qilinishi kerak.

ICHB rahbariyati fermer va ishchilarni pestitsidlardan foydalanish xavfi va SHHVning ahamiyatini tushunish borasida qo'llab-quvvatlashi, turli vazifalarni bajarishda SHHVdan oqilona foydalanishni targ'ib qilishi, shuningdek, SHHVdan xo'jalik darajasida foydalanish monitoringini yuritishi (shu jumladan, masalan, issiqlik yoki noqulaylik tufayli doimiy ravishda yopib yurilmaydigan tananing muayyan qismlarini). Muomala qilish va qo'llashda noqulay, qimmat yoki mahalliy bozordan xarid qilish imkoni bo'lmagan SHHVdan foydalanishni talab qiladigan pestitsidlardan, ayniqsa issiq iqlim sharoitida, foydalanish maqsadga muvofiq emas.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAO/JSS Tning Pestitsidlar bilan ishlash va ularni qo'llashda shaxsiy himoyani ta'minlash bo'yicha tavsiyalar - Pestitsidlarni boshqarish bo'yicha xalqaro xulq-atvor kodeksi \(2020\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[XMT/XOOI, Salomatlik, xavfsizlik va ekologiya: Kasaba uyushmalarining qishloq xo'jaligi ishchilari uchun o'quv qo'llanmalari seriyasi \(2006-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

[CropLife International, SHHV bo'yicha onlayn resurslar \(videolavha\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.5.4

### Gender tengligi

Pestitsidlar bilan muomala qiladigan shaxslar orasida tegishli shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish darajasini oshirish choralari ko'rilmogda.

SH

Maqsad – Paxta yetishtiruvchi tegishli SHHVdan foydalanish imkoniyati va darajasini oshirish orqali pestitsidlar bilan muomala qiladigan shaxslar salomatligini yaxshiroq himoya qilib borishini ta'minlash.

Minimal SHHVdan foydalanish (3.5.3-ko'rsatkichda bo'lgani kabi) pestitsidlarning zararli ta'siridan maxsus SHHVga nisbatan sezilarli darajada kamroq himoya qiladi. Biroq ko'plab dehqon xo'jaliklarida maxsus SHHVdan foydalanish darajasi xarajatlar, foydalanish imkoniyati, noqulaylik va xabardorlik yetishmasligi bilan bog'liq muammolar tufayli cheklangan. Ushbu Ko'rsatkich joriy boshlang'ich holat qanday bo'lishidan qat'i nazar, tegishli maxsus SHHVdan foydalanish imkoniyati va darajasini doimiy oshirib borishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan.

ICHB rahbariyati maxsus SHHVni joriy etish bilan bog'liq muammolarni, foydalanish imkoniyati va darajasini oshirish choralari aniqlashi hamda vaqt o'tishi bilan takomillashish jarayonini monitoring qilish tizimiga ega bo'lishi kerak (masalan, mazkur amaliyot fermerlarning reprezentativ tanlanmasi tomonidan qabul qilinishini kuzatib borish orqali). ICHB rahbariyati ushbu tadbirlarni amalga oshirishda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi bilan maslahatlashishi va hamkorlik qilishi lozim.

### 3.5.5

Fermer xo'jaligida pestitsidlarni saqlash, aralashtirish va ular bilan muomala qilish hamda qo'llash uskunalarini saqlash va qayta ishlash uchun maxsus joylar ajratilgan bo'lishi kerak. Ushbu joylar pestitsidlarni saqlash bo'yicha tegishli qonun hujjatlariga to'liq javob berishi kerak. Bu joylarda yuvish uchun ishlatilgan va to'kib yuboriladigan suvlar ifloslanish xavfini tug'dirmasligi uchun to'liq utilizatsiya qilinishi kerak.

O'FX  
YFX

Maqsad - pestitsidlarni saqlash va ular bilan muomala qilish uchun mas'uliyatli tartib-qoidalarni ta'minlash orqali odamlar va atrof-muhitga zarar yetkazish xavfini kamaytirish.

Pestitsidlar boshqa barcha moddalardan alohida saqlanishi kerak. Korroziya yoki pestitsidlarning parchalanish xavfini kamaytirish uchun pestitsidlar solingan idishlar ob-havo sharoitlaridan himoyalangan holda saqlanishi kerak. Pestitsidlar ruxsatsiz olinishining oldini olish va ulardan chiqadigan gazlar xavf tug'dirmasligi uchun pestitsidlar xavfsiz va yaxshi shamollatib turiladigan joyda saqlanishi kerak. Pestitsidlar hech qachon ichimlik yoki oziq-ovqat mahsulotlari uchun mo'ljallangan idishlarda saqlanishi mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

emas. Agar pestitsidni o'zining maxsus idishidan boshqa idishda saqlash zaruriyati tug'ilsa, u holda idishga aniq va tegishli belgi qo'yilishi kerak.

Pestitsidlar saqlanadigan idishlar va ularni qo'llash uskunalari tozalash faqat tegishli SHHVni kiygan holda, turar-joy va aholi punktlaridan, shuningdek ekologiya nuqtayi nazaridan muhim joylardan, xususan, suv havzalari va ochiq suv oqimlaridan uzoqda amalga oshirilishi kerak, shunda har qanday oqova suvlar suv ta'minoti tizimiga tushmaydi. Pestitsidlarni qo'llaydigan shaxslar pestitsidlar yoki ularni qo'llash uskunalarini bilan muomala qilgandan so'ng qo'l yuvish va kiyim almashtirish uchun maxsus joylardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[CropLife International, "Mas'uliyatli yondashuv" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.5.6

Agrokimyoviy konteynerlarni utilizatsiya qilish inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavflarni kamaytiradi. Mavjud bo'lgan holatlarda, Fermerlar qayta ishlash yoki ta'minotchiga qaytarish dasturlarida ishtirok etadi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - bo'sh pestitsid idishlarini odamlar va atrof-muhitga zararni kamaytiradigan tarzda saqlash va yo'q qilishni ta'minlash.

Ishlatilgandan so'ng barcha idishlarni tegishli tarzda uch marta chayib tashlanishi kerak (SHHVdan to'g'ri foydalanish ta'minlangan holda). Hatto yuvilgan idishlar ham hech qanday maqsadda qayta ishlatilmasligi kerak, negaki bu ifloslanish yoki zaharlanishga olib kelishi mumkin.

Ishlatilgan idishlarni noto'g'ri utilizatsiya qilish ham havo, tuproq, suv va mahalliy ekotizimlarni ifloslantirishi mumkin. Qayta ishlash yoki ta'minotchi tomonidan qaytarib olinish dasturlari idishlarni xavfsiz utilizatsiya qilishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Imkon bo'lganda, Paxta yetishtiruvchilar qayta ishlash dasturlarini targ'ib qilish yoki kengaytirish tadbirlarida ishtirok etishi kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAOning pestitsidlarni boshqarish bo'yicha xalqaro xulq-atvor kodeksi - o'ta xavfli pestitsidlar bo'yicha yo'riqnoma \(2016\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

[CropLife International, "Idishlarni boshqarish" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 3.5.7

### [Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish](#)

Fermerlar pestitsidlarni qo'llashning tegishli va xavf darajasi kamroq usullaridan xabardor va joriy etgan. DX

Maqsad - pestitsidlarni qo'llashda to'g'ri uskunalar va usullardan foydalangan holda pestitsidlar samaradorligini maksimal darajada oshirish va zararli ta'sirlarni minimallashtirish.

Fermerlar pestitsidlarni qo'llashdan avval ob-havo sharoitlarini, jumladan, shamol tezligi va yo'nalishini, haroratni, namlikni va atmosfera barqarorligini kuzatishi kerak. Masalan, pestitsidlarni yomg'ir yog'ishidan avval qo'llash mumkin emas, negaki bu samaradorlikni pasaytiradi va suv bilan oqib ketish va ifloslanish xavfini oshiradi. Shuningdek, pestitsidlarning dala chegarasidan tashqariga tarqalish xavfini ham hisobga olish kerak. Shamol va yuqori harorat chegaradan tashqariga tarqalish xavfini oshirishi mumkin (negaki yuqori haroratlarda suv asosidagi moddalar tezroq bug'lanib, osonroq tarqaladigan kichik tomchilarga aylanadi).

Pestitsidlarni qo'llash uskunasi ma'lum parametrlar ostida ishlash uchun mo'ljallangan va ishlatiladigan aniq pestitsid turlariga mos bo'lishi kerak. Uskuna ham soz holatda bo'lishi, suyuqlik sizib chiqmasligi yoki komponentlari eskirmagan bo'lishi kerak. Ifloslanish xavfini kamaytirish va soz holatda saqlash uchun uskunalar har foydalanishdan keyin tozalanishi kerak.

Pestitsidlar va ularni qo'llash uskunalari bilan muomala qilganda, odamlarga va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatilmaligiga alohida e'tibor berilishi kerak (masalan, materiallarning bolalar qo'lga tushib qolish xavfi, ichimlik suvi uchun ishlatiladigan quduqlarga to'kilish xavfini kamaytirish va boshqalar.).

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAOning "Pestitsidlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

[FAOning Pestitsidlarni yer yuzasida qo'llash bo'yicha maqbul amaliyotlar bo'yicha ko'rsatmalari \(2001-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

### 3.5.8

Quyidagi talablar bajarilgan holda pestitsidlarni qo'llashning salbiy ta'sirlari minimallashtirilgan:

- (i) Yorliqlardagi talablarga rioya qilish;
- (ii) Tegishli qo'llash uskunalari to'g'ri ishlatish va kalibrlash;
- (iii) Tegishli ob-havo sharoitlarini hisobga olish;
- (iv) Zararlanish (masalan, purkalganda hudud tashqarisiga tarqalish orqali) darajasi kamaytirilib, odamlar va atrof-muhitga yetkaziladigan zararning oldini olish bo'yicha tegishli choralarini ko'rish;
- (v) Pestitsidlar qo'llangandan keyin hududga kirish taqiqlangan vaqt oraliqlariga rioya qilish.

O'FX  
YFX

Maqsad - pestitsidlarni qo'llashda to'g'ri uskuna va usullardan foydalangan holda pestitsidlar samaradorligini maksimal darajada oshirish va zararli ta'sirlarni minimallashtirish.

Pestitsidlar doim yorliqlardagi batafsil ko'rsatmalar yoki **sotib olinganda qo'shib beriladigan** Materiallar xavfsizligi pasportiga muvofiq qo'llanishi kerak.

Zararlanish xavfi mavjud bo'lgan joylarda (masalan, purkalganda hudud tashqariga tarqalishi orqali) moddalarning hududdan tashqariga tarqalishini kamaytirish va mahalliy aholi hamda ekotizimlarni har qanday salbiy ta'sirlardan himoya qilish choralarini ko'rilishi kerak. Pestitsidlar samolyotlar yoki dronlar yordamida havodan qo'llanganda, zararlanish xavfi ayniqsa yuqori bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda, mahalliy aholiga yoki ekotizimlarga nisbatan zararli ta'sirlarning oldini olish uchun tegishli bufer va "qo'llash mumkin bo'lmagan zonalar" tashkil etilishi kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[FAOning "Pestitsidlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar" veb-sahifasi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\)](#)

### 4-tamoyil: Tola sifoti

Tola sifati paxta xaridorgirligi va yaxshi narxda sotilishining asosiy sharti hisoblanadi. Shu asnda, bu fermerlarning daromad manbalariga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda, bozorlardagi ishonchni mustahkamlash, mahsulotning e'tirof etilishi va, pirovardida, talabga ham hissa qo'shadi. Ushbu Tamoyil doirasida sog'lom va yuqori sifatli hosil yetishtirish hamda zararlanish va ifloslanish darajasini kamaytirish maqsadida, ekin ekilishidan avval, o'sish davrida, yig'im-terim va yig'im-terimdan keyingi davrlarda mahalliy sharoitlar uchun dolzarb bo'lgan ilg'or usullarga urg'u beriladi.

#### 4.1-MEZON – Tola sifatining himoya qilinishi va yaxshilab borilishi

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

#### 4.1.1

#### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish

Yuqori sifatli tola yetishtirish imkoniyatlarini oshirish maqsadida, urug'lik tanlash (imkon bo'lganda), ekish muddati, ekish me'yori, qator oraliqlari, ekinlarning o'sishi va begona o'tlarni boshqarish bo'yicha mahalliy sharoitlarga mos ilg'or usullar joriy etilmoqda.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermerlar tolaning tabiiy xususiyatlarini yaxshilashga yordam beradigan usullarni ko'rib chiqishi va tanlashi uchun sharoit yaratish.

Paxta, asosan, tola olish maqsadida yetishtirilishi bois tola sifati uning xaridorgirligi va yuqori narxda sotilishi uchun asosiy shart hisoblanadi. Paxta tolasining qiymati undan ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan ipning sifatiga, shuningdek, ipni ishlab chiqarish samaradorligiga bog'liq bo'lib, tola sifati har ikkala omilga ham katta ta'sir qiladi. Paxta tolasining uchta keng ko'lamli xarakteristikasi muhim ahamiyatga ega: tolaning tabiiy xususiyatlari (pishiqlik, uzunlik, ingichkalik va bir xillik), ifloslanish darajasi (paxta momig'i ichida qolgan paxta barglari) va zararlanish darajasi (paxta momig'ida topilgan paxta tolasi yoki paxta bargidan boshqa har qanday narsa). Ushbu ko'rsatkich tolaning tabiiy xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan.

Tolaning sifati urug'lik tanlashdan boshlansa-da, tola sifatiga dehqonchilik usullari ham ta'sir qilishi mumkin. Better Cotton tashabbusi tola sifati mahalliy sharoitga (iqlim, tuproq, urug'likdan foydalanish imkoniyati va boshqalar) bog'liqligini e'tirof etib, fermerlarni o'z sharoitidan kelib chiqqan holda eng maqbul qarorni qabul qilishga rag'batlantiradi. Mazkur ishlarni bevosita bajaruvchilarga – ko'pincha, ayol ishchilar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatlarda va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslar uchun treninglar tashkil etilishi lozim. Paxta yetishtiruvchi ushbu tadbirlarda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi bilan maslahatlashishi va hamkorlik qilishi darkor.

#### 4.1.2

Zararlanishning oldini olish uchun terish, saqlash va tashish jarayonida mahalliy sharoitlarga mos maqbul usullar joriy etilmoqda.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermerlar paxta tolasini ifloslantiradigan, zararlanish va zararni kamaytiradigan usullarni ko'rib chiqib, tanlashi uchun sharoit yaratish.

Tolaning ko'plab xususiyatlari, masalan, uzunlik va pishiqlik, paxta hosilga kiringunga qadar shakllanib bo'ladi. Biroq tola sifatini saqlab qolish va paxta ifloslanmasligi yoki unga ziyon yetmasligi uchun hosilni terib olish va yig'im-terimdan keyingi boshqarishning ilg'or usullari muhim ahamiyatga ega. Yig'im-terim muddatlari va uni samarali tashkillashtirish hamda boshqarish - ifloslanganlik darajasi, shuningdek, paxtani qadoqlash va saqlash uchun ishlatiladigan materiallar va usullarga ta'sir qiladi. Polipropilen, polietilen yoki boshqa sintetik qoplardan foydalanilganda, muqobil variantlar ilgari surilishi va Paxta

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

yetishtiruvchilar vaqt o'tishi bilan sintetik materiallardan voz kechishi kerak. Paxtani saqlash uchun joy tanlash ham unga ziyon yetishi (yuqori darajadagi namlik yoki haddan tashqari quruqlik natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yong'inlar) xavfini minimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Better Cotton tashabbusi Paxta yetishtiruvchilarning tola sifatiga ta'sir qilish imkoniyatlari chegaralanganini e'tirof etadi. Shu bois defoliatsiya yoki tashish usullari bilan bog'liq masalalar ular Paxta yetishtiruvchining javobgarligi doirasida bo'lsagina baholanadi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



# 5-tamoyil: Munosib mehnat

Better Cotton tashabbusi adolatli va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlash paxtakorlarning farovonligi va daromad manbalarini yaxshilashda eng muhim ahamiyatga ega deb hisoblaydi. Bu, shuningdek, Better Cotton tashabbusi a'zolariga atrof-muhit barqarorligini ta'minlash borasidagi maqsadlariga erishishga ko'maklashish uchun mas'uliyatli ta'minot zanjirlarini targ'ib qilish hamda bozorlardagi ishonchni shakllantirishda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. 5-tamoyil zamirida paxta yetishtirishni munosib mehnat sharoitlari ta'minlangan, bolalar mehnati, majburiy mehnat, ish joyidagi ta'qiblar, zo'ravonlik va kamsitishlardan xoli bo'lgan jarayonga aylantirish g'oyasi jamlangan. Bunga erishish uchun Tamoyil doirasida faqat taqiqlarga asoslangan yondashuv chegarasidan chiqib, Paxta yetishtiruvchilarga mehnat huquqlari buzilishi xavflari va holatlari kuzatib beriladigan va ushbu xavflar tegishli tarzda bartaraf etilishi ta'minlanadigan munosib mehnat monitoringi tizimini yaratish bo'yicha mas'uliyat yuklanadi. Ushbu Tamoyil, shuningdek, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va mazkur masala bo'yicha muzokaralar olib borish erkinligini, shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari va huquqiy himoya vositalaridan foydalanish ta'minlangan ish muhitini yaratishga qaratilgan. Eng kam ish haqini to'lash va/yoki mazkur yo'nalishdagi shaffoflik va doimiy takomillashtirish talabini kiritish orqali ushbu Tamoyil doirasida, shuningdek, Better Cotton tashabbusining ishchilar kun kechirishi uchun zarur bo'lgan eng kam ish haqi olishini qo'llab-quvvatlash borasidagi uzoq muddatli maqsadi sari ilk qadam qo'yiladi. Nihoyat, Tamoyil doirasida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik masalalari, shu jumladan, issiqlik stressi va sanitariya-gigiyena muammolarini hal qilish talablari qamrab olinadi. Tamoyilning keng ko'lamli mavzusi – ko'rsatkichlarga erishishda ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarga urg'u berish talab qilinishini e'tirof etish. Better Cotton tashabbusi ishchilar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, daromad manbalari va farovonligini oshirish faqatgina Paxta yetishtiruvchilarning mas'uliyat doirasi bilan chegaralanmaydigan tarkibiy va murakkab mavzu ekanini e'tirof etadi. 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun mo'ljallangan strategiyaga muvofiq, Better Cotton tashabbusi P&M chegarasidan chiqib, munosib mehnat monitoringi, uyushmalarga uyushish va jamoaviy muzokaralar o'tkazish erkinligi, kun kechirish uchun zarur bo'lgan eng kam ish haqi to'lanishi hamda sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash kabi sohalardagi ishlarni davom ettirishga sodiq qoladi.

## Munosib mehnat Tamoyili bo'yicha ko'rsatma:

Munosib mehnatdan (MM) kutiladigan natijalar barcha ishchilarga, shu jumladan oila a'zolariga, mavsumiy, vaqtinchalik yoki migrant ishchilarga hamda subpudratchilar, bandlik sohasidagi vositachilar yoki boshqa uchinchi shaxslar orqali yollangan har qanday ishchilarga nisbatan taalluqli (shuningdek, [ishchilar ta'rifiga](#) qarang). [Ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash borasidagi sodiqligimizga](#) muvofiq, bu jarayon doimo ayol ishchilar, yosh ishchilar va ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ishchilarini qamrab oladi.

1.1.5-ko'rsatkichga muvofiq, barcha Paxta yetishtiruvchilar tegishli mehnat qonunchiligi va me'yoriy hujjatlarga rioya etishi talab qilinadi. Agar mavjud qonun va me'yoriy hujjatlar P&M talablariga mos kelmasa, qat'iyroq talablar to'plami qo'llaniladi.

Mehnat sohasidagi asosiy tamoyil va huquqlar:

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Better Cotton tashabbusi munosib mehnatni ilgari surib, barcha **fermer va ishchilarning** huquqlari himoya qilinishini ta'minlashga intiladi. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) "Munosib mehnat" tushunchasini "ayol va erkaklarning erkinlik, tenglik, xavfsizlik va inson qadr-qimmatini ta'minlangan sharoitda amalga oshiradigan unumdor mehnat" sifatida ta'riflaydi. Better Cotton tashabbusining munosib mehnatga nisbatan yondashuvi XMTning ilk bor 1998-yilda qabul qilingan va 2022-yilda so'nggi o'zgarishlar kiritilgan Mehnat sohasidagi asosiy tamoyil va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiyasiga mos keladi. Mazkur hujjat xalqaro mehnat standartlari asoslangan mezonlar borasidagi eng muhim kelishuv hisoblanadi. Unda mehnat sohasidagi beshta asosiy tamoyil keltirilgan: uyushmalarga uyushish erkinligi va jamoaviy muzokaralar o'tkazish huquqi, majburiy mehnatga barham berish, bolalar mehnatiga barham berish, bandlik va kasbiy kamsitishlarga barham berish, xavfsiz va sog'lom mehnat muhiti. Deklaratsiya XMTga a'zo 187 ta davlatning barchasiga ular tegishli konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan yoki qilmaganidan qat'i nazar, ushbu besh yo'nalishdagi tamoyil va huquqlarni hurmat qilish va ilgari surish majburiyatini yuklaydi.

## 5.1-MEZON – Mehnat huquqlarining buzilish xavfi va holatlari samarali tizim vositasida aniqlanib, bartaraf etilishi

### 5.1.1

Gender tengligi

Mehnat qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq xatar va holatlarni muntazam ravishda kuzatib borish tizimi mavjud. Ushbu tizimda:

- (i) Monitoring tizimi uchun mas'ul bo'lgan shaxs(lar) aniq belgilangan uning ishlashida fermer va ishchilar vakillari qatnashadi;
- (ii) Xatarlar aniqlanganda, ularni bartaraf etish va kuchayishining oldini olish bo'yicha tezkor choralar ko'riladi.

DX  
O'FX  
YFX\*

Monitoring tizimining maqsadi - mehnat qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq xatar va holatlarni aniqlash va bartaraf etishni ta'minlash orqali ishchilarning huquqlarini himoya qilishga ko'maklashish.

Bolalar mehnati va majburiy mehnat kabi masalalarning nozik, yashirin tabiati hamda dehqonchilik ishlarining norasmiy tuzilmasi tufayli qishloq xo'jaligi sohasidagi mehnat qonunchiligining buzilish holatlarini aniqlash mushkul bo'lishi mumkin. Ushbu Ko'rsatkichning maqsadi - talablarga rioya qilishni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan an'anaviy yondashuvdan (mehnat qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq holatlarni aniqlashga qaratilgan) "baholash va bartaraf etish" yondashuviga o'tish. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor mehnat qonunchiligi buzilishi bilan bog'liq potensial holatlarning oldini olish va yumshatish, shuningdek, aniqlangan har qanday hodisalarni bartaraf etishga qaratiladi.

Monitoring tizimi ishchilar to'g'risidagi ma'lumotlar, fermer va ishchilar orasida o'tkaziladigan so'rovnomalar, fokus-guruhlar tarkibidagi muhokamalar, fermer xo'jaliklariga tashriflar va ish eng qizg'in paytda ishchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlar, shuningdek, manfaatdor tomonlar (masalan, maktablar, mahalliy hukumat yoki mahalliy ayollar guruhlar) bilan maslahatlashuvlarni o'z ichiga olishi mumkin. Tizim doirasida, eng kamida, majburiy va bolalar mehnati, kamsitilish, ish joyidagi zo'ravonlik va ta'qiblar, uyushmalarga uyushish erkinligi va jamoaviy muzokaralar o'tkazish, salomatlik va xavfsizlik bilan bog'liq xatarlar kuzatilishi lozim. O'FX va YFXlardan, shuningdek, ish vaqtdan tashqari ishlash bilan bog'liq xatarlarni aniqlash uchun ish vaqti va ish haqi,

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

shuningdek, har qanday baxtsiz hodisalar hisobini yuritish talab etiladi. Tizim doirasida odamlarning turli guruhlari, ayniqsa, ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarga nisbatan bor bo'lgan turli xatarlar hisobga olinishi kerak.

Tizim uchun mas'ul shaxs yoki qo'mita tayinlanishi mumkin, lekin ularning tarkibida ishchilar (shuningdek, ICHBda fermerlar) va ayollar vakillari bo'lishi darkor. YFXlarda ishtirok etish uchun ishchilarning tanlangan rasmiy vakili bo'lishi tavsiya etiladi. Jismoniy shaxs yoki qo'mita muntazam ravishda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gyender qo'mitasi bilan maslahatlashgan holda hamkorlik qilishi lozim.

Monitoring tizimining samaradorligi Better Cotton tashabbusi tomonidan o'tkaziladigan tahlillar davomida baholanadi. Bunda tizim mehnat bilan bog'liq xatar yoki holatlarni aniqlay olishi, muammoni yaxshilash/tuzatish va/yoki uning oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'ra olishi bo'yicha baholanadi. Samarali ishlaydigan monitoring tizimi Paxta yetishtiruvchiga ushbu Tamoyil doirasidagi barcha talablarni bajarishda yordam beradi.

\*faqat 25 nafardan ziyod ishchisi bo'lgan YFX ga taalluqli.

### 5.1.2

### Gender tengligi

Barcha ishchilar o'z huquqlarining buzilishi bilan bog'liq xavotirlarni yetkazish va ularning hal qilinishiga qaratilgan xolis, samarali va xavfsiz kanallardan foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu mexanizmlar doirasida shikoyat kiritishning joriy etilgan, ishonchli mexanizmlaridan yoki mavjud bo'lgan boshqa tizimlaridan foydalanilishi darkor.

DX  
O'FX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchi Better Cotton fermer xo'jaliklaridagi barcha ishchilar uchun xavfsiz va ishonchli kanallar orqali shikoyat qilish imkoniyatini ta'minlashi. Shikoyatlar tegishli tarzda ko'rib chiqilishi, tekshirilishi, kuzatilishi va, kerak bo'lganda, keyingi yordam uchun uchinchi tomonlarga yuborilishi kerak.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi manfaatdor tomonlarga arz qilish imkonini berib, undan, jumladan, kamsitilish yoki adolatsiz ish sharoitlari tufayli foydalanish mumkin. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlaridan barcha ishchilar (jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslar) xavfsiz, maxfiy, xolis, bepul tarzda va ta'qib qilinishdan qo'rqmagan holda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Samarali bo'lishi uchun mazkur mexanizm orqali kiritilgan shikoyatlar o'z vaqtida va qoniqarli tarzda hal etilishi ta'minlanishi darkor. Ishchilar anonim tarzda shikoyat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Shikoyatlar manfaatdor tomonlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday muammo yoki holatni, jumladan, bolalar mehnati, majburiy mehnat, kamsitilish, ish joyidagi zo'ravonlik va ta'qiblar, uyushmalarga uyushish erkinligi, nomaqbul mehnat sharoitlari yoki ishga yollashning noqonuniy usullarini o'z ichiga olishi mumkin. Gender masalasi bilan bog'liq shikoyatlar va ularni ko'rib chiqish mexanizmlaridan inklyuziv tarzda foydalanish imkoniyatini ta'minlash bo'yicha Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi bilan maslahatlashilishi lozim.

Shikoyatlarni ko'rib chiqishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lsa, ishchilar ular to'g'risida xabardor bo'lgan, o'qitilgan va foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan taqdirdagina bu mexanizmlardan naf bo'ladi. Ayrim holatlarda shikoyatlarni ko'rib chiqishning mavjud mexanizmlari samarali ishlashi uchun ularni mustahkamlash yoki moslashtirish talab qilinishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[BMTning Tadbirkorlik va inson huquqlari bo'yicha asosiy tamoyillari, 31-asosiy tamoyil \(2011 yil\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 5.1.3

### Gender tengligi

Mehnat huquqlari buzilgan taqdirda, jabrlanganlar himoya va huquqlarni tiklash vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Jabrlanganlar shaxsining maxfiyligi va xavfsizligi butun jarayon davomida ta'minlanadi.

DX  
O'FX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchi mehnat qonunchiligini buzgan taqdirda, jabrlanganlar yordam, himoya va huquqiy himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash. Huquqlarni tiklash, deganda vaziyatni tuzatish jarayoni tushunilib, maqsad - jabrlangan shaxsni imkon qadar zarar yetkazilgunga qadar bo'lgan avvalgi holatiga qaytarishga yordam berish.

Mehnat huquqlarining buzilishi bolalar mehnati yoki majburiy mehnat, kamsitilish, ish joyidagi zo'ravonlik va ta'qib, uyushmalarga uyushish va jamoaviy muzokaralar o'tkazish erkinligiga aralashish, nomaqbul mehnat sharoitlari yoki ishga yollashning noqonuniy usullarini o'z ichiga oladi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Sharoitdan kelib chiqqan holda, huquqlarni tiklash kechirim so'rash, yetkazilgan zararni tiklash, rehabilitatsiya, kompensatsiya (ham moliyaviy, ham moliyaviy bo'lmagan), sanksiyalar yoki jazolar va takrorlanishning oldini olish choralarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ayrim holatlarda mehnat huquqlarining buzilishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarib, shikoyatchining xohishiga ko'ra va mahalliy jinoyat qonunchiligi doirasida ko'rib chiqilishi kerak. Shikoyatchi tomonidan talab qilingan va imkoniyat bo'lgan har qanday holatda, Paxta yetishtiruvchi shikoyatchiga huquqiy himoya vositalaridan foydalanishda yordamlashishi darkor.

Huquqiy himoya vositasi bevosita Paxta yetishtiruvchi tomonidan taqdim etilmasligi mumkin, ammo murojaatlarni o'z vaqtida va tegishliligi bo'yicha yo'naltirish uchun choralar ko'rilishi lozim. Mavjud bo'lgan taqdirda, huquqiy himoya vositasi bilan ta'minlash uchun ishonchli tashkilotlar yoki tuzilmalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Qisqa va uzoq muddatli huquqiy himoya choralarining ikkalasi ham muhim ahamiyatga ega. Qisqa muddatli huquqiy himoyada e'tibor bevosita yetkazilgan zararni bartaraf etishga qaratiladi. Uzoq muddatli huquqiy himoyada esa asosiy e'tibor jabrlangan shaxsga uzoq istiqbolda ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni bartaraf etishga va huquqbuzarlik qayta takrorlanmasligini ta'minlash uchun profilaktika choralarining ko'rilishiga qaratiladi. Gender bilan bog'liq har qanday mehnat huquqlari buzilishi holatlarida Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi jalb qilinishi lozim.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[Ergon Associates kompaniyasi, Huquqlar tiklanishini tushunish \(2018 yil\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

[Ethical Trading Initiative \(ETI\) alyansi, ETI asosiy kodeksi \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 5.1.4

Ishchilar shikoyatlarni xolis, samarali va xavfsiz tarzda kiritish mumkin bo'lgan ishonch telefoni yoki boshqa mexanizmdan foydalanish imkoniyatiga ega. Mehnat huquqlari buzilishi holatlaridan jabrlangan har qanday shaxs yordam va himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega.

YFX

Maqsad - ishchilar shikoyatlarni xavfsiz tarzda kiritish va ular samarali hal qilinishini ta'minlash. Mehnat huquqlari buzilishi holatlaridan jabrlangan shaxslar o'ziga yetkazilgan zararining bartaraf etilishi va unga yechim topish jarayonini nazarda tutuvchi huquqiy himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi manfaatdor tomonlarga shikoyat kiritish imkonini berib, bu, jumladan, kamsitilish yoki adolatsiz ish sharoitlari tufayli salbiy ta'sirga uchrash holatlariga taalluqli bo'lishi mumkin. Barcha ishchilar (jumladan, ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslar) shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlaridan xavfsiz, maxfiy, xolis, bepul va ta'qib qilinishdan qo'rqmagan holda foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Samarali bo'lishi uchun mazkur mexanizm orqali kiritilgan shikoyatlar o'z vaqtida va qoniqarli tarzda hal etilishi ta'minlanishi darkor. Ishchilar anonim tarzda shikoyat qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Sharoitdan kelib chiqqan holda, huquqlarni tiklash kechirim so'rash, yetkazilgan zararni tiklash, rehabilitatsiya, kompensatsiya (ham moliyaviy, ham moliyaviy bo'lmagan), sanksiyalar yoki jazolar va takrorlanishning oldini olish choralarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ayrim holatlarda mehnat huquqlarining buzilishi jinoiy javobgarlikni keltirib chiqarib, shikoyatchining xohishiga ko'ra va mahalliy jinoyat qonunchiligi doirasida ko'rib chiqilishi kerak. Shikoyatchi tomonidan talab qilingan va imkoniyat bo'lgan har qanday holatda, Paxta yetishtiruvchi shikoyatchiga huquqiy himoya vositalaridan foydalanishda yordamlashishi darkor.

Shikoyat kiritishning mavjud mexanizmlari, shikoyat kiritish kanallari hamda huquqlarni tiklashning mavjud jarayonlaridan ular samarali va inklyuziv bo'lgan taqdirdagina foydalanish mumkin. Fermer xo'jaligidagi barcha ishchilar shikoyat kiritish mexanizmidan qay tarzda foydalanishni bilishi kerak. Gender bilan bog'liq har qanday mehnat huquqlari buzilish holatida Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi jalb qilinishi darkor.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

[BMTning Tadbirkorlik va inson huquqlari bo'yicha asosiy tamoyillari, 31-asosiy tamoyil \(2011-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

## 5.2-MEZON – Fermer va ishchilar o'z mehnat huquqlarini tushunishi

### 5.2.1

Gender tengligi

Fermer va ishchilar mehnatdagi asosiy tamoyil va huquqlarni tushunib, ularga quyidagilar kiradi:

- (i) Uyushmalarga birlashish va jamoaviy muzokaralar o'tkazish erkinligi;
- (ii) Xavfsiz va sog'lom mehnat muhiti;
- (iii) Kamsitilish, zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat va bolalar mehnatidan himoya qilish.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - munosib mehnatni targ'ib qilish yo'lidagi asosiy qadam sifatida, Paxta yetishtiruvchi barcha ishchilar ish joyidagi asosiy huquqlardan xabardor bo'lishini ta'minlashi. Ishchilar o'z huquqlaridan xabardor bo'lgach, ularni himoya qilishi va yordam so'rab yoki huquqiy himoya vositalariga murojaat qilishi mumkin.

Ishchilar o'z huquqlarini yaxshi tushunishini ta'minlash uchun Paxta yetishtiruvchilar treninglar, xabardorlikni oshirish va boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun mas'ul. Mehnat masalalari bilan shug'ullanadigan va fermer xo'jaligi ishchilarini qo'llab-quvvatlovchi boshqa mahalliy tashkilotlar, shuningdek, Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gyender qo'mitasi bilan hamkorlik qilish qat'iy tavsiya etiladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Mehnat sohasidagi asosiy tamoyil va huquqlar to'g'risidagi deklaratsiya \(1998 yilda qabul qilingan va 2022 yilda o'zgartirilgan\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

## 5.3-MEZON – Bolalar mehnatiga barham berilgani, bolalar va yosh ishchilar huquqlarining himoyalangani

### 5.3.1

Gender tengligi

Bolalar va yosh ishchilar XMTning 138 va 182-sonli konvensiyalariga muvofiq hamda 1-rasmda ko'rsatilganidek, faqat xavfsiz va yoshiga mos vazifalarni bajaradi.

DX  
O'FX  
YFX

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

**1-rasm.**

Yosh oralig'i	Ishning maqbul tabiati	Taqiqlangan (18 yoshgacha bo'lgan barcha bolalar uchun)
<p>15 – 17 (muayyan mamlakatlarda 14-17 yosh<sup>6</sup>)</p> <p>Agar davlatda ishga qabul qilishning minimal yoshi yuqoriroq bo'lsa, milliy darajada belgilangan minimal yosh qo'llanadi.</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Ish soatlari haftasiga ko'pi bilan 48 soatdan oshmaydi;</li> <li>Ish xavfsiz, yoshga mos, tegishli nazorat o'rnatilgan va tayyorgarlik ta'minlangan.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>Har qanday turdagi xavfli ish (o'z tabiati yoki ish bajariladigan sharoitga ko'ra 18 yoshga to'lmagan shaxslarning salomatligi, xavfsizligi yoki axloqiga zarar yetkazishi mumkin bo'lsa)<sup>7</sup>;</li> <li>Bola mehnatining eng yomon shakllari (shu jumladan qullikning barcha shakllari yoki qullikka o'xshash amaliyotlar, masalan, bola sotish va bola savdosi, qarzdorlik qulligi va qaramlik, zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat).</li> </ul>
<p>13-14 (muayyan mamlakatlarda 12-13 yosh<sup>8</sup>)</p>	<p>Agar milliy qonun yoki me'yoriy hujjatlarda ruxsat berilgan bo'lsa, yengil ishlarni bajarish mumkin, ammo bu ishlar:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>haftasiga 14 soatdan yoki qonun hujjatlarida belgilangan kunlik yoki haftalik maksimal ish soatlaridan oshishi mumkin emas (qaysi birida kamroq ko'rsatilgan bo'lsa);</li> <li>bolaning salomatligi yoki rivojlanishiga zarar yetkazishi mumkin emas (masalan, yetarli dam olish vaqti ta'minlanishi kerak);</li> <li>ta'lim jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin emas;</li> <li>barcha vazifalar kattalar nazorati ostida bajarilishi ta'minlanishi kerak.</li> </ul>	

<sup>6</sup> Ayrim mamlakatlarda ishga qabul qilish uchun minimal yosh 14 (15 yosh emas) va yengil ishlar uchun 12 yosh (13 yosh emas) qilib belgilanishi mumkin.

<sup>7</sup> Mahalliy yoki milliy me'yoriy hujjatlarda xavfli ishlar uchun maxsus shart-sharoitlar (yoki 18 yoshgacha bo'lgan ishchilar uchun sharoitlar) nazarda tutilgan bo'lsa, ularga rioya qilinishi kerak.

<sup>8</sup> Ayrim mamlakatlarda ishga qabul qilish uchun minimal yosh 14 (15 yosh emas) va yengil ishlar uchun 12 yosh (13 yosh emas) qilib belgilanishi mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



### 5.3- mezon bo'yicha ko'rsatma: Bolalar mehnati

Better Cotton tashabbusi fermer va hamkorlari bolalar mehnatiga barham berish va bolalar o'z shaxsiyati, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to'laqonli rivojlantirish uchun maksimal imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash tarafdori. Mazkur yondashuv XMTning 1973-yildagi Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyasi (138-son) va XMTning 1999-yildagi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi konvensiyasiga (182-son) mos keladi. XMT bolalar mehnatini "bolalarni bolaligidan, salohiyatidan va qadr-qimmatidan mahrum qiluvchi, jismoniy va aqliy rivojlanishiga zarar yetkazuvchi" ish deya ta'riflaydi. Bu – «bolalar uchun aqliy, jismoniy, ijtimoiy yoki axloqiy jihatdan xavfli va zararli; va/yoki ularning ta'lim olishiga to'sqinlik qiladigan" ish. Bolalar uy yoki fermer xo'jaligida yoki boshqa ish joylarida bolalar mehnatiga jalb qilinishi mumkin. Ko'plab sohalarda bo'lgani kabi, qishloq xo'jaligida ham bolalar mehnatining asosiy sabablari, ko'pincha, kambag'allik va ta'lim olish imkoniyatining yetarli emasligi bilan bog'liq. Bu sohadagi sa'y-harakatlar fermerlar turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan faoliyat bilan birga olib borilib, hukumatlar, mahalliy hamjamiyatlar yetakchilari hamda quyi tashkilotlar bilan hamkorlikni talab qiladi.

Bolalar paxtachilik fermer xo'jaliklarida bajaradigan hamma ishlar ham bolalar mehnati hisoblanmaydi va, ko'p holatlarda, bolalar o'z oilasiga muhim yordam ko'rsatib, dehqonchilik ko'nikmalarini o'rganadi. Biroq fermer va ishchilar bundagi farqni aniq tushunishi muhim bo'lib, bolalar ularning salomatligi zarar yetkazmaydigan yoki ta'lim olish jarayoniga to'sqinlik qilmaydigan xavfsiz va yoshiga mos ishlarni nazorat ostida bajarishi kerak.

Qizlar bolalar mehnatiga jalb qilingan holatlarni aniqlash qiyinroq bo'lishi mumkin, negaki ularning mehnati, ko'pincha, uy yoki tomorqa xo'jaligida amalga oshiriladi. Qishloq joylarda uy ishlarini bajarishi va turmushga berish uchun qiz bolalarni maktabdan o'g'il bolalarga qaraganda ertaroq olib qo'yishgani bois qizlarning savodxonligi va malakasiga salbiy ta'sir o'tkaziladi. Ushbu muammoni hal qilish jarayonida Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi ishtirok etishi dardor.

Xavfli ish: Xavfli ishlar qishloq xo'jaligida ishlatiladigan kimyoviy moddalar, pestitsidlar va o'g'itlarni qo'llash, xavfli asbob-uskunalaridan (masalan, o'tkir tig'li asboblar) foydalanish, og'ir material yoki yuklarni ko'tarish, ko'chirish, uzoq vaqt yoki ekstremal ob-havo sharoitlarida bajariladigan va hokazo shu kabi ishlar kiradi. Yosh ishchi tomonidan bajariladigan har qanday ish kattalar tomonidan nazorat qilinishi kerak. XMTning 182-sonli Konvensiyasi barcha davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingani bois XMTga a'zo barcha davlatlar bolalar bajara olmaydigan xavfli ishlar ro'yxatini belgilab olishi shart.

Bolalar mehnatining eng yomon shakllari: Bolalar mehnatining XMT tomonidan belgilangan eng yomon shakllariga quyidagilar kiradi:

- (a) Qullikning barcha shakllari yoki qullikka o'xshash amaliyotlar, masalan, bolani sotish va bola savdosi, qarzdorlik qulligi va qaramlik, zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat, shu jumladan, qurolli mojaralarda foydalanish uchun bolalarni zo'rlab yoki majburiy jalb qilish;
- (b) O'z tabiati yoki bajariladigan sharoitga ko'ra bolalarning salomatligi, xavfsizligi yoki axloqiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ish.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMTning 1973-yildagi Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi konvensiyasi \(138-son\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\)](#)

[XMTning 1999-yildagi Bolalar mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi konvensiyasi \(182-son\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\)](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 5.4-MEZON – Majburiy mehnatga barham berilgani, ishchilar ixtiyoriy tarzda ishga yollanishi

### 5.4- mezon bo'yicha ko'rsatma: Majburiy mehnat:

XMTning 1930-yilgi Majburiy mehnat to'g'risidagi (29-son) konvensiyasining 2.1-moddasiga muvofiq, majburiy mehnatga “har qanday shaxsdan biron-bir jazo tahdidi ostida bajarish talab etiladigan ish yoki xizmat turi bo'lib, bunda ushbu shaxs mazkur ish yoki xizmatni bajarish uchun o'zini ixtiyoriy asosda taklif qilmaydi” deb ta'rif berilgan. Ushbu ikkita asosiy o'lcham - jazo tahdidi va ishning ixtiyoriy emasligi - ushbu Mezon doirasidagi to'rtta Ko'rsatkichda aks ettirilgan. Ular XMTning majburiy mehnatga doir 11 ta ko'rsatkichiga mos kelib, asosiy e'tibor paxta yetishtirish sharoitida eng keng tarqalgan xavf omillariga qaratilgan. 5.4-mezon doirasidagi har bir ko'rsatkich XMTning majburiy mehnatga doir 11 ta ko'rsatkichi bilan taqqoslanadi.

Majburiy mehnat bilan bog'liq potensial xavf-xatarlar aniqlangan taqdirda, ularga qarshi zudlik bilan chora ko'rilishi va ular qayta paydo bo'lishining oldini olish uchun tuzatish choralarini ko'rilishi kerak. Majburiy mehnat holatlari aniqlangan taqdirda, Paxta yetishtiruvchi huquqiy himoya vositalaridan xavfsiz foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart (5.1-mezonga muvofiq).

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

XMT, Majburiy mehnatga doir ko'rsatkichlar

### 5.4.1

Ishchilar quyidagilarni tushungan holda, ularga ixtiyoriy ravishda rozilik beradi:

- (i) Ishni boshlashdan avvalgi ish shartlariga (og'zaki yoki yozma kelishuvlar orqali);
- (ii) Ish sharoitlari yoki mohiyatidagi har qanday o'zgarishlarga (masalan, ish vaqtdan tashqari paytda bajariladigan ish).

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad – ishchilarni ixtiyoriy ravishda va adolatli tarzda ishga qabul qilish hamda ular mehnat sharoitlari borasida aldanib qolmasligini ta'minlash.

Aldash, deganda ish beruvchi dastlab kelishilgan shartlarni bajarmasligi yoki shartlarni ishchining roziligisiz o'zgartirishi bilan bog'liq yolg'on va'dalar tushuniladi. Yolg'on va'da asosida ishga yollash amaliyoti yoki ish vaqti, ish haqi to'lash shartlari, ish mohiyati, vazifalar yoki boshqa shartlarni ishchining roziligisiz o'zgartirish - XMTning majburiy mehnatga doir 11 ta ko'rsatkichidan biri hisoblanadi.

Barcha ishchilar mehnatning shart-sharoitlarini ishni boshlashdan avval aniq tushunishi va ularga ixtiyoriy tarzda rozilik berish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bunga o'rindoshlik

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning [“Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik”](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda “fermerlar” va “ishchilar” tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

asosida ishlayotgan har qanday ishchi, masalan, oila a'zosi o'rnida mehnat qilayotganlar ham kiradi. Ideal holatda, bu shartlar yozma (yoki rasmga ko'rinishidagi) kelishuv yoki shartnoma orqali belgilanishi kerak (shuningdek, 5.10-mezonga qarang). Agar buni amalga oshirish imkoniyati bo'lmasa, ular og'zaki kelishuv orqali tushuntirilishi mumkin. Yozma yoki og'zaki ko'rinishda bo'lishidan qat'i nazar, shartnoma ishchi tushunadigan tilda bo'lishi kerak. Ish soatlari yoki maosh to'lash jadvallari kabi shartlarga keyinchalik kiritiladigan o'zgarishlar ham ishchilar e'tiboriga yetkazilib, ular bilan kelishilishi kerak kerak.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Majburiy mehnatga doir ko'rsatkichlar: aldash, ishchining himoyasiz holatini suiiste'mol qilish \(2012-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

#### 5.4.2

Ish beruvchi yoki boshqa uchinchi tomon ishga yollash uchun to'lov yoki boshqa tegishli xarajatlarni ishchilardan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita (masalan, ish haqi va nafaqalardan ushlab qolish yo'li bilan) undirmaydi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad – ishchilar ishga joylashish uchun ish beruvchilar yoki boshqa uchinchi tomonlarga to'lov to'lash natijasida ularning oldida qarzdor bo'lib qolish ehtimolini kamaytirish orqali ixtiyoriy va adolatli tarzda ishga yollash jarayonini ta'minlash.

Ishga joylashish uchun to'lov qilgan ishchi ish beruvchi yoki ishga yollovchi oldida qarzdor bo'lib qolish ehtimoli yuqoriroq bo'lishi oqibatida, ishchi ishdan ketishi qiyinlashib, natijada, majburiy yoki qarzdorlik asosidagi mehnat xavfi oshadi.

Ishga yollash uchun undiriladigan to'lov deganda to'lovni bo'lajak ishchining zimmasiga yuklash yoki undirish usuli, muddati yoki joyidan qat'i nazar, ishchini ish bilan ta'minlash yoki ishga joylashtirish jarayonidagi har qanday to'lov yoki xarajat tushuniladi. Qo'shimcha xarajatlar, jumladan, yo'l haqi, turar joy, jihozlar yoki ma'muriy xarajatlarni qamrab olishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Majburiy mehnatga doir ko'rsatkichlar: ishchining himoyasiz holatini suiiste'mol qilish \(2012 yil\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

[XMT, Adolatli tarzda ishga yollash bo'yicha umumiy tamoyil va amaliy ko'rsatmalar hamda ishga yollash uchun to'lov va qo'shimcha xarajatlar ta'rifi \(2019 yil\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 5.4.3

Gender tengligi

Ishchilar butun ish davri davomida, ya'ni ishga qabul qilingandan boshlab, to shartnoma bekor bo'lgunga qadar hech qanday tahdid yoki jazolash tahdidiga duch kelmaydi. Bunday tahdidlar sirasiga, jumladan, ish haqi yoki hujjatlarni ushlab turish, harakatlanishni cheklash yoki zo'ravonlik ishlatish tahdidi kabilar kiradi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad – ishchilarni ixtiyoriy asosda va adolatli tarzda ish bilan ta'minlash hamda ularning ishdan ketishini cheklashi mumkin bo'lgan tahdid yoki boshqa jazo turlariga yo'l qo'ymaslik.

Tahdidga yoki qo'rqitishga uchragan ishchilar mehnat sharoitlari to'g'risida shikoyat qila olmasligi, sharoitlarni yaxshilashni talab qila olmasligi yoki ishdan bo'shab keta olmasligi mumkin. Jismoniy va jinsiy zo'ravonlik qo'rqitish taktikalaridan biri bo'lib, majburiy mehnatning yaqqol ko'rsatkichi hisoblanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va ishchilar tahdid va majburlash nishoniga aylanish ehtimoli yuqoriroq. Hujjatlarni ushlab turish - pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lsa, shaxsiy buyumlarni ushlab turish boshqa jazo turiga kiradi. Ishchilar, shuningdek, fermer xo'jaligi yoki ish joyini ixtiyoriy tarzda jismoniy, moliyaviy yoki ruhiy cheklovlarisiz tark eta olishi kerak.

Ushbu Ko'rsatkich majburiy mehnat Mezoni doirasida bo'lgani sababli, unda ixtiyoriy bo'lmagan mehnat sharoitidagi tahdidlar yoki jazolanishdan qo'rqishga alohida e'tibor qaratiladi. Tahdid va jazolanishdan qo'rqish holatining borligi doim ham majburiy mehnatga ishora qilmasligi, lekin ta'qibga tenglashtirilishi mumkinligiga e'tibor qarating (5.9.1-ko'rsatkichda yoritilgan).

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Majburiy mehnatga doir ko'rsatkichlar: harakatlanishni cheklash, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni ushlab turish, ish haqini ushlab turish, jismoniy va jinsiy zo'ravonlik, qo'rqitish va tahdidlar, nomaqbul mehnat va yashash sharoitlari \(2012-yil\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 5.4.4

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ishchilar og'zaki yoki yozma kelishuvlarga muvofiq ishdan ixtiyoriy asosda bo'shash imkoniyatiga ega.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad – ishchilar ixtiyoriy va adolatli tarzda ishga joylashishi va tuzilgan og'zaki yoki yozma kelishuvlarga (ya'ni, ogohlantirish muddati bilan) muvofiq har qanday sharoitda ishdan ixtiyoriy tarzda bo'shashi mumkinligini ta'minlash.

Agar ishchilar ishdan ixtiyoriy asosda bo'shash imkoniyatiga ega bo'lmasa, bu, ko'pincha, majburiy mehnatning yaqqol ko'rsatkichi bo'ladi. Ishchilarga ish beruvchi yoki uchinchi tomon oldidagi qarzni uzish yoki boshqa sabablarga ko'ra ishlab berish majburiyati yuklanishi mumkin emas. Qarzdorlik asosidagi qullik qishloq xo'jaligidagi ishchilarga ham taalluqli bo'lib, bunda ish beruvchi ishchiga o'zining oldidagi qarzini uzishi uchun ishlab berish majburiyatini yuklash orqali manipulyatsiya qiladi yoki qarz miqdorini oshirib boradi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Majburiy mehnatga doir ko'rsatkichlar: harakatlanishni cheklash, izolyatsiya, qarzdorlik asosidagi qullik \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

## 5.5-MEZON – Fermer va ishchilar uyushmalarga birlashish va jamoaviy muzokaralar olib borish erkinligi huquqiga ega bo'lishi

### 5.5.1

Fermer va ishchilar tashkilotlar tuzish yoki o'zlari tanlagan tashkilotga qo'shilish hamda tashqaridan aralashish va tahdidlarsiz jamoaviy muzokaralar olib borish huquqiga egaligi to'g'risida xabardor qilingan.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - barcha fermer va ishchilar o'z huquqlarini ilgari surish va himoya qilish uchun avvaldan ruxsat olmasdan tashkilot tuzish yoki biron tashkilotga qo'shilish huquqiga ega bo'lishini ta'minlash. Bunday tashkilotlar erkin va mustaqil tarzda faoliyat yuritishiga imkon berilishi kerak.

Samarali jamoaviy muzokaralar asosida kelishilgan barcha shartlarga har ikki tomon rioya qiladi.

«Jamoaviy muzokaralar», deganda fermerlar yoki ishchilar guruhi (yoki fermerlar yoki ishchilar tashkilotlari) bilan bir yoki bir nechta ish beruvchi/konsessiya/klaster yoki ularning tashkiloti o'rtasidagi barcha muzokaralar tushuniladi. Bunday muzokaralar bir nechta maqsadlarga, shu jumladan, mehnat sharoitlari, mehnat shartlari (masalan, ish haqi, ish vaqti, o'qitish, teng munosabat va texnika xavfsizligi va mehnat gigiyenasi) va / yoki narxlarga (fermerlarga taalluqli) qaratilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, muzokaralarda har ikki tomon o'rtasidagi munosabatlar, shu jumladan, nizolarni hal qilish qoidalari va tartib-taomillari kelishib olinishi mumkin.

Ishchilar tashkilotlari, shuningdek, uyushmalar yoki boshqa tuzilmalar shaklida bo'lishi mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Birlashmalar erkinligi va birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi konvensiya, 1948 yil \(87-son\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

[XMT, Jamoaviy muzokaralarni olib borish to'g'risidagi konvensiya, 1981-yil \(154-son\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

## 5.5.2

Tashkilot tuzish, ularga qo'shilish yoki jamoaviy muzokaralar olib borish bilan bog'liq holatlarda ishchilarga nisbatan hech qanday aralashuv, kamsitish yoki ta'qiblarga yo'l qo'yilmaydi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad – ishchilarning ishchilar tashkilotlari faoliyati va (yoki) jamoaviy muzokarlarda erkin va xavfsiz ishtirokini ta'minlash. Ishchilar bunday ishtirok natijasidagi adolatsiz va salbiy oqibatlardan himoyalangan bo'lishi kerak. Paxta yetishtiruvchi ishchilar tomonidan ularning birlashish va/yoki jamoaviy muzokaralar olib borish erkinliklariga to'sqinlik qiladi deb hisoblanadigan ochiq yoki yashirin faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin emas.

Ishchilar tashkilotlarining faoliyati o'z nizom va qoidalarini ishlab chiqish, o'z vakillarini erkin saylash, tashkilot boshqaruvini tashkil etish va dasturlarini ishlab chiqish, shu jumladan, yig'ilishlar va kampaniyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday faoliyatga aralashish ishchilarga tashkilotga qo'shilmaslik uchun rag'batlantirish taklif qilish/pora berish, ishchilarni tashkilot a'zolidan chiqishga yoki qo'shilishni rad etishga majburlash hamda ishchilar tashkilotining yig'ilishlari yoki saylovlar paytidagi kuzatuv ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ishchilarni tashkilotdagi ishtiroki bilan bog'liq holda kamsitish va ta'qib qilish, deganda haddan tashqari qat'iy jazo choralari, masalan, shartnomaning bekor qilinishi, majburiy tarzda boshqa ishga o'tkazish yoki boshqa majburlovchi harakatlar, jarima qo'llash tahdidi va amalda jarimaga tortish (ya'ni, ish haqining kamaytirilishi yoki ish vaqtidan tashqari paytda haddan tashqari ko'p ishlatish) nazarda tutiladi.

Ishchilar tashkilotlarining milliy yoki xalqaro federatsiya va konfederatsiyalarga qo'shilish huquqi hamda ular orqali olib borilgan muzokaralar natijasida kelishilgan jamoaviy muzokaralar shartlariga rioya qilish huquqi qo'llab-quvvatlanadi va e'tirof etiladi. Mahalliy qonunlarga muvofiq ishchilar tashkilotlari faoliyati taqiqlangan mamlakatlarda Paxta yetishtiruvchilar ishchilar tashqi aralashuv, kamsitilish yoki ta'qib qilinishdan qo'rqmagan holda o'z vakilligining muqobil vositalarini izlash imkoniyatini ta'minlash

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

uchun javobgar. Ishchilar vakilligining ushbu muqobil vositalari mahalliy qonunlarga rioya qilinishini ta'minlash barobarida, ishchilarga ish beruvchi bilan samarali muloqot mexanizmiga ega bo'lish imkonini yaratishi lozim.

## 5.6-MEZON – Mehnat amaliyotida hech qanday kamsitish yo'qligi

### 5.6.1

Gender tengligi

Mehnat amaliyotida, shu jumladan, ishga olish, vazifalarni bajarish, ish haqi, ta'lim va tayyorgarlik, lavozimda ko'tarilish, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki nafaqaga chiqishda hech qanday kamsitish yo'q.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - barcha ishchilarga nisbatan hech qanday kamsitilishsiz teng munosabat qilinishini ta'minlash.

Bu – ishdagi ko'rsatkichlar yoki talablarga bog'liq bo'lmagan har qanday xususiyat asosidagi kamsitish. Bu, shu jumladan, ishchining gender o'ziga xosligi yoki jinsiy xususiyatlari, jinsiy oriyentatsiyasi, yoshi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, irqi, sinfi, tabaqasi, ijtimoiy mavqei, dini, e'tiqodi, qobiliyatlari va nogironlik holati, salomatligi, siyosiy mansubligi, siyosiy qarashlari, kasaba uyushmasi yoki boshqa ishchilar tashkilotiga a'zoligi, oilaviy holati yoki homiladorlik bilan bog'liq (shu, jumladan majburiy homiladorlik testlari) bo'lgan va hokazo kamsitishlarni o'z ichiga oladi. Kamsitish, shuningdek, bajarilgan bir xil ish uchun (ya'ni, teng hajmdagi ish) to'lanadigan ish haqining pastligida, to'lov shartlarida, masalan, ish haqini erkak hamkasblar (er, ota va boshqalar) yoki boshqa uchinchi tomonlar orqali to'lashda, mehnat sharoitlari va imtiyozlar, ta'lim olish imkoniyati, ish joylariga kirish imkoniyati va boshqa holatlarda kuzatilishi mumkin.

Barcha ishchilar ehtimoldagi kamsitish holatlari bo'yicha 5.1-mezonga muvofiq shikoyat qilish mexanizmi orqali shikoyat kiritishi mumkinligini tushunishi kerak. Paxta yetishtiruvchilar barcha ishchilarga kamsitishga yo'l qo'ymaslik to'g'risidagi xulq-atvor kodeksini og'zaki yoki yozma ko'rinishda taqdim etishi tavsiya etiladi.

Ushbu Ko'rsatkich doirasida, shuningdek, ishdagi ko'rsatkichlar yoki talablarga bog'liq bo'lmagan har qanday xususiyatdan qat'i nazar, teng ish uchun teng haq to'lanishi lozimligi belgilanadi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## 5.7-MEZON – Ishchilarga kamida eng kam ish haqi miqdorida haq to'lanishi

### 5.7.1

Gender tengligi

Ishchilarga qonunchilikda qishloq xo'jaligi sohasiga nisbatan belgilangan milliy yoki mintaqaviy darajadagi eng kam ish haqi yoki jamoaviy muzokaralar orqali kelishilgan miqdordagi ish haqi to'lanadi. Ish haqi adolatli tarzda va o'z vaqtida to'lab boriladi.

O'FX  
YFX

Maqsad - barcha ishchilar munosib hayot kechirishiga ko'maklashish, ishchilarga, kamida, mahalliy darajadagi eng kam ish haqi yoki unga tenglashtirilgan miqdordagi ish haqi to'lanishini ta'minlash. Eng kam ish haqi ko'p holatlarda hali ham munosib turmush darajasini kafolatlash uchun yetarli emasligi yaxshi ma'lum. Uzoq muddatli maqsad - ishchilar turmush xarajatlarini qoplaydigan miqdorda ish haqi olishiga ko'maklashish (Better Cotton tashabbusining turmush xarajatlarini qoplaydigan miqdordagi eng kam daromad, kun kechirish uchun zarur bo'lgan eng kam ish haqi va daromad manbalariga nisbatan yondashuvi to'g'risida ko'proq ma'lumot olish uchun [www.bettercotton.org](http://www.bettercotton.org) saytiga tashrif buyuring).

Birinchi qadam sifatida, ushbu talab ish haqi bilan bog'liq shaffoflikni oshirish va joriy ish haqi bilan turmush xarajatlarini qoplaydigan miqdordagi eng kam ish haqi o'rtasidagi tafovutni aniqlashga qaratilgan bo'lib, natijada, mazkur tafovutni bartaraf qilish uchun jamoaviy choralar ko'rilishi mumkin.

Eng kam ish haqi qishloq xo'jaligi sohasiga nisbatan belgilangan milliy yoki mintaqaviy darajadagi eng kam ish haqi yoki jamoaviy muzokaralar orqali kelishilgan miqdordagi ish haqi orqali belgilanadi. Agar ulardan hech biri mavjud bo'lmasa, shunga o'xshash ishlar uchun mahalliy darajada o'rnatilgan maosh eng kam ish haqi sifatida qabul qilinadi.

Ishchilarga ishbay haq to'langan taqdirda, ish haqi odatiy ish vaqtida va normal ish sharoitlarida (masalan, ishchining sog'ligini himoya qilish uchun yetarli bo'lgan tanaffuslar bilan) kamida eng kam ish haqi ekvivalentida bo'lishi kerak. Odatiy ish sharoitlarida, hech bo'lmaganda, eng kam ish haqining ekvivalenti miqdorida haq olish uchun ishchilardan ish vaqtdan tashqarida ishlash talab etilishi mumkin emas.

Ish haqi ishchi bilan kelishilgan shartlarga asosan (5.4.1-ko'rsatkichga muvofiq) bajarilgan ish uchun o'z vaqtida va to'liq to'lanishi kerak.

Ish haqini hisoblashda (eng kam ish haqi bilan solishtirish uchun) har qanday chegirmalar istisno qilinishi kerak. 5.6.1- ko'rsatkichga ko'ra, ishchilar teng ish uchun teng haq olishi kerak.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



## 5.7.2

Gender tengligi

Ishchilarga kamida eng kam ish haqi miqdorida maosh to'lanadi yoki mahalliy darajada o'rnatilgan maosh eng kam ish haqidan past bo'lsa, Paxta yetishtiruvchi o'rtacha ish haqini hisobga olish tizimini joriy etib, vaqt o'tishi bilan ish haqini oshirish choralarini ko'radi.

DX

Maqsad - ish haqi bilan bog'liq minimal umidlarni mahalliy qonunchilikka asoslangan holda o'rnatish orqali ishchilarga munosib kun kechirish uchun yetarli miqdorda pul ishlab topishda ko'maklashish. Biroq bunda ishchilarning ish haqini oshirishdan avval dehqon xo'jaliklarining o'zi munosib daromad manbalariga ega bo'lishi kerakligi e'tirof etiladi. Qishloq xo'jaligi ishlari uchun to'lanadigan ish haqi o'rnatilgan eng kam ish haqi miqdoridan kam bo'lgan holatlarda, fermerlar qo'shimcha daromad olmaguncha ko'proq ish haqi to'lay olmaydi. Bunday vaziyatlarda ICHB ishchilar orasidan olingan tanlanma asosida o'rtacha ish haqini hisobga olish tizimini joriy etib, vaqt o'tishi bilan uni oshirish choralarini ko'rishi talab etiladi.

Bunda butun ICHB ishchilarining ish haqlarini alohida qayd etish shart emas, ammo ICHBda eng keng tarqalgan vazifalar va ish turlari bilan shug'ullanadigan ishchilar tanlanmasi, masalan, yig'im-terim bilan shug'ullanadigan vaqtinchalik ishchilar, purkash bilan shug'ullanadigan mavsumiy ishchilar va boshqalarning o'rtacha ish haqini kuzatish va qayd etish tizimi joriy etilgan bo'lishi kerak. Ishchilar tanlanmasi ayollar va ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarni o'z ichiga olishi kerak. Agar ish haqi naqd puldan boshqa to'lash shakllarini (ya'ni, naturada) o'z ichiga olgan bo'lsa, bu farq ish haqi bo'yicha tanlanma olishda aniq aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ish haqini oshirishga qaratilgan choralar ishchilarning huquqlari hamda eng kam ish haqi to'g'risidagi bilim va xabardorlikni mustahkamlash, daromad yaratish va daromad manbalariga bag'ishlangan loyihalarni qo'llab-quvvatlash (6-tamoyilga muvofiq) va/yoki ham fermerlar, ham ishchilar uchun ko'proq daromadni ta'minlash maqsadida, hukumat yoki qiymat zanjiridagi boshqa ishtirokchilar bilan hamkorlikni o'z ichiga olishi mumkin.

## 5.8-MEZON - Ishchilar sog'ligi va xavfsizligi himoyalaniishi

### 5.8.1

Gender tengligi

Ishchilarga ish joyi yaqinida shaxsiy gigiyena maqsadlari uchun yetarli vaqt va alohida ajratilgan joylar taqdim etiladi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad – ishchilar ish vaqtida gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash bo'lib, bu sog'lik va qadr-qimmat uchun muhimdir.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ko'pgina qishloq xo'jaligi obyektlarida fermer va ishchilar toza suv, hojatxona va qo'l yuvish vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Ushbu muammoni hal qilish hukumatlar va mahalliy aholi bilan hamkorlik hamda moliyaviy mablag'lardan foydalanish imkoniyatini talab qiladi.

Ushbu yo'nalishdagi qadam sifatida, mazkur Ko'rsatkichda asosiy e'tibor, muayyan sharoit yoki obyektlar darajasidan qat'i nazar, ishchilar, hech bo'lmaganda, shaxsiy gigiyena uchun yetarli vaqt va alohida ajratilgan joylarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan. Imkoniyat bo'lsa, hojatxona yoki yuvinish xonalari tashkil etilishi kerak. Har qanday holatda ham ishchilarga ularning sog'ligi, qulayligi yoki xavfsizligiga zarar yetkazmagan holda, tana ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli vaqt va alohida ajratilgan joylar taqdim etilishi kerak. Umuman olganda, sanitariya-gigiyena vositalaridan foydalanish imkoniyati qulay, masalan, ish joyidan 100 metr masofada bo'lishi kerak.

Ayollarning shaxsiy gigiyena ehtiyojlariga, ayniqsa hayz ko'rish, homiladorlik yoki emizish paytida alohida e'tibor berilishi kerak. Xotin-qizlar begonalardan himoyalangan joyga ega bo'lishini ta'minlash va ta'qib yoki tajovuz xavfini kamaytirish uchun ular toza, funksional va jins asosida ajratilgan (ideal holatda, qulflanadigan) joydan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

## 5.8.2

## Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish

Ishchilarga muntazam ravishda tanaffuslar berilib, bu vaqtda ular ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Tananing suvsizlanishi, quyosh urishi va ular bilan bog'liq kasalliklar xavfi mavjud bo'lgan joylarda mazkur muammolarning oldini olish va hal qilish uchun soya joyga o'tish ta'minlanadi va boshqa choralar ko'riladi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - ishchilarning sog'ligini himoya qilish va tananing suvsizlanishi, quyosh urishi va ular bilan bog'liq kasalliklar xavfini kamaytirish.

Qishloq xo'jaligida band bo'lgan ishchilar muntazam ravishda og'ir mehnat va yuqori harorat ta'siriga duchor bo'lib, bu - inson salomatligi va mehnat unumdorligiga ta'sir qiladi. Muntazam tanaffuslar va suv ichish sog'liqqa nisbatan bo'lgan xavflarni minimallashtirish uchun zarur. Jiddiy oqibatlar xavfi yuqori bo'lgan ishchilarga, masalan, SHHVdan foydalanadigan, yosh yoki keksa ishchilar, homilador yoki emizikli ayollarga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Tanaffuslar daromadga potensial ta'sir ko'rsatishi sababli ish paytida ularga vaqt ajratishni istamaydigan ishbay asosida ishlaydigan ishchilar orasida targ'ib qilinishi kerak.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

XMTning Qishloq xo'jaligida texnika xavfsizligi va mehnat gigiyenasini ta'minlash bo'yicha amaliy qoidalar kodeksiga muvofiq, kunlik va haftalik ish vaqtiga quyidagilar kiritilishi kerak:

- (a) Ishchilar o'z xushyorligi va jismoniy tayyorgarligini tiklashi uchun ish vaqtida, xususan, og'ir, xavfli yoki monoton mehnat davomidagi qisqa muddatli tanaffuslar;
- (b) Ovqatlanish uchun yetarli tanaffuslar.

Issiqlik stressi yoki issiqlik bilan bog'liq kasallik alomatlariga charchoq, bosh aylanishi, bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, ortiqcha terlash, rang oqarishi, nafas olish yoki yurak urishining tezlashishi, yuqori harorat yoki kuchli tashnalik kabilar kiradi. Ishchilar bu alomatlarni tushunishi va issiqlik stressi sog'lik uchun uzoq muddatli xavflarni tug'dirishi mumkinligini bilishi kerak. Ishchilarni issiqlik stressidan himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarga, masalan, ish vaqtining ertaroq boshlanishi, dam olish uchun tez-tez tanaffus berish, quyoshdan himoyalaniish va suv ichishni ko'paytirish kirishi mumkin.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Qishloq xo'jaligida texnika xavfsizligi va mehnat gigiyenasini ta'minlash bo'yicha amaliy qoidalar kodeksi \(2011 yil\) \(2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra\).](#)

### 5.8.3

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish

Xavfsizlik va salomatlik uchun xavflar aniqlanib, ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi (shu jumladan fermerlar, ishchilar va tegishli rahbarlar uchun treninglar).

Baxtsiz hodisalar yoki jarohat olish holatlari yuz bersa, tibbiy yordam ko'rsatilib, bunday holatlar takrorlanishning oldini olish choralari ko'riladi.

**DX**  
**O'FX**  
**YFX**

Maqsad - salomatlik va xavfsizlikka nisbatan bo'lgan potensial xavflarni faol bartaraf etish va har qanday jarohat olish holatida tegishli g'amxo'rlik ko'rsatish orqali paxtachilik fermalarida ishlaydigan ishchilarni xavfsiz va sog'lom mehnat muhiti bilan ta'minlash.

Texnika xavfsizligi va mehnat gigiyenasi (TXMG), XMT tomonidan ta'rif berilganidek, mehnat sohasidagi asosiy tamoyil va huquqlardan biri. Fermerlar yoki ish beruvchilar xavfsiz va sog'lom mehnat muhitini ta'minlash, ishlab chiqarishdagi shikastlanish, kasbiy kasalliklar va o'lim holatlarining oldini olish uchun mas'uldir.

Birinchi qadam TXMG bilan bog'liq xavf-xatarlarni baholash va, iloji bo'lsa, ularni bartaraf etish yoki oldini olishdan iborat bo'lishi kerak. Paxtachilik fermalarida bular, odatda, xavfli

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

pestitsidlar, o'tkir tig'li asboblarda, og'ir texnika, yuqori harorat va og'ir mehnat bilan bog'liq ishlarni o'z ichiga oladi. Agar xavf-xatarni bartaraf etishning iloji bo'lmasa, ularning ta'siri, shu jumladan, ma'lumot berish, o'qitish va himoya choralarini joriy etish orqali minimallashtirilishi kerak (masalan, 3.5-mezonga muvofiq, SHHVdan foydalanish). Paxta yetishtiruvchilarga baxtsiz hodisalar va jarohat olish holatlari hisobini yuritish, baxtsiz hodisalar yuz beradigan tizimli xavfli yo'nalishlarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lish tavsiya yetiladi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ishchilar, shu jumladan homilador va emizikli ayollar, nogironligi bo'lgan ishchilar, yosh yoki keksa ishchilar, mehnat migrantlari yoki etnik ozchilik vakillari bilan bog'liq xavf yoki xavflarni bartaraf etishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Ishchilar yoki ishchilar vakillari o'zining TXMG sohasidagi huquqlaridan xabardor bo'lishi lozim. TXMGning barcha jihatlari bo'yicha ular bilan maslahatlashilishi kerak. Eng ilg'or amaliyotga asoslangan yondashuv TXMG xavf-xatarlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ulashadigan va ularni bartaraf etishining eng yaxshi usullari bo'yicha qaror qabul qiladigan ishchilar va rahbariyat vakillaridan tarkib topgan qo'mita tuzishni o'z ichiga oladi.

Qo'shimcha ma'lumot uchun:

[XMT, Texnika xavfsizligi va mehnat gigiyenasi to'g'risidagi konvensiya, 1981-yil \(155-son\) \(2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra\).](#)

## 5.9-MEZON – Ishchilar zo'raonlik va ta'qibdan xoli bo'lgan, adolat tamoyillariga asoslangan ish joyida mehnat qilish huquqiga ega bo'lishi

### 5.9.1

Gender tengligi

Ishchilar ishga qabul qilinishdan tortib, to mehnat shartnomasi bekor bo'lgunga qadar bo'lgan butun ish davri davomida zo'raonlik va ta'qiblardan xoli ish joyiga ega bo'lish huquqiga ega.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - ishchilarga nisbatan hurmat va qadr-qimmat bilan munosabat ko'rsatilishini, ular ish joyida zo'raonlik yoki ta'qibdan aziyat chekmasligini ta'minlash.

Barcha fermerlar va ish beruvchilarga ishchilarni hurmat qilish madaniyatiga ega bo'lish tavsiya etiladi. Mehnat sohasidagi "zo'raonlik va ta'qib" atamasi jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy zarar yetkazishga qaratilgan yoki shunga olib kelishi mumkin bo'lgan bir qator nomaqbul xatti-harakatlar, amaliyotlar yoki tahdidlarni anglatadi. Bular gender zo'raonligi va ta'qib holatlarini qamrab olib, ularga, xususan, jinsi tufayli muayyan

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

shaxslarga qaratilgan yoki muayyan jinsdagi shaxslarga nomutanosib ravishda ta'sir qiladigan zo'ravonlik yoki ta'qib holatlari (jumladan, jinsiy zo'ravonlik) kiradi.

Xotin-qizlar ish paytida zo'ravonlik va ta'qib holatlariga duchor bo'lishi mumkin. Xotin-qizlardan iborat ishchilari soni ko'p bo'lgan fermer xo'jaliklarida zo'ravonlik va ta'qib bilan bog'liq har qanday muammoning oldini olish, nazorat qilish va bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishni kutilmoqda. Bu samarali mehnat monitoringi tizimlari, shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari va huquqiy himoya vositalari (5.1-mezonga muvofiq), shuningdek, 1.5-mezonda ko'zda tutilgan gender masalalari bo'yicha maslahatlashuvlar va amalga oshirish choralari bilan bog'liq.

## 5.9.2

Har qanday intizomiy choralar ko'rib chiqilayotgan xatti-harakatlarga mutanosib bo'lib, amaldagi tizim adolatli ogohlantirish tamoyillarini ko'zda tutadi.

DX  
O'FX  
YFX

Maqsad - fermer xo'jaliklarida adolatli intizomiy tartib-qoidalar bo'lishini ta'minlash. Ular nafaqat ishchilarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish, balki mahsuldor va uyg'un munosabatlar hukm suradigan ish joyini yaratishga yordam beradi. Intizomiy choralar xatti-harakatlarga mutanosib bo'lishi va ishchilar tomonidan yaxshi tushunilishi kerak. Intizomiy choralar, ayniqsa, kam haq to'lanadigan ishchilarning ish haqidan ushlab qolishdan iborat bo'lishi mumkin emas, negaki bu ularning daromad manbalariga nomutanosib ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## 5.10-MEZON – Ishchilar ish bilan bog'liq aniq kelishuvlar va kutilmalarga ega ekani

### 5.10.1

Doimiy va mavsumiy ishchilar yozma shartnoma tuzish huquqi to'g'risida xabardor qilingan. Ishchining talabiga ko'ra (yoki qonunchilikka muvofiq shartnoma tuzish talab qilinsa), tegishli yozma shartnomalar taqdim etiladi.

O'FX  
YFX \*

Maqsad - aniq va hujjatlashtirilgan mehnat shartlarini ta'minlashga yordam berish orqali ishchilarga o'z huquqlarini yaxshiroq himoya qilishga ko'maklashish.

Yozma shartnomalar ish beruvchi bilan ishchiga ularning umidlarini aniqlashtirishga yordam berib, kelishilmagan o'zgarishlar, shuningdek, aldov va majburlash xavfidan himoya qiladi. Ular, shuningdek, mehnat qonunchiligi buzilgan taqdirda, ishchilarga huquqiy himoya vositalaridan foydalanishda yordam berishi mumkin.

Ko'pgina qishloq xo'jaligi obyektlarida yozma shartnomalar hali keng tarqalmagan. To'siqlar sirasiga savodxonlik darajasining pastligi, ishning vaqtinchalik va mavsumiylik tabiati hamda yozma kelishuvlarning afzalliklari to'g'risidagi xabardorlikning

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

yetishmasligi kiradi. Ushbu Ko'rsatkich ishchilarga yozma shartnoma tuzishni talab qilishda kengroq tanlov imkoniyatini berishga qaratilgan. Ishchilarning huquqlari bilan munosib mehnat to'g'risidagi bilim va xabardorlikni uyg'unlashtirgan holda, maqsad - vaqt o'tishi bilan ko'proq ishchilar yozma shartnomaning himoya va afzalliklarini tushunishi va shartnoma tuzishni talab qilishidan iborat.

Agar nazarda tutilgan bo'lsa, yozma shartnomalar mahalliy qonunchilik talablariga muvofiq bo'lishi va ularda bajariladigan ishlarning tabiati va davomiyligi mos ravishda aks ettirilishi kerak. Uzoq muddatli shartnomalarni tuzish o'rinli bo'lgan holatda ish beruvchilarga ko'proq moslashuvchanlik taqdim etish uchun fuqarolik yoki vaqtinchalik shartnomalardan foydalanish mumkin emas.

Savodxonlik darajasi past bo'lgan joylarda yozma shartnomalarni tushunish darajasini oshirish uchun rasm, tasvir, bosh barmoq izlari va boshqa usullardan foydalanish mumkin. Imkoni bo'lgan holatlarda shartnomalarda ish vazifalari, ish vaqti, ish haqi stavkasi yoki hisob-kitoblar (shu jumladan, ish vaqtdan tashqaridagi ish uchun), ish haqi to'lash chastotasi va usuli, imtiyoz yoki chegirmalar, ta'til (shu jumladan, haq to'lanadigan ta'til, kasallik bo'yicha ta'til va boshqalar), intizomiy talablar va shartnomaning bekor qilinishi to'g'risida ogohlantirish berish muddati kiritilishi kerak. Shartnoma ishchi tushunadigan tilda yozilishi va tushuntirilishi (masalan, uni to'g'ridan-to'g'ri o'qib berish yoki ishchining o'zi o'qishi orqali) hamda ikkala tomon tarafidan imzolangan yoki muhrlangan bo'lishi kerak.

\*30 nafardan ortiq ishchisi bo'lgan YFX uchun.

## 5.10.2

Agar ishchilar uchinchi tomon orqali ishga yollansa, fermerlar 5.1-5.9- mezonlar doirasidagi talablarni uchinchi tomonga yetkazish va ularning bajarilishini ta'minlash uchun mas'ul bo'ladi.

O'FX  
YFX

Maqsad - munosib mehnatga doir barcha talablar Better Cotton tashabbusi fermer xo'jaliklarida to'g'ridan-to'g'ri (masalan, fermer tomonidan) yoki uchinchi shaxslar tomonidan (masalan, subpudratchi orqali) yollangan barcha ishchilarga nisbatan qo'llanishini ta'minlash.

Ushbu Ko'rsatkich mehnat munosabatlari bevosita fermer yoki fermer xo'jaligi bilan emas, balki ishchi bilan uchinchi tomon o'rtasida yuzaga kelgan holatlarda qo'llanadi. Bu - fermer subpudratchi bilan ishlaganda (masalan, begona o'tlarni tozalash yoki purkash xizmatlarini bajarish uchun) va subpudratchi ishchilarni yollab, ish haqi to'lagan holatga taalluqli bo'lishi mumkin.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Fernerning mazkur ishchilar bilan bevosita mehnat munosabatlari bo'lmasa ham, u subpudratchi orqali ishchilar ushbu Tamoyil doirasidagi barcha talablarga rioya qilishi va ulardan foydalanishini ta'minlash uchun mas'ul bo'ladi.

Subpudratchi yoki boshqa uchinchi tomon bilan yozma kelishuvlar mavjud bo'lsa, talablar shartnomaga kiritilishi mumkin bo'lib, uchinchi tomon tarafidan to'liq tushunilishi shart.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# 6-tamoyil: Barqaror daromad manbalari

Fermerlar, ishchilar va fermerlik hamjamiyatlari paxtachilik sohasining asosidir - ularsiz paxta ham, tabiiyki, Better Cotton yorlig'i ostidagi paxta ham bo'lmaydi. Demak, ularning daromad manbalari, o'z mohiyatiga ko'ra, barqaror paxta yetishtirish bilan bog'liq. Binobarin, fermerlar, ishchilar va ularning oilalari, xususan, ayollar va yoshlar bilan hamkorlikda ularning munosib va baxtli hayot kechirish bilan bog'liq asosiy ehtiyojlari va muammolarini aniqlash hamda ularni hal etish uchun amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tabiat uchun bezarar strategiyalarni topish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilash hamda ijtimoiy inklyuzivlikni oshirishdagi eng muhim jihat, balki paxtachilik sohasining barqaror qiymat zanjirini ta'minlashning asosiy shartidir.

## 6.1-MEZON – Barqaror daromad manbalarini takomillashtirish va chidamlilikni oshirish uchun choralar ko'rilishi

### 6.1.1

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari darajasida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar va hamjamiyatlar darajasidagi boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik asosida daromad manbalarining asosiy turlarini belgilaydi.

DX  
O'FX

Maqsad - Paxta yetishtiruvchilarning tabiat uchun bezarar daromad manbalarini aniqlash hamda chidamlilikni oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilashi va paxta ma'lumotlarga asoslangan holda chora ko'rishi uchun mahalliy daromad manbalari harakatini tushunishini ta'minlash.

Eng muhim daromad manbalarini aniqlashga yordam beradigan ma'lumotlarni fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi subyektlar bilan hamkorlik qilish orqali to'plash va boshqa manbalar (masalan, daromad manbalari masalalari bilan shug'ullanuvchi boshqa mahalliy subyektlar, Dastur hamkorlari yoki Better Cotton tashabbusining milliy jamoalari tomonidan amalga oshiriladigan baholash va boshqalardan) asosida to'ldirish mumkin. Ma'lumotlar haqqoniyligi va tushunishni ta'minlash uchun maslahatlashuv jarayonlariga ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatlardagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar va shaxslarni kiritish ayniqsa muhim. Aniqlangan asosiy yo'nalishlar Better Cotton tashabbusining daromad manbalarini yaxshilash to'g'risidagi yondashuvda belgilangan ustuvor yo'nalishlarga mos kelishi kerak.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Fermerlar bilan maslahatlashuvning bir qismi 1.1.3-ko'rsatkichda talab qilinadigan dala darajasidagi maslahatlashuvlar bilan bir-birini takrorlashi mumkin. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha ishlarni amalga oshirish va keyingi qarorlarni qabul qilishda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi ishtirok etishi kerak.

## 6.1.2

### Gender tengligi. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish

6.1.1-ko'rsatkichdan kelib chiqqan holda, mahalliy darajada tegishli chora-tadbirlar ko'rilib, muayyan davr ichida eng muhim daromad manbalarining takomillashuvini ta'minlaydi.

DX  
O'FX

Maqsad - paxta yetishtiruvchilar tomonidan Better Cotton tashabbusining daromad manbalarini yaxshilash borasidagi yondashuviga muvofiq, paxtakorlarning barqaror daromad manbalari va chidamliligini oshirish bo'yicha choralar ko'rilishi va tegishli ishlar amalga oshirilishini ta'minlash.

Daromad manbalarini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarning murakkabligi va sharoitga xos xususiyatini inobatga olgan holda, 6.1.1-ko'rsatkich bo'yicha to'plangan ma'lumotlar asosida barqaror daromad manbalari va chidamlilikni oshirish bo'yicha qabul qilingan har qanday chora-tadbirlarni ta'minlaydigan moslashuvchan yondashuv qo'llanadi. Bu - imkoniyatlarni maksimal darajada oshirish uchun joy qoldirish va ICHB rahbariyatini, imkoniyat bo'lgan holatlarda, innovatsiyalarni joriy etishga undashga qaratilgan. Yondashuvda moslashuvchanlik darajasi yuqori bo'lsa-da, ICHB rahbariyati natijalarni kuzatishi va vaqt o'tishi bilan amalga oshirilgan tadbirlar qaysi yo'nalishda va kimga foyda keltirayotganini tushuntirib bera olishi kerak. Fermerlik hamjamiyatlarining daromad manbalarini va chidamliligini oshirishda ayollar va yoshlarning roliga alohida e'tibor qaratish lozim.

ICHB rahbariyatiga, imkoniyat bo'lgan taqdirda, sheriklik yoki hamkorlik imkoniyatlarini ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Har qanday ko'rib chiqilgan yo'nalishlar va amalga oshirilgan ishlarning salbiy oqibatlarini yumshatish kerak.

### Barqaror daromad manbalari deganda nima tushuniladi?

Dunyoda munosib hayot kechirishning usul va vositalari - daromad manbalarining eng aniq ta'rifi bo'lsa ajab emas. Ushbu tushuncha yer, mulk, ekinlar, oziq-ovqat mahsulotlari, infratuzilma va pul kabi moddiy resurslar va salomatlik, bilim, ko'nikma hamda ijtimoiy munosabatlar kabi nomoddiy resurslarni qamrab oladi. Unda fermerlar, ishchilar hamda ularning uy xo'jaliklari o'zining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy sharoitidan kelib chiqqan holda, bu resurslardan foydalanish imkoniyati, hokimiyat va tanlash imkoniyati asosida ulardan qay tarzda foydalanishi va birlashtirishi mumkinligi ko'rib chiqiladi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Barqaror daromad manbalariga fermerlar, fermer xo'jaliklari ishchilari hamda fermerlik hamjamiyatlari hatto tub o'zgarishlar paytlarida ham, boshqalarning hozirgi yoki kelajakdagi farovonligiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda o'z resurslaridan munosib hayot kechirish, o'z farovonligini ta'minlash yoki oshirish uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holatda erishiladi. Daromad manbalari uy xo'jaliklari va hamjamiyatlarga daxldor bo'lgani bois ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatlardagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan ayollar, yoshlar va shaxslarni qamrab olish juda muhim ahamiyatga ega (shuningdek qarang: Ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash majburiyati).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# 1-ilova: Keng qamrovli masala: Gender tengligi

Gender tengligi atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi barcha ko'rsatkichlar bo'yicha yutuqlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ishlab chiqarish jarayonida ayollar muhim o'rin tutadigan paxtachilik sohasi uchun ayniqsa dolzarb. Gender tengligini kuchaytirish ijtimoiy adolat masalasi hisoblanibgina qolmay, muayyan iqtisodiy va ekologik afzalliklarni ham taqdim etadi. Shu bois gender tengligi mustaqil element emas, balki barcha tamoyil va ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan ajralmas omil sifatida ko'rib chiqilishini ta'minlash maqsadida, P&M ga keng qamrovli element sifatida kiritilgan. Gender nuqtayi nazaridan ayniqsa nozik bo'lgan va amalga oshirish uchun Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasining ishtirokini talab qilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar (1.5-mezonga qarang) P&M da alohida belgilab chiqilgan va quyidagi jadvalda jamlangan.

Ko'rsatkich	
1.1.1 [DX – O'FX] Ishlab chiqaruvchilar birlashmasi (ICHB) uchun aniq va mahalliy sharoitlar hisobga olingan tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, u: <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) Muntazam yangilanib turadi hamda barcha tadbirlar, muddat va vazifalarni o'z ichiga oladi;</li> <li>(ii) monitoring natijalarini hisobga olgan holda yilda kamida bir marta ko'rib chiqiladi.</li> </ul>	✓
1.1.2 [DX – O'FX] Nomuvofiqlik bilan bog'liq xatarlarni aniqlash, natijalarni o'lchash va ishlab chiqaruvchilar birlashmasi (ICHB) faoliyati samaradorligini tushunish uchun foydalaniladigan ma'lumotlar va usullar belgilab beriladigan monitoring rejasi ishlab chiqilgan va joriy etilgan. <p>Axborot va ma'lumotlar qayd qilib boriladi va saboqlar 1.1.1-ko'rsatkichdagi tadbirlar rejasini ishlab chiqish uchun asos sifatida ishlatiladi.</p>	✓
1.1.3 [DX – O'FX] Fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning vakillaridan iborat bo'lgan inklyuzivlikka asoslangan tanlanma bilan ularning ustuvor maqsad va ehtiyojlari bo'yicha yiliga kamida bir marta ularning maslahatlashuv o'tkaziladi. Ushbu maslahatlashuvning asosiy natijalari hujjatlashtiriladi va ular barcha Tamoyillar bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish va doimiy takomillashtirish uchun ustuvor yo'nalishlarni belgilashda hisobga olinadi.	✓
1.2.1 [DX – O'FX – YFX] "Better Cotton tashabbusiga a'zo fermer xo'jaliklari to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'yiladigan talablar" hujjatiga muvofiq, Paxta yetishtiruvchi darajasidagi aniq va to'liq ma'lumotlar to'planadi, tekshiriladi va hisobotlarga kiritiladi.	✓
1.2.2 [DX – O'FX] "Better Cotton tashabbusiga a'zo fermer xo'jaliklari to'g'risidagi ma'lumotlarga qo'yiladigan talablar" hujjatiga muvofiq, fermer xo'jaligi darajasidagi aniq va to'liq ma'lumotlar qayd etib boriladi.	✓

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## Ko'rsatkich

1.3.1 [DX – O'FX] (\*Ikkinchi litsenziyalash davridan boshlab Ishlab chiqaruvchilar birlashmalariga (ICHB) nisbatan qo'llanadi)]

Muayyan ustuvor yo'nalishlar va doimiy takomillashtirish bo'yicha tegishli uch yillik maqsadli ko'rsatkichlar aniqlangan hamda ularga erishish bo'yicha yillik tadbirlar umumiy faoliyat va monitoringni rejalashtirish va amalga oshirish doirasida 1.1.1 va 1.1.2-ko'rsatkichlarga to'liq kiritilib amalga oshiriladi. Ustuvor yo'nalishlarga quyidagilar kiradi:

- (i) atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasida mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlar;
- (ii) monitoring asosida belgilangan ustuvor yo'nalishlar (1.1.2-ko'rsatkich);
- (iii) 1.1.3-ko'rsatkichga muvofiq dala darajasida o'tkazilgan inklyuziv maslahatlashuvlar hamda Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar asosida belgilangan ustuvor yo'nalishlar (1.5-mezon).



1.3.2 [YFX] Doimiy takomillashtirish maqsadida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi aniq va mahalliy nuqtai nazardan dolzarb bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Ularga erishish borasidagi tadbirlar 1.1.4-ko'rsatkichdagi umumiy boshqaruv tizimining doirasida amalga oshiriladi va natijalari nazorat qilinadi.



1.4.1 [DX – O'FX] Fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning salohiyatini mustahkamlash bo'yicha samarali dastur amalga oshirilmoqda. Trening va tegishli tadbirlarda:

- (i) alohida e'tibor mahalliy sharoitlarga mos usul va innovatsiyalarga qaratiladi;
- (ii) 1.1.3-ko'rsatkichga muvofiq dala darajasidagi inklyuziv maslahatlashuvlar, shuningdek, avvalgi treninglarda olingan fikr-mulohazalardan asos sifatida foydalaniladi;
- (iii) dala darajasidagi ta'sirni kuchaytirish uchun samarali yondashuv va vositalardan foydalaniladi.



1.4.2 [DX – O'FX] Trening va boshqa tegishli tadbirlar inklyuzivlik asosida va ular naf keltirishi mumkin bo'lgan har bir odam ulardan teng darajada foydalanishi uchun tegishli imkoniyatni ta'minlaydigan tarzda ishlab chiqilgan.



1.4.3 [DX – O'FX] Ishtirokchilar treninglar va boshqa tegishli tadbirlar orqali taqdim etiladigan bilim, ko'nikma va usullarning ahamiyati va foydasini tushunadi.



1.4.4 [15 nafardan ziyod ishchisi bilan YFX] Ishchilarning salohiyatini mustahkamlash bo'yicha samarali dastur amalga oshirilmoqda. Trening va tegishli tadbirlarda:

- (i) mahalliy sharoitlarga mos usul va innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratiladi;
- (ii) Ishchilar bilan maslahatlashuvlar, shuningdek, avvalgi treninglarda olingan fikr-mulohazalardan asos sifatida foydalaniladi
- (iii) samarali yondashuv va vositalardan foydalaniladi;
- (iv) inklyuzivlik asosida hamda ulardan naf ko'rishini mumkin bo'lgan barcha ishchilar darajada foydalanish imkoniyati ta'minlanadigan tarzda ishlab chiqilgan.



Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

## Ko'rsatkich

### 1.5.1 [DX - O'FX - YFX (\*faqat 10 nafardan ortiq ayol ishchisi bo'lgan YFX uchun)]

Ayollarning teng ishtiroki va ahamiyati e'tirof etilishini qo'llab-quvvatlash uchun individual Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi tayinlangan bo'lib, uning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- (i) gender tengligi sohasidagi mahalliy muammolar va takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash uchun fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan ayollar, shuningdek, hamjamiyatlar darajasidagi boshqa tegishli subyektlar (shu jumladan, erkaklar) bilan maslahatlashish;
- (ii) Paxta yetishtiruvchining rahbariyati va fermerlarning mahalliy darajadagi gender munosabatlari, shu jumladan, qishloq xo'jaligini yuritishning turli usullari hamda ishlab chiqarish jarayonidagi vazifalar to'g'risidagi xabardorligini oshirish;
- (iii) Aniqlangan muammo va imkoniyatlarga nisbatan javob choralarini ishlab chiqish uchun Paxta yetishtiruvchi rahbariyati bilan ishlash.



1.5.2 [DX – O'FX – YFX (\*faqat 10 nafardan ziyod ayol ishchisi bo'lgan YFX uchun)] Gender masalalari bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi bilan yaqin hamkorlikda Paxta yetishtiruvchining faoliyat va monitoring rejaları doirasida gender tengligini mustahkamlash va inklyuzivlikni oshirish bo'yicha tavsiya etilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi.



1.6.1 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchi atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan masalalar bo'yicha boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan sheriklik yoki hamkorlikni namoyish etadi.



1.7.1 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchi iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan chora-tadbirlardan xabardor bo'lib, ularni faoliyat va monitoring rejalariga muvofiq amalga oshiradi.



1.7.2 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchi iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan chora-tadbirlardan xabardor bo'lib, ularni faoliyat va monitoring rejalariga muvofiq amalga oshiradi.



3.5.1 [DX – O'FX – YFX] Pestitsidlarni tayyorlash va qo'llash bilan shug'ullanadigan har qanday shaxs quyidagi talablarga javob berishi ta'minlanadi:

- (i) sog'lom;
- (ii) pestitsidlarni qo'llash ko'nikmalariga ega va tayyorgarlikdan o'tgan;
- (iii) 18 yosh va undan katta;
- (iv) homilador yoki emizikli emas.



3.5.4 [DX] Pestitsidlar bilan ishlaydigan shaxslar orasida tegishli shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish darajasini oshirish choraları ko'riladi.



4.1.1 Yuqori sifatli tola olish ehtimolini oshirish uchun urug' tanlash (iloji bo'lsa), ekish muddati, ekish me'yori, qator oraliqlari kengligi, ekinlarning o'sishi va begona o'tlarga qarshi kurash bo'yicha mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan ilg'or usullar qo'llanadi.



Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ko'rsatkich	
4.1.2 [DX – O'FX – YFX] Zararlanishning oldini olish uchun terish, saqlash va tashish jarayonida mahalliy sharoitlarga mos maqbul usullar joriy etilmoqda.	✓
5.1.1 [DX – O'FX – YFX (*faqat 25 nafardan ziyod ishchisi bilan YFX uchun)] Mehnat huquqlarining buzilishi bilan bog'liq xatar va holatlarning muntazam monitoringini yuritish tizimi mavjud bo'lib, unda: (i) monitoring tizimi uchun mas'ul bo'lgan shaxs(lar) aniq belgilangan va monitoring tizimining ishlashida fermerlar hamda ishchilar vakillari ham ishtirok etadi; (ii) xatarlar aniqlanganda, ularni bartaraf etish va keskinlashishining oldini olish bo'yicha tezkor choralar ko'riladi.	✓
5.1.2 [DX – O'FX] Barcha ishchilar huquqlarning buzilishi bilan bog'liq xavotirlarni bildirish va ularni hal qilish uchun xolis, samarali va xavfsiz kanallardan foydalanish imkoniyatiga ega. Ushbu mexanizmlar doirasida joriy etib bo'lingan, ishonchli shikoyat kiritish vositalaridan yoki, bor bo'lsa, boshqa tizimlardan foydalanishi kerak.	✓
5.1.3 [DX – O'FX] Mehnat huquqlari buzilgan holatlarda, jabrlanganlar himoya va huquqlarni tiklash mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatiga ega. Jabrlanganlar shaxsining maxfiylik va xavfsizligi butun jarayon davomida himoyalangan.	✓
5.1.4 [YFX] Ishchilar shikoyatlarni ma'lum qilish uchun xolis, samarali va xavfsiz ishonch telefoni yoki boshqa shikoyat mexanizmidan foydalanish imkoniyatiga ega. Mehnat huquqlari buzilishi holatlaridan jabrlangan shaxslar yordam va huquqiy himoya vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega.	✓
5.2.1 [DX – O'FX – YFX] Fermerlar va ishchilar mehnat sohasidagi asosiy tamoyil va huquqlarni tushunadi. Bular sirasiga ularning quyidagi huquqlari kiradi:  (i) birlashish va jamoaviy muzokaralar olib borish erkinligi; (ii) xavfsiz va sog'lom mehnat muhiti; (iii) kamsitilish, zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat va bolalar mehnati holatlaridan himoya qilish.	✓
5.3.1 [DX – O'FX – YFX] Bolalar va yosh ishchilar XMTning 138 va 182-sonli konvensiyalariga muvofiq hamda, 1-rasmda ko'rsatilganidek, faqat xavfsiz va yoshga mos vazifalarni bajaradi.	✓
5.4.3 [DX – O'FX – YFX] Ishchilar ishga qabul qilinishdan tortib, to mehnat shartnomasi bekor qilingunga qadar bo'lgan butun ish davri davomida umuman tahdid yoki jazolanish tahdidiga duch kelmaydi. Bularga, jumladan, ish haqi yoki hujjatlarni ushlab qolish, harakatlanishni cheklash yoki zo'ravonlik qo'llash bilan tahdid qilish kabilar kiradi.	✓
5.6.1 [DX – O'FX – YFX] Mehnat amaliyotida, shu jumladan, ishga qabul qilish, vazifalarni belgilash, haq to'lash, o'qitish xizmatlaridan foydalanish, lavozimda ko'tarilish, mehnat shartnomasini bekor qilish yoki nafaqaga chiqishda hech qanday kamsitilishga yo'l qo'yilmaydi.	✓

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

### Ko'rsatkich

5.7.1 [O'FX – YFX] Ishchilarga kamida qishloq xo'jaligiga taalluqli qonunchilikda o'rnatilgan milliy yoki mintaqaviy darajadagi eng kam ish haqi yoki jamoaviy muzokaralar orqali kelishilgan ish haqi to'lanadi. Ish haqi adolatli tarzda va o'z vaqtida to'lanadi.



5.7.2 [DX] Ishchilarga, kamida, eng kam ish haqi to'lanadi yoki, mahalliy darajada o'rnatilgan ish haqi eng kam ish haqidan past bo'lsa, Paxta yetishtiruvchi o'rtacha ish haqini hisobga olish tizimini joriy etib, vaqt o'tishi bilan ish haqini oshirish choralari ko'radi.



5.8.1 [DX – O'FX – YFX] Ishchilarga shaxsiy gigiyena maqsadlari uchun yetarli vaqt va ish joyi yaqinidan maxsus joylar ajratiladi.



5.8.2 [DX – O'FX – YFX] Ishchilarga dam olish uchun muntazam tanaffuslar taqdim etilib, bu vaqtda ichimlik suvidan foydalanish imkoniyati ham yaratiladi. Tana suvsizlanishi, quyosh urishi va bu bilan bog'liq kasalliklar xavfi mavjud bo'lgan joylarda soyada saqlanish imkoniyatlari ta'minlanadi, shu bilan birga, bu muammolarning oldini olish va hal qilish maqsadida boshqa choralar ko'riladi.



5.8.3 [DX – O'FX – YFX] Xavfsizlik va salomatlik uchun xavflar aniqlanib, ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi (shu jumladan, fermerlar, ishchilar va tegishli rahbarlar uchun treninglar o'tkaziladi).



Baxtsiz hodisalar yoki jarohat olish holatlari sodir bo'lganda, tibbiy yordam ko'rsatiladi va bunday holatlar takrorlanishining oldini olish choralari ko'riladi.

5.9.1 [DX – O'FX – YFX] Ishchilar ishga qabul qilinishdan tortib, to mehnat shartnomasi bekor qilingunga qadar bo'lgan butun ish davri davomida zo'ravonlik va ta'qiblardan xoli ish joyiga ega bo'lish huquqiga ega.



6.1.1 [DX – O'FX] Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari darajasida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar va hamjamiyat darajasidagi boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish asosida daromad manbalarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.



6.1.2 [DX – O'FX] 6.1.1-ko'rsatkichga asoslangan holda, vaqt o'tishi bilan daromad manbalari asosiy yo'nalishlarining takomillashishi ta'minlanadigan mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb choralar ko'riladi.



Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# 2-ilova: Keng qamrovli masala: Iqlim o'zgarishi

Iqlim o'zgarishi paxta yetishtirish bilan bog'liq barcha sohalarga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatayotgan bo'lib, tabiiy resurslarni tejash hamda fermerlarning daromad manbalari va chidamliligini oshirishga qaratilgan paxtani tabiat uchun bezarar tarzda yetishtirish maqsadidagi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish choralari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mas'uliyat va imkoniyatlarni e'tirof etgan holda, Better Cotton tashabbusi paxtachilik tarmog'ini iqlim o'zgarishi muammosiga qarshi kurashish tizimining bir qismiga aylantirishga yordamlashishi lozim. Iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish P&M doirasida keng qamrovli element sifatida ustuvor vazifa etib belgilangan. Tamoyillarni joriy etishda Paxta yetishtiruvchilar fermerlarga iqlim o'zgarishiga moslashish va/yoki uning oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladigan mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan usul va tadbirlarni tanlashi tavsiya etiladi. Iqlim o'zgarishiga nisbatan ayniqsa sezgir bo'lgan ko'rsatkichlar P&M doirasida alohida belgilangan va quyidagi jadvalda jamlangan.

Ko'rsatkich	Iqlim o'zgarishiga moslashish	Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish
1.1.1 [DX – O'FX] Ishlab chiqaruvchilar birlashmasi (ICHB) uchun aniq va mahalliy sharoitlar hisobga olingan tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan va joriy etilgan bo'lib, u: <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) yangilanib turadi hamda barcha tadbirlar, muddat va vazifalarni o'z ichiga oladi;</li> <li>(ii) monitoring natijalarini hisobga olgan holda yilda kamida bir marta ko'rib chiqiladi.</li> </ul>	✓	✓
1.3.1 [DX – O'FX] (*ikkinchi litsenziyalash davridan boshlab ishlab chiqaruvchilar birlashmalariga (ICHB) nisbatan qo'llanadi)] <p>Doimiy takomillashtirish talab qilinadigan muayyan ustuvor yo'nalishlar va tegishli uch yillik maqsadli ko'rsatkichlar aniqlangan va 1.1.1- hamda 1.1.2-ko'rsatkichlardagi umumiy faoliyat va monitoringni rejalashtirish hamda amalga oshirish jarayoniga ularga erishishga qaratilgan yillik tadbirlar to'liq kiritilgan va amalga oshiriladi. Ustuvor yo'nalishlarda quyidagilar inobatga olinadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) Atrof-muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha mahalliy nuqtai-nazardan dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlar;</li> <li>(ii) Monitoring natijasida aniqlangan ustuvor yo'nalishlar (1.1.2-ko'rsatkich);</li> <li>(iii) 1.1.3-ko'rsatkichga muvofiq, dala darajasida o'tkaziladigan inklyuziv maslahatlashuvlar hamda Gender masalalari</li> </ul>	✓	✓

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Ko'rsatkich	Iqlim o'zgarishiga moslashish	Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish
bo'yicha yetakchi yoki Gender qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladigan ish natijasida aniqlangan ustuvor vazifalar (1.5-mezon).		
1.3.2 [YFX] Doimiy takomillashtirish maqsadida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi aniq va mahalliy nuqtai nazardan dolzarb bo'lgan maqsadli ko'rsatkichlar belgilangan. Ularga erishish borasidagi tadbirlar 1.1.4-ko'rsatkichdagi umumiy boshqaruv tizimining doirasida amalga oshiriladi va natijalari nazorat qilinadi.	✓	✓
<p>1.4.1 [DX – O'FX] Fermer xo'jaliklarida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslarning salohiyatini mustahkamlash bo'yicha samarali dastur amalga oshirilmoqda. Trening va tegishli tadbirlarda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) alohida e'tibor mahalliy sharoitlarga mos usul va innovatsiyalarga qaratiladi;</li> <li>(ii) 1.1.3-ko'rsatkichga muvofiq dala darajasidagi inklyuziv maslahatlashuvlar, shuningdek, avvalgi treninglarda olingan fikr-mulohazalardan asos sifatida foydalaniladi;</li> <li>(iii) dala darajasidagi ta'sirni kuchaytirish uchun samarali yondashuv va vositalardan foydalaniladi.</li> </ul>	✓	✓
1.6.1 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchi atrof-muhit barqarorligini ta'minlash sohasidagi mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan masalalar bo'yicha boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan sheriklik yoki hamkorlikni namoyish etadi.	✓	✓
1.7.1 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchi iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan chora-tadbirlardan xabardor bo'lib, ularni faoliyat va monitoring rejalariga muvofiq amalga oshiradi.	✓	✓
1.7.2 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchilar iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish bo'yicha mahalliy darajada dolzarb bo'lgan chora-tadbirlardan xabardor va ularni tadbirlar va monitoring rejalariga muvofiq amalga oshiradi.	✓	✓
2.1.1 [DX – O'FX – YFX] Ekinlar xilma-xilligini maksimal darajada oshiradigan mahalliy sharoitga mos bo'lgan usullar joriy etilgan.	✓	✓
2.1.2 [DX – O'FX – YFX] Tuproq qoplamini maksimal darajada yaxshilaydigan mahalliy sharoitga mos bo'lgan dehqonchilik usullari joriy etilgan.	✓	✓
2.1.3 [DX – O'FX – YFX] Tuproq tuzilmasi buzilishini minimallashtiradigan mahalliy sharoitga mos bo'lgan dehqonchilik usullari joriy etilgan.	✓	✓
<p>2.1.4 [S'H – MF – LF] Tuproq va o'simlik ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, o'g'itlarni optimal qo'llash foydani maksimal darajada oshirish va salbiy ta'sirlarni minimallashtirishga qaratilgan bo'lib, bunda quyidagilar hisobga olinadi va tanlab olinadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) To'g'ri ozuqa manbasi;</li> <li>(ii) To'g'ri doza;</li> <li>(iii) To'g'ri muddat;</li> <li>(iv) To'g'ri qo'llash joyi.</li> </ul>	✓	

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ko'rsatkich	Iqlim o'zgarishiga moslashish	Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish
2.1.5 [DX – O'FX – YFX] O'simlik va tuproqning ozuqaviy ehtiyojlarini qondirish uchun muqobil usullar (sintetik o'g'itlardan tashqari) qo'llanadi. Vaqt o'tishi bilan sintetik o'g'itlardan foydalanishni minimallashtirish choralarini ko'rilmoqda.	✓	
2.2.1 [DX – O'FX – YFX (faqat sug'oriladigan yerlari bo'lgan fermer xo'jaliklari)] Sug'orish samaradorligini oshirish va suv unumdorligini maksimal darajada oshirish uchun sug'orish usullari, texnologiyalari va muddatlari rejalashtirilib, joriy etiladi.	✓	✓
2.2.2 [DX – O'FX – YFX (faqat lalmikor yerlari bo'lgan fermer xo'jaliklari)] Yog'ingarchilikning o'zgaruvchan miqdori, intensivligi va vaqtdan kelib chiqqan holda qishloq xo'jaligi usullarini samarali boshqarish joriy etilgan.		✓
2.3.1 [DX – O'FX – YFX] Suv havzalarini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi.	✓	✓
2.3.2 [DX – O'FX – YFX] Tabiiy yashash muhitlari va biologik xilma-xillik asraladi va vaqt o'tishi bilan ularni mahalliy yoki mintaqaviy ustuvor maqsadlarga muvofiq yaxshilash choralarini ko'riladi.	✓	✓
2.3.3 [DX – O'FX – YFX] Ekin maydonlarida degradatsiyaga uchragan maydonlar aniqlanib, vaqt o'tishi bilan ularni mahalliy yoki mintaqaviy ustuvor maqsadlarga muvofiq tiklash choralarini ko'riladi.	✓	✓
2.4.1 [DX – O'FX – YFX] Paxta yetishtiruvchi 2019 yilning 31 dekabridan keyin tabiiy ekotizimlardan o'zlashtiriladigan yerlarda paxta yetishtirilmasligini kafolatlaydi.	✓	
2.4.2 [DX – O'FX – YFX] Har qanday yerni o'zlashtirishdan avval, tabiiy ekotizimlar va yuqori muhofaza qiymatiga ega hududlar asralishini ta'minlash uchun Better Cotton tashabbusi tomonidan yerlar o'zlashtirilishini baholash o'tkazilishi kerak. Baholash asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar 1-tamoyilda ko'rsatilgan faoliyat va monitoring rejalarini doirasida to'liq amalga oshiriladi.	✓	
3.1.1 [DX – O'FX] Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish (ZQKK) strategiyasi ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan bo'lib, u: (i) 3.1.2-3.1.6- ko'rsatkichlarini qamrab oladi; (ii) vaqt o'tishi bilan ZQKK usullari to'g'risidagi xabardorlikni oshirish va ularni joriy etishni qo'llab-quvvatlaydi; (iii) 1-tamoyilga muvofiq faoliyat va monitoring rejalarini ishlab chiqishga asos bo'ladi.	✓	✓
3.1.2 [DX – O'FX] Sog'lom hosil yetishtirishga yordam beradigan, zararkunandalar populyatsiyasi va kasalliklarining ko'payishiga to'sqinlik qiladigan va foydali organizmlar populyatsiyasini saqlab qolish va ko'paytirishga yordam beradigan usullar qo'llanadi.	✓	✓
3.1.3 [DX – O'FX] Fermerlarga mahalliy yetishtirish sharoitlariga mosligini hisobga olish va asosiy zararkunandalar va/yoki kasalliklarga moyillikni kamaytirish asosida tegishli urug'lik navlari to'g'risida ma'lumot beriladi.	✓	✓

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ko'rsatkich	Iqlim o'zgarishiga moslashish	Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish
3.1.4 [DX – O'FX] Ekinlar salomatligi hamda zararkunandalar va foydali organizmlar darajasi muntazam monitoring qilinadi. Zararkunandalarga qarshi qachon va qay tarzda kurashishni aniqlash uchun dala kuzatuvlari va qaror qabul qilish vositalaridan foydalaniladi.	✓	✓
3.1.5 [DX – O'FX] Fermerlar asosiy zararkunandalarga qarshi kurashishning kimyoviy bo'lmagan usullaridan (masalan, biologik, jismoniy va madaniy) xabardor bo'lib, ularga ZQKK strategiyasining bir qismi sifatida ustuvorlik beriladi.	✓	✓
3.1.6 [DX – O'FX] Pestitsidlar faqat zararkunandalar ko'payish darajasining ma'lum chegarasiga erishilganda qo'llanadi. Pestitsidlar qo'llangan taqdirda: (i) toksiklik darajasi past bo'lgan faol moddalarga afzallik beriladi; (ii) ular ekin o'sishiga qarshilikni yumshatish maqsadida tanlanadi va qo'llanadi.	✓	
3.1.7 [YFX] Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish strategiyasi amalga oshirilayotgan bo'lib, u: (i) zararkunandalar populyatsiyasi va kasalliklarining ko'payishini oldini oladi va foydali organizmlarni saqlaydi; (ii) ekinlar salomatligi, zararkunandalar, kasalliklar va foydali organizmlarning muntazam monitoringini o'z ichiga oladi; (iii) kimyoviy bo'lmagan usullarga afzallik beradi; (iv) kimyoviy moddalar faqatgina zararkunandalar ko'payishning chegaraviy darajasiga yetganda qo'llanishini ta'minlaydi; (v) toksiklik darajasi past bo'lgan faol moddalarga ustunlik beradi va agar kimyoviy moddalar ishlatilsa, ekin o'sishiga qarshilikning oldini oladi.	✓	✓
3.3.1 [DX – O'FX – YFX] Better Cotton tashabbusi tomonidan taqiqlangan pestitsidlar ro'yxatiga kiritilgan O'ta xavfli pestitsidlar (O'XP) qo'llanmaydi.	✓	
3.3.2 [DX – O'FX – YFX] 2028 yilga kelib, Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimiga (GUT) muvofiq, kanserogen (1a yoki 1b toifalari), mutagen (1a yoki 1b toifalari) yoki reprotoksik (1a yoki 1b toifalari) sifatida belgilangan pestitsidlarni qo'llashdan bosqichma-bosqich voz kechish rejasi amalga oshiriladi.	✓	
3.4.1 [DX – O'FX – YFX] Better Cotton tashabbusi tomonidan Atrof-muhit uchun yuqori xavf darajasiga ega moddalar ro'yxatiga kiritilgan pestitsidlar qo'llanganda, atrof-muhit uchun xavflarni kamaytirish choralari ko'riladi.	✓	✓
4.1.1 Yuqori sifatli tola olish ehtimolini oshirish uchun urug' tanlash (iloji bo'lsa), ekish muddati, ekish me'yori, qator oraliqlari kengligi, ekinlarning o'sishi va begona o'tlarga qarshi kurash bo'yicha mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb bo'lgan ilg'or usullar qo'llaniladi.		✓

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Ko'rsatkich	Iqlim o'zgarishiga moslashish	Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish
5.8.2 [DX – O'FX – YFX] Ishchilarga dam olish uchun muntazam tanaffuslar taqdim etilib, bu vaqtda ichimlik suvidan foydalanish imkoniyati ham yaratiladi. Tana suvsizlanishi, quyosh urishi va bu bilan bog'liq kasalliklar xavfi mavjud bo'lgan joylarda soyada saqlanish imkoniyatlari ta'minlanadi, shu bilan birga, bu muammolarning oldini olish va hal qilish maqsadida boshqa choralar ko'riladi.		✓
5.8.3 [DX – O'FX – YFX] Xavfsizlik va salomatlik uchun xavflar aniqlanib, ularni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi (shu jumladan, fermerlar, ishchilar va tegishli rahbarlar uchun treninglar o'tkaziladi). Baxtsiz hodisalar yoki jarohat olish holatlari sodir bo'lganda, tibbiy yordam ko'rsatiladi va bunday holatlar takrorlanishining oldini olish choralari ko'riladi.		✓
6.1.1 [DX – O'FX] Paxta yetishtiruvchi fermer xo'jaliklari darajasida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar va hamjamiyat darajasidagi boshqa tegishli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish asosida daromad manbalarining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.	✓	✓
6.1.2 [DX – O'FX] 6.1.1-ko'rsatkichga asoslangan holda, vaqt o'tishi bilan daromad manbalari asosiy yo'nalishlarining takomillashishi ta'minlanadigan mahalliy nuqtayi nazardan dolzarb choralar ko'riladi.	✓	✓

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

# 3-ilova: Atamalar lug'ati

Atama	Ta'rif
<b>Foydali hasharotlar / organizmlar</b>	Ekinga foyda keltiradigan har qanday organizm. Foyda zararkunandalarga qarshi kurash, changlatish va tuproq salomatligini saqlashni o'z ichiga oladi. Foydali organizmlarning aksi - zararkunandalar.
<b>Better Cotton tashabbusi litsenziyasi</b>	O'rganishlar asosida beriladigan kafolat natijalariga ko'ra, Better Cotton litsenziyasi Paxta yetishtiruvchi Better Cotton tamoyil va mezonlaridagi barcha tegishli ko'rsatkichlarga muvofiqligi baholangandan Paxta yetishtiruvchi darajasida (ishlab chiqaruvchilar birlashmasi yoki yirik fermer xo'jaligi) beriladi. Bu - Paxta yetishtiruvchilarga o'z paxtasini ta'minot zanjirida Better Cotton yorlig'i ostida sotishga imkon beradi.
<b>Biologik xilma-xillik</b>	Ekotizimlar faoliyat yuritishi va xizmatlar ko'rsatishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan tirik organizmlar - o'simlik, hayvon, zamburug' va mikroorganizmlar orasidagi xilma-xillik. <sup>9</sup>
<b>Jadval bo'yicha purkash</b>	Pestitsidlarni zararkunandalar populyatsiyasini hisobga olmagan holda ma'lum kunlarda yoki vaqtlarda qo'llash.
<b>Salohiyatni mustahkamlash</b>	Ushbu hujjatga muvofiq, fermer xo'jaliklari darajasida paxta yetishtirish bilan shug'ullanuvchi shaxslar ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot va atrof-muhitni muhofaza qilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'minlash uchun bilim, ko'nikma, qobiliyat va qarashlarni yuzaga chiqarish, mustahkamlash, yaratish, moslashtirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlar. <sup>10</sup>
<b>Kanserogen, mutagen yoki reprotoksik (KMR) moddalar</b>	Kanserogen, mutagen va reprotoksik (KMR) moddalar inson salomatligiga muayyan turdagi zarar yetkazadigan moddalardir. Kanserogen kimyoviy moddalar saratonni keltirib chiqarishi yoki uni rivojlantirishi mumkin. Mutagen kimyoviy moddalar genetik mutatsiyalarga olib kelishi mumkin. Reprotoksik kimyoviy moddalar reproduktiv jarayonga zarar yetkazishi mumkin.
<b>Bolalar mehnati</b>	Bolalarni bolalik, salohiyatni yuzaga chiqarish va qadr-qimmatidan mahrum qiladigan, ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga ziyon yetkazadigan mehnat. Bunday mehnat: <ul style="list-style-type: none"> <li>- bolalar uchun aqliy, jismoniy, ijtimoiy yoki ma'naviy jihatdan xavfli va zararli; va/yoki</li> <li>- ularning ta'lim olishiga quyidagicha ta'sir o'tkazadi: <ul style="list-style-type: none"> <li>o maktabga qatnash imkoniyatidan mahrum qilish;</li> <li>o maktabni muddatidan avval tashlab ketishga majburlash; yoki</li> </ul> </li> </ul>

<sup>9</sup> FAO. "O'g'itlardan barqaror foydalanish va boshqarish bo'yicha xalqaro axloq kodeksi". (2019 yil). 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.fao.org/3/ca5253en/ca5253en.pdf>.

<sup>10</sup> Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. Imkoniyatlarni rivojlantirish: DAC qo'mitasi ustuvor yo'nalishlari. (2010 yil). 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.oecd.org/dac/conflict-fragility-resilience/governance/docs/46682429.pdf>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
	<ul style="list-style-type: none"> <li>o maktabda o'qishni haddan tashqari uzoq davom etadigan va og'ir ish bilan birga olib borishni talab qilish.<sup>11</sup></li> </ul>
<b>Iqlim o'zgarishi</b>	Yer sayyorasidagi mahalliy, mintaqaviy va global iqlimni belgilaydigan o'rtacha ob-havo sharoitlarining uzoq muddatli o'zgarishi. Bu - insoniyatning global atmosfera tarkibi o'zgarishiga ta'sir qiladigan faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita bog'liq bo'lib, qiyoslanadigan vaqt oralig'ida kuzatiladigan iqlimning tabiiy o'zgaruvchanligiga qo'shimcha hisoblanadi. <sup>12</sup>
<b>Iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish</b>	Tabiiy va antropogen tizimlarning iqlim o'zgarishi oldidagi himoyasizligini kamaytirish va uning haqiqiy yoki kutilayotgan oqibatlariga chidamlilikni oshirishga qaratilgan individual yoki jamoaviy strategiya, tashabbus va chora-tadbirlar.
<b>Iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish</b>	Issiqxona gazlari manbalarini kamaytirish yoki gazlarni yutuvchilar hajmini oshirishga qaratilgan inson aralashuvi. <sup>13</sup>
<b>Majburlash</b>	Shaxsning xohishiga zid ravishda uni ishlatish uchun qo'llanadigan har qanday tahdid va jazolash tahdidi. Ishchilar haqiqatan ham zo'rlab ishlatishga duchor bo'lishi yoki zo'rlab ishlatish bilan og'zaki tahdid qilinishi yoki boshqa hamkasblari ixtiyoriy bo'lmagan mehnat bilan bog'liq ravishda zo'rlab ishlatilishning guvohi bo'lishi mumkin. Zo'rlab ishlatish elementlari, jumladan, ishchilar yoki ularning oila a'zolari, qarindoshlari yoki yaqin hamkorlariga nisbatan tahdid yoki zo'ravonlik; harakatni cheklash; qarzdorlik qulligi yoki qarz orqali manipulyatsiya qilish; ish haqi yoki boshqa va'da qilingan imtiyozlarni ushlab qolish; qimmatli hujjatlarni (masalan, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar yoki yashash uchun ruxsatnomalar) ushlab qolish va huquq yoki imtiyozlar berishni rad etish, ishdan bo'shatish yoki deportatsiya qilish bilan tahdid qilish orqali ishchilarning himoyasizligini suiiste'mol qilishni o'z ichiga olishi mumkin. <sup>14</sup>
<b>Jamoaviy harakatlar</b>	Jamoaviy harakatlar hamkorlikning o'ziga xos shakli bo'lib, alohida harakatlar bilan bog'liq ko'plab masalalarni hal qilish orqali ekologik va ijtimoiy muammolarni yengib o'tishga qaratilgan. Jamoaviy harakatlar tashkilotlararo hamkorlikdan iborat. Mahalliy aholi vakillarini jalb qilish, mahalliy aholi vakillari bilan hamkorlik, fuqarolar bilan hamkorlik qilish, xizmat ko'rsatishni o'rganish, ko'ngillilik hamda koalitsiyalar bunday hamkorlikka misol bo'lishi mumkin.
<b>Zararlanish</b>	"Better Cotton tashabbusining tamoyil va mezonlari" nuqtayi nazaridan, zararlanish deganda pestitsidlarning inson salomatligi, oziq-ovqat mahsulotlari va atrof-muhitga ta'siri tushuniladi. Bunday ta'sir pestitsidlar va ularning idishlarini noto'g'ri ishlatish, saqlash yoki utilizatsiya qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin.

<sup>11</sup> XMT. 'Bola mehnati deganda nima tushuniladi (IPEC)'. 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.ilo.org/ipecc/facts/lang-en/index.htm>.<https://www.ilo.org/ipecc/facts/lang-en/index.htm>

<sup>12</sup> Manba: Iqlim o'zgarishi bo'yicha ekspertlarning hukumatlararo paneli. "Global haroratning 1,5°C darajaga ortishi. Global harorat 1,5 °C darajaga ortishining ta'siri bo'yicha IO'EHP maxsus hisoboti. Lug'at, (2018 yil).2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.ipcc.ch/sr15/chapter/glossary/>.

<sup>14</sup> XMT Statistika departamenti. "Majburiy mehnatni o'lchash bo'yicha ko'rsatmalar". (2018 yil). 2023 yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---stat/documents/meetingdocument/wcms\\_648619.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---dgreports/---stat/documents/meetingdocument/wcms_648619.pdf).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rifi
	Atrof-muhit ifloslanishi sodir bo'lganda, bu - to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita tuproq, suv, ekin, hasharotlar (shu jumladan, foydali hasharotlar), hayvonlar, nishon guruhiga kirmaydigan o'simliklar va atrofdagi aholi vakillariga ta'sir qilishi mumkin.
<b>Zararlanish (paxta tolasi)</b>	Paxta to'pidagi paxta momig'i yoki qoldiqdan (paxta bargidan) boshqa har qanday material bo'lib, u har qanday ko'rinish va turdagi sun'iy (masalan, moy, plastmassa, mato, soch, mashina qismlari va boshqalar) yoki tabiiy (masalan, po'stloq, o't, urug' po'stlog'i bo'laklari va boshqalar) begona modda bo'lishi mumkin. Zararlanish paxtani terish, tashish va tozalash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lib, jut, mato, ip bo'laklari, polietilen, polipropilen ip bo'laklari, inson va hayvonlarning tuklari, metall buyumlar, qushlarning patlari, qog'oz, sigareta qutilari va boshqalarni o'z ichiga olishi mumkin.
<b>O'zlashtirish (tabiiy ekotizimlarni)</b>	Tabiiy ekotizim yerdan foydalanishning boshqa shakliga o'zgartirilishi yoki tabiiy ekotizim jismoniy tuzilishi va tur tarkibining chuqur o'zgarishiga olib keladigan jiddiy va doimiy degradatsiya jarayoni. <sup>15</sup>
<b>Mezonlar</b>	Mezonlar - bu tamoyil doirasida erishish ko'zlanadigan natijalar.
<b>Ekin kasalligi</b>	Ekin kasalligi o'simlikning asosiy fiziologik yoki biokimyoviy tizimlari o'simlik patogenlari tomonidan buzilganida yuzaga kelib, bu simptomlar paydo bo'lishiga olib keladi. O'simliklar patogenlari, odatda, zamburug'li, bakterial, virusli organizmlar yoki nematodalardir.
<b>Ekinlar xilma-xilligi</b>	Ekinlar xilma-xilligi - qishloq xo'jaligida ishlatiladigan o'simliklar genetik va fenotipik xususiyatlarining turfa xilligi. O'tgan 50 yil ichida ekinlar xilma-xilligining ikkita komponentida - har bir ekinning genetik xilma-xilligi va keng tarqalgan turlar sonida katta pasayish kuzatildi. Ekinlarning yer ustidagi xilma-xilligi yer ostidagi xilma-xillikka olib keladi, negaki o'simliklarning har xil turlari turli tuproq organizmlari bilan birgalikda tuproqning tabiiy ozuqa tarmog'ini ozuqa bilan ta'minlaydi. Turli ozuqa sikllari uchun turli organizmlar mas'ul bo'lib, tuproqning ozuqa tarmog'i o'zaro aloqalar imkon qadar ko'proq bo'lganda eng samarali tarzda ishlaydi. <sup>16</sup>
<b>Almashlab ekish</b>	Almashlab ekish - tuproq salomatligini yaxshilash, tuproqdagi ozuqa moddalar tarkibini optimallashtirish hamda zararkunandalar va begona o'tlar bosimiga qarshi kurashish uchun bitta yer uchastkasiga turli ekinlarni navbatma-navbat ekish amaliyoti. <sup>17</sup>
<b>So'nggi muddat</b>	So'nggi muddat deganda, Better Cotton tashabbusining yerlarni o'zlashtirish borasidagi yondashuviga ko'ra, yerlarning o'zlashtirishning muayyan turlariga ruxsat berilmaydigan muddat tushuniladi. <sup>18</sup>
<b>Qarzdorlik qulligi</b>	Qarzdorlik qulligi deganda qarzni to'lay olmaslik tufayli ishni tashlab keta olmaslik tushuniladi. <sup>19</sup>
<b>Munosib mehnat</b>	Munosib mehnat deganda barcha erkinlik, adolat, xavfsizlik va inson qadr-qimmatini ta'minlangan sharoitda samarali mehnat qilishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan mehnat tushuniladi. Ushbu konsepsiya xavfsiz va unumdor mehnat, ijtimoiy muhofaza va ijtimoiy muloqotni

<sup>15</sup> Manba: Accountability Framework tashabbusi. "Terms and definitions". (June 2019). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://accountability-framework.org/wp-content/uploads/2019/07/Definitions.pdf>.

<sup>16</sup> Farming for a Better Climate. "Regenerative Farming, Maximising Crop Diversity Practical Guide". 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.farmingforabetterclimate.org/downloads/practical-guide-regenerative-agriculture-maximising-crop-diversity/>.

<sup>17</sup> Rodeyl instituti. "Crop rotation". 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://rodaleinstitute.org/why-organic/organic-farming-practices/crop-rotations/>.

<sup>18</sup> Accountability Framework tashabbusi. "Operational Guidance on Cutoff Dates". (June 2019). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://accountability-framework.org/operational-guidance/cutoff-dates/>.

<sup>19</sup> XMT va Walk Free jamg'armasi. "Global Estimates of Modern Slavery: Forced Labour and Forced Marriage". (2017). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/@dgreports/@dcomm/documents/publication/wcms\\_575479.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/@dgreports/@dcomm/documents/publication/wcms_575479.pdf).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
	rag'batlantirish bilan bir qatorda, XMTning mehnat sohasidagi asosiy standartlari <sup>20</sup> va milliy mehnat qonunchiligida mustahkamlangan mehnat huquqlariga rioya qilishni o'z ichiga oladi.
<b>Degradatsiyaga uchragan hudud / yer</b>	<p>Degradatsiyaga uchragan yerlar – inson tomonidan bevosita yoki bilvosita sodir etilgan jarayonlar natijasida o'z tabiiy hosildorligining bir qismini yoki boshqa ekologik qiymatlarini yo'qotgan yerlar. Bunday yerda paxta yetishtirish imkoni saqlanib qoladi, ammo bu hosildorlik va tabiiy imkoniyatlar mumkin bo'lganidan kamroq bo'lishini bildiradi. Degradatsiyaga uchragan yer doim ham oriq yerdek ko'rinmasdan, belgilar sezilmasligi mumkin.</p> <p>Yuqori darajadagi degradatsiyaga uchragan yerlarda insonning yaqqol va davomli ta'siri (to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita) mahalliy o'simliklarning jismoniy tuzilishi va tur tarkibini shu darajada o'zgartirgan bo'ladiki, faol tiklash choralari ko'rilmagan taqdirda, yer uzoq muddat davomida ekologik qiymatlar bilan ta'minlay olmaydi.<sup>21</sup></p>
<b>Kamsitish</b>	Kamsitish deganda ish mezonlari yoki talablari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday xususiyat asosidagi farqlash, istisno qilish yoki afzallik berish tushuniladi. Bunga shu jumladan, gender o'ziga xoslik yoki jinsiy xususiyatlar, jinsiy oriyentatsiya, yosh, millat, etnik kelib chiqish, til, irq, sinf, tabaqa, ijtimoiy kelib chiqish, din, e'tiqod, qobiliyatlar va nogironlik holati, salomatlik, siyosiy mansublik, siyosiy qarashlar, kasaba uyushmasi yoki boshqa ishchilar tashkilotiga a'zolik, oilaviy ahvol va homiladorlik va hokazolar bilan bog'liq kamsitish turlari kiradi. <sup>22</sup>
<b>Iqtisodiy chegara</b>	Zararkunandalar populyatsiyasining ko'payish yoki ekinlarga zarar yetkazish darajasi bo'lib, bunda nobud bo'lgan hosilning qiymati zararkunandalarga qarshi kurashish yoki ekinlarga ishlov berish xarajatlaridan oshib ketadi.
<b>Oila a'zolari</b>	Oila a'zolari yoki, qishloq xo'jaligi nuqtayi nazaridan olib qaraganda - oilaviy ishchilar - bu oilaning boshqa a'zosiga fermer xo'jaligini yuritishda yordam beradigan va yollanma ishchi hisoblanmaydigan shaxslar. Ular fermer xo'jaligi egasining turmush o'rtog'i, qizi yoki o'g'li yoki boshqa qarindosh, masalan, opasi yoki ukasi, xolasi, amakisi yoki tog'asi bo'lishi mumkin. Bunda ular xo'jalik egasi bilan bir xonadonda yoki bitta yer uchastkasida joylashgan uyda yashab, maishiy manfaatlari umumiy bo'lishi lozim. <sup>23</sup>
<b>Fermer</b>	Better Cotton tashabbusining Tamoyil va mezonlarida qo'llanilgan "fermerlar" tushunchasi fermer xo'jaligidagi vazifalar va qaror qabul qilish mas'uliyati baham ko'rilgan har qanday jins, kelib chiqish va o'ziga xoslikka ega bo'lgan shaxslarni o'z ichiga oladi. Ijarachilar va chorakorlar ishlab chiqarish xarajatlarini bo'lishib, ishlab chiqarish usullari uchun javobgar bo'lsa, ular ham fermer hisoblanadi.

<sup>20</sup> XMT. 'ILO Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work and Its Follow-up'. 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed\\_norm/---declaration/documents/normativeinstrument/wcms\\_716594.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---ed_norm/---declaration/documents/normativeinstrument/wcms_716594.pdf).

<sup>21</sup> [Accountability Framework tashabbusi, Tabiat uchun bezarar biomateriallarga bag'ishlangan "davra suhbat" va saraton kasalliklari tadqiqotlari bilan shug'ullanadigan doktorantlarning Xalqaro konferensiyasi materiallari asosida.](#)

<sup>22</sup> XMT. 'ILO Declaration on Fundamental Principles and Rights at Work and Its Follow-up'. Discrimination (Employment and Occupation) Convention, 1958 (No. 111), (1958). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100\\_ILO\\_CODE:C111](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C111).

<sup>23</sup> eurostat. 'Glossary: Farm Labour Force - Family Labour'. Eurostat Statistics Explained. 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Glossary: Farm\\_labour\\_force\\_-\\_family\\_labour](https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Glossary: Farm_labour_force_-_family_labour).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Atama	Ta'rifi
<b>Fermerlik hamjamiyatlari</b>	Paxta yetishtiriladigan hududda paxtachilikdan foyda ko'rayotgan yoki unga daxldor bo'lgan, jarayonda bevosita ishtirok etadigan fermerlar, ishchilar, ularning oila a'zolari va boshqa shaxslar.
<b>O'g'itlar</b>	O'g'it deganda o'simliklarni ozuqaviy moddalar bilan ta'minlash uchun qo'llanadigan kimyoviy yoki tabiiy modda yoki material tushunilib, odatda, tuproqqa, shuningdek barglarga ham qo'llanadi. <sup>24</sup> Sintetik yoki noorganik o'g'itlar kimyoviy jarayonlar, mineral qazib olish yoki mexanik maydalash yo'li bilan sanoatda ishlab chiqariladigan ozuqaviy moddalarga boy o'g'itlar. Organik o'g'itlar - organik materiallardan, jumladan, qayta ishlangan yoki ishlov berilmagan chorva go'ngi, kompost, biogumus, kanalizatsiya suvlari cho'kmalari va boshqa organik materiallar yoki ozuqaviy moddalarni yetkazib berish uchun ishlatiladigan aralash materiallardan olingan uglerodga boy o'g'itlar. <sup>25</sup>
<b>Tola sifati</b>	Paxta tolasining sifati uchta umumiy element orqali aniqlanadi: tolaning tabiiy xususiyatlari (pishiqligi, uzunligi, ingichkaligi va bir xilligi), qoldiq darajasi (momig'ida qolgan paxta barglari) va zararlanish darajasi (paxta momig'i ichida topilgan paxta tolasini yoki paxta bargini bo'lmagan har qanday narsa).
<b>Joylardagi muvofiqlashtiruvchi</b>	Joylardagi muvofiqlashtiruvchilar Better Cotton tashabbusining ishlab chiqarish birlashmalari boshqaruv tuzilmasi a'zosi hisoblanadi. Ular fermerlarni birlashtirish, fermer xo'jaliklari darajasidagi ma'lumotlarni to'plash va fermerlik hamjamiyatlarida salohiyatni kuchaytirish tadbirlarini o'tkazishda yordam beradigan, maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan dala darajasidagi xodimlardir. Joylardagi muvofiqlashtiruvchilar, odatda, Dastur hamkorlari yoki ularning mahalliy hamkorlari tomonidan ishga yollanadi.
<b>Zo'rlab ishlatish yoki majburiy mehnat</b>	Majburiy mehnat - bu jazo tahdidi ostida bajarish talab qilinish, shaxs uni bajarish uchun o'zini ixtiyoriy ravishda taklif qilmagan ish. <sup>26</sup> Mohiyatan, shaxs ishga yoki xizmatga o'z xohish-istaklariga zid ravishda kirsa va ishini jazolanmasdan yoki jazo tahdidisiz tashlab keta olmasa, majburiy mehnat holatida bo'ladi.
<b>Ixtiyoriy, avvaldan va ongli ravishda berilgan rozilik</b>	Tub xalqlar va mahalliy hamjamiyatlarning huquqlari, yerlari, resurslari, hududlari, daromad manbalari va oziq-ovqat xavfsizligiga daxl qilishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyat boshlanishidan avval ular o'z roziligini berishi yoki rad etishi nazarda tutilgan jamoaviy inson huquqi. Mazkur huquq erkin tanlanadigan vakillar orqali urf-odatlar, qadriyatlar va me'yorlarga mos keladigan tarzda amalga oshiriladi <sup>27</sup> .
<b>Birlashmalar erkinligi</b>	Birlashmalar erkinligi deganda ishchilar va ish beruvchilarning ish joyida ularning manfaatlarini targ'ib va himoya qiladigan tashkilotlarni hech qanday tashqi aralashuvsiz erkin tashkil etish yoki ularga qo'shilish huquqi tushuniladi. Uyushmalarga birlashish huquqi barcha ishchilar va ish beruvchilarga, shu jumladan fermerlar va norasmiy iqtisodiyotda band bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan ham amal qiladi. Mehnat sohasidagi asosiy huquqlaridan biri sifatida birlashmalar erkinligi ishchilarga o'z mehnat sharoitlarini ijtimoiy muloqot orqali shakllantirish imkonini beradi. <sup>28</sup>

<sup>24</sup> FAO. 'Global Soil Doctors Programme: A Farmer-to-farmer Training Programme'. (2019). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.fao.org/3/ca7496en/ca7496en.pdf>.

<sup>25</sup> FAO. 'The International Code of Conduct for the Sustainable Use and Management of Fertilizers'. (2019). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.fao.org/3/ca5253en/ca5253en.pdf>.

<sup>26</sup> XMT. "Majburiy mehnat to'g'risidagi konvensiya, (29-son)." (1930 yil). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100::NO:12100:P12100\\_ILO\\_CODE:C029:NO](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100::NO:12100:P12100_ILO_CODE:C029:NO).

<sup>27</sup> Accountability Framework tashabbusi. 'Terms and Definitions'. (June 2019). 7-fevral holatiga ko'ra. <https://accountability-framework.org/wp-content/uploads/2019/07/Definitions.pdf>.

<sup>28</sup> XMT, Birlashmalar erkinligi va uyushmalarga birlashish huquqini himoya qilish to'g'risidagi 87-son konvensiya. (1948 yil). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::p12100\\_instrument\\_id:312232](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::p12100_instrument_id:312232).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rifi
<b>Gender tengligi</b>	Gender tengligi huquqlar, majburiyatlar va imkoniyatlar insonning gender o'ziga xosligi yoki jinsiy xususiyatlariga bog'liq bo'lishi mumkin emasligini anglatadi. Bu - ayollarning ham, erkaklarning ham (shuningdek, qizlar va o'g'il bolalarning) manfaatlarini, ehtiyojlari va ustuvor maqsadlari e'tiborga olinishini nazarda tutib, bunda turli odam guruhlarining xilma-xilligi va keng qamrovlilik xususiyati tan olinadi. Gender tengligi ayollar muammosigina bo'lib qolmasdan, jamiyatning barcha a'zolarini tashvishlantirishi va jalb qilishi kerak bo'lib, u ham inson huquqlari muammosi, ham odamlarga yo'naltirilgan barqaror rivojlanishning birlamchi sharti va ko'rsatkichi sifatida qaraladi. <sup>29</sup>
<b>Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi (GUT)</b>	<p>Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi (GUT) - kimyoviy moddalar bilan bog'liq xavflarni tasniflash va ular to'g'risidagi ma'lumotlarni yetkazish uchun standartlashtirilgan global tizim. GUT Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, 2002-yilda qabul qilingan. Keyinchalik, ko'plab mamlakatlar GUTni o'zining tartibga solish tizimlari uchun asos sifatida qabul qilgan.</p> <p>GUT kimyoviy moddalarning keng turlarini qamrab olib, ularning jismoniy, salomatlik va atrof-muhitga nisbatan bo'lgan xavf darajasiga qarab tasniflash mezonlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, u ma'lumotlarni standartlashtirilgan tarzda yetkazish bo'yicha ko'rsatmalarni, masalan, yorliqlash elementlari, jumladan signal so'zlar, piktogrammalar va xavf to'g'risidagi ma'lumotnomalar; shuningdek, kimyoviy moddalarning xavfi va ular bilan xavfsiz muomala qilish va ularni qo'llash to'g'risida batafsil ma'lumot beradigan standartlashtirilgan xavfsizlik pasportini o'z ichiga oladi.</p> <p>Umuman olganda, GUTning maqsadi kimyoviy moddalarning xavfi to'g'risida izchil va aniq ma'lumot berish orqali ishchilar va aholining xavfsizligini oshirish. GUT, shuningdek, milliy, mintaqaviy va global darajada kimyoviy moddalarga oid qoidalar va me'yorlarni uyg'unlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.</p>
<b>Shikoyat kiritish mexanizmi</b>	Har qanday tadbirkorlik faoliyati yoki amaliyotlari salbiy ta'sir ko'rsatgan va shu munosabat bilan shikoyat kiritishni istayotgan va buni iloji bo'lsa anonim tarzda amalga oshirmoqchi bo'lgan jismoniy shaxslar, hamjamiyatlar va/yoki ularning vakillari uchun rasmiy yoki norasmiy, huquqiy yoki nohuquqiy mexanizm. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi ishonchli va ochiq bo'lishi hamda barcha manfaatdor tomonlar tarafidan tan olinishi kerak. Shikoyatlarni hal qilish jarayoni xolis va shaffof bo'lishi, har bir bosqichda maxfiylik mezoniga va shikoyatchining xohish-istaklariga rioya qilinishi kerak.
<b>Pestitsidlarga qarshi kurashish harakati tarmog'i</b>	Pestitsidlarga qarshi kurashish harakati tarmog'i (PAN) <sup>30</sup> o'ta xavfli pestitsidlar (O'XP) xalqaro ro'yxati - inson salomatligi va atrof-muhit uchun juda yuqori xavf tug'diradigan pestitsidlar ro'yxati hisoblanadi.

<sup>29</sup> Manba: BMT-Ayollar tuzilmasi. 'Gender Mainstreaming: Concepts and Definitions'. 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.un.org/womenwatch/osagi/conceptsanddefinitions.htm>.

<sup>30</sup> Pestitsidlarga qarshi kurashish harakati xalqaro tarmog'i. 'PAN International List of Highly Hazardous Pesticides (PAN List of HHPs)'. (2021 yil mart). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://pan-international.org/wp-content/uploads/PAN\\_HHP\\_List.pdf](https://pan-international.org/wp-content/uploads/PAN_HHP_List.pdf).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
<b>(PAN) o'ta xavfli pestitsidlar (O'XP) xalqaro ro'yxatining 3-guruhi</b>	<p>Ro'yxat Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, AQSH Atrof-muhitni muhofaza qilish agentligi (EPA), Yevropa komissiyasi va pestitsidlar xususiyatlari ma'lumotlar bazasidan olingan ma'lumotlarni to'plash orqali tuzilgan.</p> <p>3-guruhda PAN ning ekologik toksiklik mezonlariga javob beradigan faol moddalar mavjud. Ular quyidagicha tasniflanadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Tuproq, cho'kindi va dengiz/chuchuk suvda juda chidamli</li> <li>- Kuchli bioakkumulyatsiya xususiyatiga ega</li> <li>- Suv organizmlari uchun o'ta zaharli</li> <li>- Asalarilar uchun o'ta zaharli</li> </ul>
<b>Tazyiq</b>	Shaxsning qadr-qimmatini tushirish yoki unga qo'rquv, dushmanlik, qadr-qimmat kamsitilishi, tahqirlanish yoki izzat-nafsiga tegish asosidagi muhit yaratishga qaratilgan ma'lum bir xususiyat bilan bog'liq bo'lgan nomaqbul xatti-harakatlar. U tegajog'lik, jinsiy zo'rvonlik va qo'rqitishni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi.
<b>Xavfli ish</b>	<p>Bola mehnati nuqtayi nazaridan, xavfli ish Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan o'zining tabiati yoki bajariladigan sharoitlariga ko'ra, 18 yoshga to'lmagan shaxslarning sog'lig'i, xavfsizligi yoki axloqiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan har qanday ish sifatida ta'riflanadi.<sup>31</sup></p> <p>Unga qishloq xo'jaligi kimyoviy moddalari, pestitsidlar va o'g'itlarni qo'llash, qishloq xo'jaligi asbob-uskunalar va mexanizmlaridan foydalanish; og'ir materiallar yoki tovarlarni ko'tarish yoki ko'chirish; yer ostida, suv ostida yoki xavfli balandliklarda xavfli ishlarni bajarish yoki uzoq vaqt davomida yoki haddan tashqari issiqlikda ishlash kabi mehnat turlari kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi. Yosh ishchi tomonidan bajariladigan har bir faoliyat kattalar tomonidan nazorat qilinishi kerak. XMTning 182-sonli Konvensiyasi (Bola mehnatining eng yomon shakllari to'g'risidagi konvensiya) umumjahon miqyosida ratifikatsiya qilingan bo'lib, XMTga a'zo barcha davlatlar bolalar bajarishi mumkin bo'lmagan xavfli vazifalar ro'yxatiga ega bo'lishi kerakligini nazarda tutadi.</p>
<b>Issiqlik stressi</b>	Issiqlik stressi odam tanasi fiziologik ziyonsiz toqat qila oladigan darajadan ortiq bo'lgan issiqlikni anglatadi. Ishchi ish paytida issiq sharoitda ish joyida boshidan kechirayotgan stress darajasiga to'rtta ekologik omil ta'sir qiladi: harorat, namlik, nurli issiqlik (masalan, quyosh yoki pechdan) va shamol tezligi. Issiqlik stressi ma'lum bir chegaradan yuqoriga o'tganda, tananing ichki tartibga solish mexanizmlari tana haroratini normal faoliyat uchun zarur bo'lgan darajada ushlab turishga qodir bo'lmay qoladi. Natijada, noqulaylik, jismoniy funktsiya va imkoniyatlarning cheklanishi, shuningdek, jarohatlar va issiq harorat bilan bog'liq kasalliklar xavfi ortadi. <sup>32</sup>

<sup>31</sup> XMT. Ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risidagi Konvensiya, 1973 yil (138-son)'. (1973). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100\\_ilo\\_code:C138](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ilo_code:C138).

<sup>32</sup> XMT. 'Working on a WARMER Planet The Impact of Heat Stress on Labour Productivity and Decent Work'. (2019). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-/dgreports/-/dcomm/-/publ/documents/publication/wcms\\_711919.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/-/dgreports/-/dcomm/-/publ/documents/publication/wcms_711919.pdf).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rifi
<b>Yuqori muhofaza qiymati (YUMQ)</b>	<p>Yuqori muhofaza qiymati - bu yuqori yoki muhim ahamiyatga ega bo'lgan biologik, ekologik, ijtimoiy yoki madaniy qiymat. Yuqori muhofaza qiymatlarining oltita toifasi mavjud:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1-YUMQ: Turlarning xilma-xilligi: global, mintaqaviy yoki milliy darajada muhim bo'lgan endemik turlar va noyob, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan yoki yo'qolib ketayotgan turlarni o'z ichiga olgan biologik xilma-xillik konsentratsiyasi. Masalan, global miqyosda yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan bir nechta qush turining mavjudligi.</li> <li>- 2-YUMQ: Landshaft darajasidagi ekotizimlar, ekotizim mozaikalari va inson tomonidan tegilmagan o'rmon landshaftlari: global, mintaqaviy yoki milliy miqyosda muhim ahamiyatga ega bo'lgan hamda tarqalishi va populyatsiyaning tabiiy sharoitlarida tabiiy ravishda uchraydigan ko'pchilik turlarning hayotiy populyatsiyalarini o'z ichiga olgan yirik, landshaft darajasidagi ekotizimlar va ekotizim mozaikalari. Bunga mezoamerika suv bosgan o'tloqlar va to'qay o'rmonlarining katta qismi giatsint ara, yaguar, yoldor bo'ri, bahaybat qunduz va ko'plab kichik turlarning sog'lom populyatsiyalari misol bo'ladi.</li> <li>- 3-YUMQ: Ekotizimlar va yashash muhitlari: noyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi yoki yo'qolib ketayotgan ekotizimlar, yashash muhitlari yoki pana joylar. Bunga mintaqada kam uchraydigan chuchuk suv botqoqlari misol bo'ladi.</li> <li>- 4-YUMQ: Ekotizim xizmatlari: Eng muhim vaziyatlarda ko'rsatiladigan asosiy ekotizim xizmatlari, shu jumladan suv havzalari muhofazasi va himoyasiz tuproqlar va tog' yonbag'irlarining eroziyasiga qarshi kurashish. Masalan, shahar tepasidagi tik qiyalikda qor ko'chkisi xavfini tug'diradigan o'rmon.</li> <li>- 5-YUMQ: Hamjamiyat ehtiyojlari: Mahalliy hamjamiyatlar yoki tub xalqlar bilan hamkorlikda aniqlangan va ularning asosiy ehtiyojlarini (daromad manbalari, salomatlik, ovqatlanish, suv va boshqalar) qondirish uchun zarur bo'lgan asosiy hudud va manbalar. Masalan, kun kechirish uchun zarur miqdor darajasida yashayotgan hamjamiyatlar uchun asosiy ov hududlari.</li> <li>- 6-YUMQ: Madaniy qadriyatlar: Mahalliy hamjamiyatlar yoki tub xalqlar bilan hamkorlikda aniqlangan va global yoki milliy madaniy, arxeologik yoki tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan va/yoki mahalliy hamjamiyatlar yoki tub xalqlarning an'anaviy madaniyatlarini uchun muhim madaniy, ekologik, iqtisodiy yoki diniy/muqaddas ahamiyatga ega bo'lgan joylar, resurslar, yashash muhitlari va landshaftlari. Masalan, o'rmon xo'jaligi hududidagi muqaddas qabriston yoki yangi qishloq xo'jaligi plantatsiyasi.<sup>33</sup></li> </ul>
<b>O'ta xavfli pestitsidlar (O'XP)</b>	<p>BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti/JSSTning pestitsidlarni boshqarish bo'yicha qo'shma yig'ilishi tomonidan kelishilgan O'XP mezonlariga<sup>34</sup> muvofiq, O'ta xavfli pestitsidlar (O'XP) deganda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) yoki Kimyoviy moddalarni tasniflash va yorliqlashning global uyg'unlashtirilgan tizimi (GUT) kabi xalqaro miqyosda qabul qilingan tasniflash tizimlari yoki ularning tegishli majburiy xalqaro shartnomalar yoki konvensiyalar ro'yxatiga muvofiq, inson salomatligi va atrof-muhit uchun o'tkir yoki surunkali</p>

<sup>33</sup> HCV Network. 'HCV Approach'. 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.hcvnetwork.org/hcv-approach>.

<sup>34</sup> FAO. 'Pest and Pesticide Management'. NSP - Highly Hazardous Pesticides (HHPs). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. <https://www.fao.org/agriculture/crops/thematic-sitemap/theme/pests/code/hhp/en/>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
	xavfning yuqori darajasiga ega bo'lgan, deb e'tirof etilgan pestitsidlar. Bundan tashqari, mamlakatdagi foydalanish sharoitlarida inson salomatligi yoki atrof-muhitga jiddiy yoki ortga qaytarilmaydigan zarar yetkazadigan pestitsidlar o'ta xavfli deb hisoblanishi mumkin. <sup>35</sup>
<b>Uy xo'jaligining tashqi omillarga chidamliligi</b>	Uy xo'jaliklarining tashqi omillarga chidamliligi oilalar va hamjamiyatlarning himoyasizlikni cheklaydigan va barqarorlikni rag'batlantiradigan tarzda stress va zarbalarga tayyorlanish va ularga qarshi javob choralarini ko'rish qobiliyatini o'z ichiga oladi.
<b>Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) majburiy mehnat ko'rsatkichlari</b>	Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan majburiy mehnatning 11 ta asosiy ko'rsatkichi aniqlangan: himoyasizlik holatini suiiste'mol qilish, aldash, harakatlanishni cheklash, yakkalash, jismoniy va jinsiy zo'ravonlik, qo'rqitish va tahdidlar, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni ushlab turish, ish haqini ushlab qolish, qarzdorlik qulligi, tahqirlovchi mehnat va yashash sharoitlari va ish vaqtidan tashqaridagi mehnatning haddan tashqari ko'pligi. Harakatlanishni cheklash, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarni ushlab turish, jismoniy va jinsiy zo'ravonlik yoki qo'rqitish va tahdid kabi ko'rsatkichlar majburiy mehnatning kuchli ko'rsatkichlari hisoblanadi. Boshqa ko'rsatkichlar kuchli ko'rsatkich bilan birgalikda mavjud bo'lishi majburiy mehnat holatidan darak berishi mumkin. <sup>36</sup>
<b>Inklyuzivlik</b>	Inklyuzivlik ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslarning imkoniyatlarini kengaytirish, ularga resurslardan foydalanish, ovoz berish, huquqlarini ta'minlash, yetakchilik va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etish orqali ularning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ishtirok etish shartlarini takomillashtirish jarayoni sifatida ta'riflanadi. Better Cotton tashabbusi tamoyil va mezonlari nuqtayi nazaridan "inklyuzivlik" barcha shaxslar tadbirlar, xizmatlar va imtiyozlardan foydalanishda teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish va buning zarur bo'lgan choralarni ko'rishni anglatadi. Ayollar, yoshlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki jamiyatdan chetlashtirilgan guruhlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Ishtirok etish doirasida ularga o'zi uchun muhim bo'lgan masalalarga qachon va qay tarzda hissa qo'shishni tanlash imkoni berilishi kerak.
<b>Ko'rsatkich</b>	Better Cotton tashabbusi tamoyil va mezonlarida Ko'rsatkichlar har bir mezon bo'yicha maxsus talablarga taalluqli bo'lib, ular asosida Paxta yetishtiruvchilar Better Cotton yorlig'i ostida paxta sotish uchun litsenziya olishdan avval muvofiqlik bo'yicha baholanadi.
<b>Fermer xo'jaligida paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan shaxslar</b>	Paxta yetishtirish jarayonidagi vazifalari va gender o'ziga xosligi, jinsi, jinsiy oriyentatsiyasi, yoshi, millati, etnik kelib chiqishi, tili, irqi, sinfi, tabaqasi, ijtimoiy kelib chiqishi, dini, e'tiqodi, qobiliyatlari va nogironlik holati, sog'ligi, siyosiy mansubligi, siyosiy qarashlari, oilaviy yoki boshqa har qanday maqomidan qat'i nazar, Better Cotton yorlig'i ostida paxta yetishtirish bilan shug'ullanadigan tomorqa xo'jaliklarining barcha a'zolari, ishchilar, ijarachilar, chorakorlar va fermer xo'jaliklari darajasidagi boshqa shaxslar kiradi. <sup>37</sup>

<sup>35</sup> FAO. 'International Code of Conduct on the Distribution and Use of Pesticides Annotated List of Technical Guidelines for the Implementation of the International Code of Conduct on the Distribution and Use of Pesticides'. (2013). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra. [https://www.fao.org/fileadmin/templates/agphome/documents/Pests\\_Pesticides/Code/Annotated\\_Guidelines2013.pdf](https://www.fao.org/fileadmin/templates/agphome/documents/Pests_Pesticides/Code/Annotated_Guidelines2013.pdf); FAO/JSST.

'International Code of Conduct on Pesticide Management Guidelines on Highly Hazardous Pesticides.' (2016). 2023-yil 7-fevral holatiga ko'ra.

[http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/205561/9789241510417\\_eng.pdf;jsessionid=9CBD0065C301F4413677565AE78820B2?sequence=1](http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/205561/9789241510417_eng.pdf;jsessionid=9CBD0065C301F4413677565AE78820B2?sequence=1).

<sup>36</sup> XMT. XMTning majburiy mehnat bo'yicha ko'rsatkichlari. (2012 yil). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/global/topics/forced-labour/publications/WCMS\\_203832/lang-en/index.htm](https://www.ilo.org/global/topics/forced-labour/publications/WCMS_203832/lang-en/index.htm).

<sup>37</sup> Manba: BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti. 'Report on the World Social Situation: Identifying Social Inclusion and Exclusion'. (2016): 17-31. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://doi.org/10.18356/5890648c-en>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
<b>Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish (ZQKK)</b>	Zararkunandalarga qarshi kompleks kurashish - bu zararkunandalarga qarshi kurashishning barcha mavjud usullarini sinchiklab o'rganib chiqish asosida zararkunandalar populyatsiyasining rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tegishli choralarni birlashtirish. U sog'lom ekinlarni yetishtirish va pestitsidlardan foydalanish darajasini minimallashtirish uchun biologik, kimyoviy, fizik va ekinlarga xos (madaniy) boshqaruv strategiyalari va usullarini birlashtiradi. Bu orqali zararkunandalarga qarshi tabiatga bezarar tarzda kurashish uchun pestitsidlar tomonidan inson salomatligi va atrof-muhit uchun keltirib chiqariladigan xavflar kamaytiriladi yoki minimal darajaga tushiriladi. <sup>38</sup>
<b>Keng qamrovlilik</b>	Keng qamrovlilik tushunchasi shaxsning jinsi, irqi, etnik kelib chiqishi, jinsiy oriyentatsiyasi, gender o'ziga xosligi, nogironlik holati, sinfi kabi tengsizlik tizimlari va kamsitilishning boshqa shakllari o'zaro kesishib, o'ziga xos dinamika va ta'sirlarni yaratish usullarini qamrab oladi. Tengsizlikning barcha shakllari bir-birini to'ldirib, kuchaytiradi va tengsizlikning bir shakli boshqasini kuchaytirishiga yo'l qo'ymaslik uchun ular bir vaqtning o'zida tahlil qilinishi va hal qilinishi kerak. <sup>39</sup>
<b>Qo'rqitish va tahdidlar</b>	Boshqa bir shaxsning zo'ravonlik va/yoki ta'qibdan qo'rqishiga sabab bo'ladigan xatti-harakat va amaliyotlar. Mehnat nuqtayi nazaridagi "zo'ravonlik va ta'qib" atamasi jismoniy, psixologik, jinsiy yoki iqtisodiy zarar keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo'lgan bir marta sodir bo'lgan yoki takrorlanib turadigan nomaqbul xatti-harakatlar va amaliyotlar yoki ular bilan tahdid qilishni anglatib, gender zo'ravonlik va ta'qibni o'z ichiga oladi. <sup>40</sup>
<b>Muhnat huquqlari buzilishi</b>	Mehnat huquqlarining buzilishi bolalar mehnati yoki majburiy mehnat, kamsitish, ish joyidagi zo'ravonlik va ta'qiblar, birlashmalar va jamoaviy muzokaralar olib borish erkinligiga aralashish, nomaqbul mehnat sharoitlari yoki ishga yollashning noqonuniy usullarini o'z ichiga oladi.
<b>Yirik fermer xo'jaliklari (YFX)</b>	Better Cotton tashabbusining standartlar tizimida yirik fermer xo'jaliklari (YFX) deganda, odatda, paxta yetishtiriladigan yer maydoni 200 gektardan ortiq bo'lgan, ishlab chiqarish mexanizatsiyalashgan yoki tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma mehnatga bog'liq bo'lgan fermer xo'jaliklari tushuniladi. YFXlar Better Cotton tashabbusi doirasida individual asosda yoki (ba'zi sharoitlarda) YFXlar talablarga javob berishini Guruh tarkibida kafolatlash (LF Group Assurance) modeli orqali ishtirok etadi.
<b>O'rta hajmdagi fermer xo'jaliklari (O'FX)</b>	Better Cotton tashabbusining standartlar tizimiga muvofiq, O'rta hajmdagi fermer xo'jaliklari (O'FX) deganda, odatda, paxta yetishtiriladigan yer maydoni 20 dan 200 gektargacha bo'lgan va tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma mehnatga bog'liq bo'lgan fermer xo'jaliklari tushuniladi. Litsenziya olish maqsadida, O'FXlar ishlab chiqaruvchilar birlashmalariga guruhlanadi.
<b>Monreal protokoli</b>	Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar to'g'risidagi Monreal protokoli stratosfera ozon qatlamini himoya qilish bo'yicha muhim ko'p tomonlama ekologik kelishuv hisoblanadi. 1987-yil 15-sentyabrda qabul qilingan protokol 198 davlat va Yevropa Ittifoqi tomonidan ratifikatsiya qilingan bo'lib, qo'shilgan davlatlar soni ko'pligi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinlarda turadigan xalqaro shartnomalardan biri.

<sup>38</sup> FAO. 'Pest and Pesticide Management'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.fao.org/pest-and-pesticide-management/en/>.

<sup>39</sup> Center for Intersectional Justice. 'What Is Intersectionality'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra 3. <https://www.intersectionaljustice.org/what-is-intersectionality>.

<sup>40</sup> XMT. "Zo'ravonlik va tazyiq to'g'risidagi konvensiya" (190-son). (2019 yil). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. [https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100\\_ILO\\_CODE:C190](https://www.ilo.org/dyn/normlex/en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_ILO_CODE:C190).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
	Ozon qatlami - yer atmosferasining quyoshdan keladigan zararli ultrabinafsha nurlanishni filtrlaydigan himoya qatlami. Ozonni yemiruvchi moddalar (OYEM) - tarkibida xlor yoki brom atomlari bo'lgan sintetik kimyoviy moddalar bo'lib, atmosferaga chiqarilganda, ozon qatlamini yo'q qilishi mumkin. Monreal protokoli ozon qatlamini himoya qilish va iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish uchun vaqt o'tishi bilan 100 ga yaqin, asosan, inson tomonidan ishlab chiqariladigan OYEMni ishlab chiqarish va iste'mol qilishdan bosqichma-bosqich voz kechishga qaratilgan.
<b>Milliy darajada ro'yxatdan o'tkazilgan pestitsidlar</b>	Ma'lum bir mamlakatda qonuniy ruxsat berilgan pestitsidlar ro'yxati (ayrim mamlakatlarda paxta yetishtirishda foydalanish uchun faqat ma'lum turdagi pestitsidlarni ro'yxatdan o'tkazish mumkin).
<b>Tabiiy ekotizim</b>	O'rmonga oid bo'lgan va bo'lmagan o'simliklar, shu jumladan o'rmonzorlar, butazorlar va o'tloqlar. Ular, asosan, mahalliy bo'lib, ularning jismoniy tuzilishi va tur tarkibi tabiiy ekologik jarayonlar va/yoki an'anaviy boshqaruv usullari (jumladan, o'rmonzorlarni yoqib tozalash usullari doirasida yerlarni ishlov bermasdan tiklash) doirasida belgilanadi.
<b>Tabiiy yashash muhiti</b>	Muayyan organizm yashaydigan va buning uchun zarur bo'lgan asosiy ehtiyojlar: oziq-ovqat, suv, boshpana va avlod ko'paytirish uchun joy ta'minlangan noyob ekotizim. Omon qolish uchun barcha organizmlar yashash muhitiga moslashishi kerak. <sup>41</sup>
<b>Tabiiy moddalar</b>	O'simliklarni himoya qilish nuqtayi nazaridan olib qaraganda, tabiiy moddalar kimyoviy bo'lmagan ishlov berish usuliga mos kelib, biopestitsidlarga tenglashtirilishi mumkin. Bular - hayvonlar, o'simliklar, bakteriyalar va ayrim minerallar kabi tabiiy materiallardan olingan pestitsidlar bo'lib, "uy sharoitida" yoki sanoat miqyosida ishlab chiqarilishi mumkin.
<b>Kimyoviy bo'lmagan usullar</b>	Zararkunandalarga qarshi kurashishning pestitsidlardan foydalanilmaydigan usullari. Bunda zararkunandalarga qarshi kurashish mexanik, biologik yoki sun'iy yetishtirish usullari orqali amalga oshiriladi.
<b>Ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatdagi va/yoki jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslar</b>	<p>Ijtimoiy himoyaga muhtoj vaziyatda bo'lgan shaxslar - kambag'allik, yosh yoki sog'liq muammolari kabi jismoniy, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar yoki jarayonlar tufayli zarar, ekspluatatsiya yoki salbiy ta'sirlar xavfi ostida bo'lgan va turli huquqlar, imkoniyatlar va resurslardan foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladigan guruhlar (vaziyat noqulayligi).</p> <p>Jamiyatdan chetlashtirilgan shaxslar - irqi, tabaqasi, etnik kelib chiqishi va shu kabi o'ziga xos xususiyatlari tufayli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy huquqlar, imkoniyat va resurslardan, shu jumladan investitsiyalardan tarixan to'liq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan va/yoki undan foydalana olmagan guruhlardir.</p> <p>Ikkala toifa ham o'zaro kesishishi mumkin (shuningdek, keng qamrovlilikka qarang) bo'lib, mamlakat va mahalliy sharoitga bog'liqlik darajasi nihoyatda yuqori.</p>

<sup>41</sup> Tabiatni muhoqaza qilish xalqaro jamg'armasi. 'Habitat and Adaptation'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. [https://www.panda.org/discover/knowledge\\_hub/teacher\\_resources/webfieldtrips/hab\\_adaptation/](https://www.panda.org/discover/knowledge_hub/teacher_resources/webfieldtrips/hab_adaptation/).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rifi
<b>Tegishli Shaxsiy himoya vositalari (SHHV) -</b>	Better Cotton Tamoyil va mezonlarida tegishli Shaxsiy himoya vositalari (SHHV) deganda, pestitsidlar yorig'ida batafsil tavsiflanganidek, pestitsidlarni qo'llashda xavfli moddalarning teri orqali so'rilishi, ularni og'iz yoki nafas yo'llari orqali yutish shaklidagi ta'sirining oldini olish uchun va/yoki kamaytirish uchun foydalaniladigan/kiyiladigan maxsus kiyim-kechak, material yoki jihozlar tushuniladi. Materiallar suv o'tkazmaydigan, to'qilmagan (pestitsidlarning o'tishiga yo'l qo'ymaslik uchun), kimyoviy jihatdan chidamli va har foydalanishdan keyin zaharli elementlarni ketkazish uchun yuviladigan bo'lishi kerak. Bunday SHHV bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar uchun mos va qulay bo'lishi va mavjud iqlim sharoitlariga mos kelishi kerak.
<b>Minimal Shaxsiy himoya vositalari (SHHV)</b>	Better Cotton Tamoyil va mezonlarida minimal Shaxsiy himoya vositalari deganda fermerlar va ishchilar uchun pestitsidlar bilan ishlashda tananing quyidagi qismlarini xavfli moddalarning teri orqali so'rilishi, ularni og'iz yoki nafas yo'llari orqali yutishdan himoya qiluvchi kiyim va jihozlarni kiyish/ foydalanish orqali o'zlarini himoya qilishi uchun qo'yiladigan minimal talablar tushuniladi: <ul style="list-style-type: none"> <li>- yuz va nafas olish yo'llari (ko'z, quloq kanallari, burun va bosh terisi);</li> <li>- oyoq-qo'llar (qo'l, bilak, kaft, boldir va oyoq kafti);</li> <li>- qorin sohasi va jinsiy a'zolar hududi.</li> </ul>
<b>Zararkunandalar (populyatsiyalari)</b>	Zararkunanda - bu odamlarga, ularning chorva mollariga, ekinlariga yoki mulkiga zarar yetkazadigan organizm. Bunday kalit so'z "zarar" bo'lib, u, odatda, o'lchanishi (ko'pincha miqdoriy jihatdan) va iqtisodiy yo'qotishga tenglashtirilishi mumkin. Zararkunandalar populyatsiyasi deganda ma'lum bir hududda ma'lum bir vaqtda topilgan har bir zararkunanda turining organizmlari soni, masalan, bitta paxta maydonida yoki kengroq geografik hududdagi mavjudligi tushuniladi.
<b>Pestitsid</b>	Zararkunandalarning oldini olish, yo'q qilish yoki ularga qarshi kurashish uchun mo'ljallangan har qanday modda yoki moddalar aralashmasi. Ushbu atama o'simliklarning o'sishini tartibga soluvchilar, defoliantlar, qurituvchilar yoki mevalarni yaganalash yoki mevalar erta to'kilishining oldini olish uchun vositalar, shuningdek biopestitsidlar sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan moddalarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu atama saqlash va tashish paytida mahsulotni buzilishdan himoya qilish uchun hosilni yig'ib-terib olishdan avval yoki keyin qo'llanadigan moddalarni o'z ichiga oladi. <sup>42</sup> Pestitsidlar ushbu maqsadlardan biri uchun qo'llanadigan sintetik va tabiiy moddalarni anglatadi.
<b>Pestitsidlar aralashmasi</b>	Pestitsidlar aralashmasi deganda ikki yoki undan ortiq pestitsid (insektitsidlar, fungitsidlar va/yoki maytitsidlar) purkash uchun bitta eritmaga birlashtirilgan holat tushuniladi. <sup>43</sup>

<sup>42</sup> FAO. 'International Code of Conduct on the Distribution and Use of Pesticides, Revised Version'. (2005). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.croplifela.org/images/EN/articulos/27/a0220e00.pdf>.

<sup>43</sup> Cloyd, Dr. Raymond A. 'Pesticide Mixtures'. Kansas State University, Department of Entomology, (2011). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. [https://cdn.intechopen.com/pdfs/13005/InTech-Pesticide\\_mixtures.pdf](https://cdn.intechopen.com/pdfs/13005/InTech-Pesticide_mixtures.pdf).

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.



Atama	Ta'rif
<b>O'simlik chidamliligi</b>	O'simlikning zararkunandalar yoki kasalliklardan qisman yoki to'liq himoyalaniş bo'yicha irsiy qobiliyati bo'lib, o'simlikka yetkaziladigan ziyon miqdorini minimallashtiradi.
<b>Tamoyillar</b>	Tamoyillar - Better Cotton Tamoyil va mezonlaridagi atrof-muhit barqarorligini ta'minlashga qaratilgan umumiy sohalar.
<b>Paxta yetishtiruvchi</b>	Better Cotton tashabbusining standartlar tizimiga ko'ra, litsenziyalash birligi Paxta yetishtiruvchi turiga asoslangan holda belgilanib, Dehqon xo'jaliklari (DX) yoki O'rta hajmdagi fermer xo'jaliklarining (O'FX) ishlab chiqaruvchilar birlashmasi yoki Yirik fermer xo'jaliklari (YFX) holatida alohida xo'jalik bo'lishi mumkin.
<b>Ishlab chiqaruvchilar birlashmasi (ICHB)</b>	Ishlab chiqaruvchilar birlashmasi (ICHB) - Better Cotton dasturida ishtirok etish uchun umumiy boshqaruv tuzilmasi ostida birlashgan Dehqon xo'jaliklari (TX) yoki O'rta hajmdagi fermer xo'jaliklari (O'FX) guruhi. Har bir ICHB fermerlarni ICHB doirasida qo'llab-quvvatlash, o'qitish va monitoring qilish maqsadida ichki boshqaruv tizimini joriy qilish uchun mas'ul bo'lgan ICHBning maxsus menedjeri tomonidan nazorat qilinadi. ICHB hajmi mahalliy sharoitga bog'liq bo'lib, optimal o'lcham DX ICHB uchun 3500 dan 4000 gacha fermer va O'FX ICHB uchun 100 ga yaqin fermerni tashkil qiladi. DX ICHBdagi fermerlar yana o'quv guruhlariga bo'linadi.
<b>Ishlab chiqaruvchilar birlashmasi menedjeri</b>	Ishlab chiqaruvchilar birlashmasi darajasida Better Cotton Tamoyil va mezonlarini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan asosiy shaxs.
<b>Dalaga qayta kirish uchun o'tishi kerak vaqt oralig'i</b>	Muayyan maydon yoki ekinga pestitsid qo'llangandan so'ng odamlar mazkur hududga himoya kiyimi va jihozlarisiz kira olishi uchun o'tishi lozim bo'lgan minimal vaqt. <sup>44</sup>
<b>Qayta tiklash (yer/biologik xilma-xillik/ tabiiy yashash muhitlari)</b>	Degradatsiyaga uchragan, ziyon yetkazilgan yoki vayron bo'lgan ekotizimni (va unga bog'liq bo'lgan tabiatni muhofaza qilish qiymatlarini) tiklashga yordam berish jarayoni. <sup>45</sup>
<b>Qirg'oq bo'yi bufer zonasi</b>	Qirg'oq bo'yi bufer zonasi, shuningdek, bufer chizig'i deb ham ataladi, suv oqimi yaqinidagi o'simliklar bilan qoplangan maydon bo'lib, u suv oqimini soyalash va suvni qo'shni yer maydonlaridan foydalanish oqibatlaridan qisman himoya qilishga yordam beradi. Qirg'oq bo'yi bufer zonasi o'zaro bog'langan suv oqimlari, daryolar va ko'llardagi suv sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va shu orqali atrof-muhitga foyda keltiradi. Bufer zonalarining kengligi buferning funksiyasi (masalan, biologik xilma-xillikni asrash, filtrlash yoki kimyoviy oqimni ushlab qolish), bufer maydonining qiyaligi va daryo yoki suv oqimining kengligiga qarab aniqlanishi kerak. Ayrim mamlakatlarda bufer zonasi o'lchamlari qonunchilik asosida belgilanadi.

<sup>44</sup> Canadian Centre for Occupational Health and Safety. 'Pesticides - Re-entry Interval'. OSH Answers Fact Sheets. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.ccohs.ca/oshanswers/chemicals/pesticides/reentry.html>.

<sup>45</sup> Accountability Framework tashabbusi. 'Terms and Definitions'. (June 2019). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://accountability-framework.org/wp-content/uploads/2019/07/Definitions.pdf>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
<b>Rotterdam konvensiyasi</b>	<p>Xalqaro savdoda xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarni sotish uchun oldindan berilgan ongli rozilik protsedurasi to'g'risidagi Rotterdam konvensiyasi 1998 yilda qabul qilingan va 2004 yilda kuchga kirgan yuridik jihatdan majburiy xalqaro shartnoma hisoblanadi. Unda asosiy e'tibor xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarning xalqaro savdosi bilan bog'liq tartib-taomillarga qaratiladi. Jumladan, umumiy mas'uliyatni ta'minlash va import qiluvchi mamlakatlar pestitsidlarni import qilishga ruxsat berishidan avval ularning potensial xavflari to'g'risida to'liq xabardor etilishini ta'minlash orqali Konvensiya inson salomatligi va atrof-muhitni xavfli moddalardan foydalanish va ular bilan savdo qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflardan himoya qilishga qaratilgan.</p> <p>Konvensiyaning maqsadlari quyidagilardan iborat:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ayrim xavfli kimyoviy moddalarning xalqaro savdosida tomonlar o'rtasida umumiy mas'uliyat va hamkorlikdagi sa'y-harakatlarni targ'ib qilish;</li> <li>- xavfli kimyoviy moddalarning xususiyatlari to'g'risida ma'lumot almashishni ta'minlash, ularni import va eksport qilish bo'yicha milliy qarorlar qabul qilish jarayonini ta'minlash va ushbu qarorlarni Tomonlar o'rtasida tarqatish orqali ushbu moddalardan atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan oqilona foydalanishga hissa qo'shish.<sup>46</sup></li> </ul> <p>Konvensiyaning III ilovasida hujjatda belgilangan va oldindan berilgan ongli rozilik tartibi qo'llanishi lozim bo'lgan kimyoviy moddalar ro'yxati keltirilgan. U Konvensiyaga a'zo bo'lgan kamida ikkita davlatda (Tomonlar) xavfli deb topilgan va taqiqlangan yoki qat'iy cheklangan va muhim xalqaro savdo predmeti bo'lgan pestitsidlarni o'z ichiga oladi.</p>
<b>Dehqon xo'jaliklari (TX)</b>	<p>Better Cotton standartlar tizimiga ko'ra, Dehqon xo'jaliklari (DX) deganda, odatda, yer maydoni 20 gektardan oshmaydigan va tuzilmaviy jihatdan doimiy yollanma mehnatga bog'liq bo'lmagan fermer xo'jaliklari tushuniladi. Litsenziyalash maqsadida DX ishlab chiqaruvchilar birlashmalariga guruhlanadi.</p>
<b>Tuproq qoplami</b>	<p>Tuproq qoplami deganda tuproqni kuchli yomg'ir va shamol ta'sirida yuzaga keladigan eroziyadan himoya qilish yoki qurg'oqchilikda tuproq qurib ketishining oldini olishga yordam beradigan o'simliklar, shu jumladan, tuproq yuzasidagi ekinlar va ekin qoldiqlari tushuniladi.<sup>47</sup></p>
<b>Tuproq tuzilmasining buzilishi</b>	<p>Tuproqdagi tabiiy jarayonlarni, shu jumladan undagi fizik yoki kimyoviy o'zgarishlarni to'xtatib qo'yadigan dehqonchilik usullari.<sup>48</sup></p>

<sup>46</sup> BMT Atrof-muhit dasturi. 'Rotterdam Convention Overview'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <http://www.pic.int/TheConvention/Overview/tabid/1044/language/en-US/Default.aspx>.

<sup>47</sup> Farming for a Better Climate. 'Regenerative Agriculture: Keeping Soil Covered'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.farmingforabetterclimate.org/soil-regenerative-agriculture-group/regenerative-agriculture-keeping-soil-covered/>.

<sup>48</sup> Farming for a Better Climate. 'Regenerative Agriculture: Minimise Soil Disturbance'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.farmingforabetterclimate.org/soil-regenerative-agriculture-group/regenerative-agriculture-minimise-soil-disturbance/>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rifi
<b>Tuproq eroziyasi</b>	Suv, shamol, hayvonlar yoki inson faoliyati natijasida tuproq yuqori qatlaminin yer yuzasidan tez ko'chishi. <sup>49</sup>
<b>Tuproq salomatligi</b>	Tuproq tirik tizim sifatida ishlash qobiliyati. Bu - tuproqning kimyoviy, fizik va biologik xususiyatlariga bog'liq. Tuproq unumdorligi, ya'ni asosiy ozuqa moddalarini o'simliklarga yetkazib berish orqali ularning o'sishini ta'minlash qobiliyati tuproq salomatligi bilan bog'liq. Sog'lom, biologik xilma-xillikka ega bo'lgan tuproq ekinlarning gullab-yashnashi, ozuqa moddalarining aylanmasi va suvni filtrlash uchun muhim ahamiyatga ega. Tuproq holatining yaxshilanishi hosildorlikni oshirishi mumkin bo'lib, bu bevosita fermerlarning daromadlarini ko'paytirishi mumkin.
<b>Tuproq yoki o'simlik tahlillari</b>	Tuproq yoki o'simliklar tahlili deganda, odatda, qishloq xo'jaligida o'g'itlardan foydalanish bo'yicha optimal tavsiyalarni aniqlash uchun o'simlik ozuqa moddalarining konsentratsiyasini baholash maqsadida o'tkaziladigan turli tuproq yoki o'simlik tahlillari tushuniladi.
<b>Tuproqning organik moddasi (TOM)</b>	Tuproqning organik moddasi (TOM) – tuproq organik moddalarining tarkibiy qismi bo'lib, parchalanishning turli bosqichlaridagi o'simlik va hayvonlarning qoldiqlari, tuproq mikroblarining hujayra va to'qimalari hamda tuproq mikroblarini sintez qiladigan moddalardan iborat. TOM tuproqning fizik-kimyoviy xossalari va ekotizimni tartibga soluvchi xizmatlarning ko'rsatilishi uchun ko'p foyda keltiradi. TOM, ayniqsa, tuproq funksiyasi va sifati uchun juda muhim. Umumiy TOM darajasini taxmin qilish uchun tuproq tarkibidagi organik uglerod miqdori keng qo'llanadigan o'lchov hisoblanadi.
<b>Stokgolm konvensiyasi</b>	<p>Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi Stokgolm konvensiyasi 2001-yilda qabul qilingan va 2004-yilda kuchga kirgan yuridik jihatdan majburiy bo'lgan xalqaro shartnoma hisoblanadi.</p> <p>Stokgolm konvensiyasi Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalarni ishlab chiqarish, ulardan foydalanish va atmosferaga chiqarish holatlariga barham berish yoki cheklashga qaratilgan. Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar organik kimyoviy moddalar (ya'ni, uglerodga asoslangan) bo'lib, fizik va kimyoviy xususiyatlarning ma'lum bir kombinatsiyasiga ega va atrof-muhitga chiqarilgandan so'ng:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Favqulodda uzoq vaqt davomida (ko'p yillar) o'zgarmas holatda qoladi;</li> <li>• Tuproq, suv va eng asosiysi, havo bilan bog'liq tabiiy jarayonlar natijasida atrof-muhit bo'ylab keng tarqaladi;</li> <li>• Tirik organizmlarda, jumladan, odam organizmida to'planib boradi va oziq-ovqat zanjirida yuqori konsentratsiyalarda uchraydi; va</li> <li>• Odamlar va hayvonot uchun zaharli.</li> </ul>

<sup>49</sup> FAO. 'Soil Erosion'. 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://www.fao.org/global-soil-partnership/areas-of-work/soil-erosion/en/#:~:text=What%20is%20soil%20erosion,through%20water%2C%20wind%20and%20tillage.https://www.fao.org/global-soil-partnership/areas-of-work/soil-erosion/en/>

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
	Konvensiya qoidalari Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar va ularga qarshi kurashish choralarini aniqlash, texnik yordam va salohiyatni oshirish hamda Konvensiya talablarining bajarilishini baholash bo'yicha monitoring mexanizmini yaratishni o'z ichiga oladi. <sup>50</sup>
<b>Barqaror daromad manbalari</b>	Barqaror daromad manbalariga fermerlar, fermer xo'jaliklari ishchilari hamda fermerlik hamjamiyatlari hatto tub o'zgarishlar paytlarida ham, boshqalarning hozirgi yoki kelajakdagi farovonligiga yoki atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda o'z resurslaridan munosib hayot kechirish, o'z farovonligini ta'minlash yoki oshirish uchun foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan holatda erishiladi.
<b>Toksik yuklama ko'rsatkichi</b>	<p>Pestitsiddagi faol moddalarning nisbiy toksikligini o'lchaydigan sifat ko'rsatkichi.</p> <p>U inson salomatligi, atrof-muhitga ta'siri va pestitsidlarning xalqaro tasniflarini quyidagi uchta toifadan foydalangan holda pestitsidlardan foydalanishni o'lchash va solishtirish uchun ball tizimiga aylantiradi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>(i) odamlar (sut emizuvchilar) uchun toksiklik darajasi;</li> <li>(ii) atrof-muhit uchun toksiklik darajasi;</li> <li>(iii) Atrof-muhitga ko'chishi; va</li> <li>(iv) Tashilishi (ta'sir qilish ehtimoli).</li> </ul>
<b>Suv havzasi</b>	Suvning yer ustida va / yoki ostida jismoniy to'planishi. Suv havzalariga soy, daryo, ko'l, okean, suvli-botqoq yerlar, daryo deltalari, hovuzlar, kanallar, suv omborlari yoki yer osti suvlari misol bo'ladi. <sup>51</sup>
<b>Suv sifati</b>	Suvning kimyoviy, fizik va biologik xususiyatlarini tavsiflash uchun ishlatiladigan atama bo'lib, odatda, uning ma'lum bir maqsadga yaroqliligi bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, bu - suv holatining bir yoki bir nechta biotik turlarning talablariga va/yoki inson ehtiyoji yoki maqsadiga nisbatan o'lchovi. <sup>52</sup>
<b>Ishchilar</b>	Better Cotton tashabbusi ishchilarni jinsi, kelib chiqishi yoki o'ziga xosligidan qat'i nazar, Paxta yetishtiruvchilar fermer xo'jaliklarida ishlaydigan barcha shaxslar sifatida ta'riflaydi. Ishchilar vaqtinchalik, mavsumiy yoki doimiy asosda bevosita fermerlar yoki subpudratchilar, masalan, bandlik agenti orqali yollanishi mumkin. Ishchilarga, odatda, mehnati uchun haq to'lanadi, ammo ishchi - oila a'zosi yoki hamjamiyat doirasida almashilgan ishchi bo'lsa – uning mehnati uchun haq to'lanmasligi ham mumkin. Ayrim holatlarda fermer xo'jaliklari darajasidagi ishlab chiqarish amaliyotlari va ishlab chiqarish xarajatlari yuzasidan qaror qabul qilish vakolatlari

<sup>50</sup> BMTning Atrof-muhit dasturi. Turg'un organik ifloslantiruvchi moddalar to'g'risidagi Stokgolm konvensiyasi. (2004 yil). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <http://chm.pops.int/TheConvention/Overview/tabid/3351/Default.aspx>.

<sup>51</sup> Alliance for Water Stewardship. 'The AWS International Water Stewardship Standard, Version 1.0'. (2014). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://a4ws.org/wp-content/uploads/2017/04/AWS-Standard-Full-v-1.0-English.pdf>.

<sup>52</sup> Alliance for Water Stewardship. 'The AWS International Water Stewardship Standard, Version 1.0'. (2014). 2023 yil 7 fevral holatiga ko'ra. <https://a4ws.org/wp-content/uploads/2017/04/AWS-Standard-Full-v-1.0-English.pdf>.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning "[Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik](#)" deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.

Atama	Ta'rif
	cheklangan yoki umuman bo'lmagan chorakorlar ham ishchilar sifatida tasniflanishi mumkin. Chorakorning batafsil ta'rif uchun, iltimos, "Better Cotton tashabbusining mehnat profili" bo'limiga murojaat qiling.
<b>Ishchilar (migrant)</b>	Paxtachilik xo'jaligida ma'lum muddatga haq to'lanadigan faoliyat, masalan, mavsumiy yoki vaqtinchalik ish bilan shug'ullanish uchun boshqa davlat yoki hududga ko'chib o'tgan shaxslar. Ish kunining oxirida yashash joyiga qaytib kela olmaydigan va ish joyiga yaqinroq joylashtirilishi kerak bo'lgan ishchilar mehnat migrantlari hisoblanadi.
<b>Ishchilar (doimiy)</b>	Yiliga 12 oy ishlaydigan ishchilar. Bu ishchilar fermer xo'jaligi hududida boshqa ekinlarni (paxtadan tashqari) yetishtirishda ham ishtirok etishi mumkin.
<b>Ishchilar (mavsumiy)</b>	Butun paxta mavsumida, ya'ni yiliga 3-7 oy ishlaydigan ishchilar. Bu ishchilarga, odatda, oylik yoki butun mavsum uchun bir martalik ish haqi yoki ba'zan hosilning foizi ko'rinishida haq to'lanadi. Chorakorlardan farqli o'laroq, mavsumiy ishchilar ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega emas.
<b>Ishchilar (vaqtinchalik)</b>	Muayyan vazifalarni bajarish uchun qisqa muddatli asosda ishga yollangan ishchilar. Vaqtinchalik ishchilarga, odatda, ishbay asosda haq to'lanadi (belgilangan muddat uchun, masalan, kun yoki soat yoki terilgan paxta, sug'orilgan yoki purkalgan maydon uchun va hokazo). Ayrim mamlakatlarda bunday ishchilar "tasodifiy", "vaqtinchalik", "shartnomaviy" yoki "erkin" ishchi kuchi deb atalishi mumkin va turli huquqiy maqomlarga ega bo'lishi mumkin. Better Cotton maqsadlari uchun bu ishchilarning barchasi "vaqtinchalik" toifasiga kiradi.
<b>Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 1-sinf</b>	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) 1-sinfi deganda pestitsidlar va boshqa xavfli moddalarni odamlar uchun toksiklik darajasiga qarab tasniflash tizimi tushuniladi. JSSTning 1-sinfiga kiruvchi moddalar o'ta xavfli bo'lib, hatto past dozalarda ham inson sog'lig'iga "o'tkir" yoki surunkali ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu moddalar o'lim, saraton, mutatsiyalar, tug'ma nuqsonlar yoki sog'liq uchun boshqa jiddiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. 1-sinf haddan tashqari xavfli (1a sinf) va o'ta xavfli (1b sinf) sinflarga ajratiladi.

Qachonki Tamoyil va mezonlarda fermerlar yoki ishchilar haqida gap ketganda, bu ikki tushuncha jinsi, kelib chiqishi va o'ziga xosligidan qat'i nazar, barcha shaxslarni o'z ichiga oladi. Qo'shimcha ma'lumot uchun bizning ["Ijtimoiy inklyuzivlikka sodiqlik"](#) deb nomlangan hujjatimiz hamda "fermerlar" va "ishchilar" tushunchalarining tavsifiga murojaat qiling.